masalasidir. O`zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish bo`yicha yaxlit tarbiya tizimi ham oila, ham maktabgacha ta`lim tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bola tarbiyasida bu ikki yo`nalish biri ikkinchisining o`rnini bosa olmaydi, balki biri ikkinchisini to`ldiradi. Sog`lom muhitda sog`lom bola o`sib ulg`aydi. Sog`lom muhitni yaratish oilada oila a`zolarining maktabgacha ta`lim tashkilotlarida pedagogik xodimlarning nechog`lik bilimdonligiga, zukkoligiga bog`liqdir. Ko`p xollarda bir xil yoshdagi bolalarning taraqqiyotida notekislikni ko`rish mumkin. Masalan: bir yoshli bolalarning ba`zilari 10 taga yaqin so`zni ayta oladi. Mustaqil yura oladi. Ayni shu yoshdagi ayrim bolalarning esa mustaqil yura olmasligining, zo`rg`a 1-2 ta so`zni ayta olishining guvoxi bo`lamiz. Shuningdek, maktabga boruvchi bolalar jismonan baquvvat, sog`lom, fikri teran, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to`g`risida oddiy mushohada qiladigan. “Yazshi” bilan “Yomon”ni, “Gunoh” bilan “Savob”ni ajrata oladigan bo`ladi. Aynan shu yoshdagi ba`zi bolalarda esa bunga teskari bo`lgan xususiyatlarni uchratish mumkin. Bunday notekislikka asosiy sabab kattalarning e`tiborsizligi yoki bola tarbiyasi bo`yicha yetarli bilimga ega bo`lmasligidir.

Bolani jismonan, ma`nan, ruhan yetuk inson qilib tarbiyalashda oila va bog`chani hamkorligi muhim ahamiyati kasb etadi. Shuning uchun har bir oiladagi pedagogik madaniyatni takomillashtirish zarur. Bog`cha murabbiylari tarbiya borasida ota-onalarga ota-onalarga ham ta`sir o`tkaza olishlari, oila pedagogikasining nozik jihatlari chuqur bilishlari kerak. Har bir guruh xonalarida ota-onalar sizlar uchun burchak tashkil qilinib, doimiy ravishda har bir oyda guruh bolalari taraqqiyotidagi o`zgarishlar aniq tahlil qilib ko`rsatilishi va shu asosda ota-onalar uchun tegishli maslahatlar, tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir. Ayrim bolalarning ota-onalari bilan alohida suhbatlar o`tkazib, tegishli yo`l-yo`riqlar beriladi. Masalan: nutqida, jismoniy o`shishida, xulqida kamchiligi bo`lgan bolalarni faqat tarbiyachining harakati bilan bartaraf qilish qiyin. Bolaning oiladagi faoliyati ham, bog`chadagi faoliyati ham yagona maqsadga bo`ysundirilgan bo`lishi kerak.

Tarbiyachi tomonidan ota-onalar burchagi tashkil etiladi va ular uchun maslahatlar, qo`llanmalar, adabiyotlar qo`yiladi. Har qaysi bolaning kamchiligi xisobga olinib, ota-onaga alohida bartaraf qilish yo`l-yo`riqlari beriladi. Ilk matematik tushunchalar, ruhiy rivojlanishi, tabiat haqidagi tushunchalar, tasvirlash faoliyati bo`yicha ilk ko`nikma va malakalar, badiiy adabiyot, xulq-atvori bo`yicha ko`rsatkichlari ham xuddi shu tartibda tahlil qilinib tegishli maslahat beriladi.

MTTda o`tkaziladigan ota-onalar yig`ilishlarini eski tartibda faqat ma`ruzalar o`qish usulidan voz kechgan xolda chaynord yechish, jumboqli masalalar yechish, anketa savollarga javob olish, ishchanlik o`yinlari o`tkazish kabi noan`naviy

uslublardan foydalanish ota-onalarning bevosita bola tarbiyachi bo'yicha pedagogik bilimlarga ega bo'lish istak xoxishini paydo qiladi.

Ota-onalar yig'ilishida quyidagi mazmunda anketa savollarga javob olish ham ota-onalarni bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga undaydi. Har bir guruh xonasining ota-onalar burchagida quyidagi maslahatlarning ko'rsatilishi ham ular uchun katta yordam bo'ladi.

Shu tariqa maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari va ota-onalar hamkorlikda uzluksiz ta'limning bosh bug'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining vazifalarini amalga oshiradi.

Bugungi kunda bolalar bog'chasiga bostilmagan bolalarni maktabga tayyorlash kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari qoshida "onalar o'quvi"ni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun alohida xona jihozlanadi.

- "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 11,30-moddalari maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari ota-onalar o'quvi rejasi, ota-onalar ro'yhati, o'quv muddati ko'rsatilgan jadval, bolalarni rivojlantiruvchi o'yinlar, maslahatlar yozib ko'rsatiladi.

- Uslubiy adabiyotlar, o'yinchoqlar, didaktik materiallar bilan to'ldiriladi.
- Mashg'ulotlar, ma'ruzalar MTT hodimlari tomonidan o'tiladi, muddati ota-onalar bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Har bir mavzu yetarlicha ota-onalar tushuna oladigan qilib, amaliy jarayonlar bilan bog'lab, video tasmlarda bolalar hayotidan lavhalar ko'rsatish, ota-onalarning o'zlari bilan ish o'yinlari tashkil qilish orqali yuritiladi. Uzun-uzun zeriktiradigan ko'rik ma'ruza o'qishning hech qanday samarasi bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha yetuk bilimga, katta tajribaga ega bo'lgan maxsus xodimlarga bu vazifani ishonib topshirish orqali katta natijaga erishish mumkin.

Ota-onalar farzand tarbiyasi to'g'risidagi uslubiy adabiyotlarni o'qish, teleko'rsatuvlarni ko'rish, radio eshittiruvlarni eshitish, ro'znoma va oynomalardagi tegishli maqolalarni o'qish, o'rganish orqali borasidagi pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'ladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deganda, biz ko'proq o'quvchilarning shaxsiy manfaatlari, ehtiyoqlarini nazarda tutamiz. Bunda ta'limning mazmuni o'quvchi shaxsining qiziqishlariga mos ravishda yo'naltirilishi, uning qiziqishlari va layoqatini qo'llab-quvvatlash bosh maqsad qilib olinadi. O'quvchining o'z-o'zini bilishi, shaxsining o'ziga xosligi, uning rivojlanish darajasi, kelgusidagi orzu-maqсадlariga erishish uchun qilayotgan xatti-harakatlari zamirida puxta bilim olish, ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlanish mujassam. Uning qiziqishlari, fantaziyasi aniq maqsad sari yo'naltirilgan bo'lib, o'z manfaatlarini fanlardan Davlat ta'lim standartlari talablari asosida nafaqat minimal darajadagi balki,

maksimal darajadagi bilimlarni egallash bilan himoya qilishga qodir bo'lishi mumkin. Buning uchun esa, o'qituvchilar tomonidan ularning intilish va qiziqishlarini rag'batlantirib borish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv orqali ta'lim jarayonini amalga oshirishda o'quvchining bilim olish jarayonini o'z ichiga olgan, o'qituvchi - o'quvchi - o'qituvchi munosabati hamkorligi va erkin tanlash printsipli uni tanlagan sohasi bilan shug'ullanishdan zeriktirmaydi, bilimlarini takomillashtirish sari undaydi. Pedagog olimlar tomonidan ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim; hamkorlik pedagogikasi; - adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi; o'yin texnologiyasi; rivojlangan o'qitish texnologiyasi; muammoli o'qitish texnologiyasi; differentsial o'qitish; individual o'qitish texnologiyasi. Ushbu yo'nalishlarning har birida ta'lim o'quvchi shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e'tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchida mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Mustaqil o'qib-o'rganish, o'quv jarayonidagi qiyin vaziyatlarda o'qituvchining yordamisiz muammolarni hap qilishga urinish, shundan keyingina o'zining xulosalari to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun o'qituvchining yordamiga tayanish zarurligini anglatish muhimdir. O'quv jarayoniga faol yondashish yuzaki qaraganda oddiy bo'lib ko'rinishi mumkin. O'qituvchi biror hodisani uzoq vaqt tushuntirish o'rniga o'quvchiga darslikdagi ma'lum mavzuni mustaqil o'qib-o'rganishga, mavzu yuzasidan berilgan amaliy tajribalarni mustaqil bajarish, o'quv natijalarini tekshirish uchun test savollariga mustaqil javob tayyorlashni topshirishi ijobiy natija beradi. Agar o'quvchi o'z o'quv faoliyatining mohiyatini ko'ra olmasa, u o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifaparni tushunmaydi va qabul qilmaydi. Shuning uchun o'quv material mazmuni avval o'qituvchi tomonidan ijobiy o'zlashtirilib, qayta ishlanib, undan o'quvchini qiziqtiradigan, shaxsiy tajribasiga mos kelib, fikrini ko'zg'aydigan, hayajonga soladigan xos jihatlari belgilab yetkazilgandagina natijasi samarali bo'lishi isbotlangan. Ana shundagina o'quvchi o'zini ushbu hodisalarning bevosita ishtirokchisi va ijodkori deb hisoblaydi. O'qituvchi o'quvchini sust tinglovchidan dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi katta ahamiyatga ega. Bunga o'quvchining o'z bilimi va qobiliyatiga ishonch hissini oshirishi o'ta ta'sirchan omildir. Ushbu vazifani amalga oshirishning har bir bosqichida o'quvchining jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanish darajalari tahlil qilinib, zaruriy tavsiyalarni berib, pedagogik qo'llab-quvvatlash, uning faoliyatiga zarur o'rinlarda tuzatish va qo'shimchalar kiritib borish muhim. O'quvchining shaxsiy mustaqil bilish faoliyati ularning ichki motivatsiyasi yuqori darajada bo'lganda faol va samarali bo'ladi. Bilish va ijodiy faoliyatga nisbatan motivatsiya darajasini oshirishning samarali vositasi —

muammoli o'qitish usuli hisoblanadi. O'quvchilarning qiziqishlariga qarab majburiy bo'lmagan darslar haqida gap ketganda, muammoli o'qitish usuli maqsadga muvofiq ekanligi e'tirozga o'rin qoldirmaydi. Oddiy darslarda o'qituvchi beradigan vazifa ko'pincha samarasiz, majbur etuvchi motivatsiya hisoblanadi. O'quvchilarning darslarda zerikishi bu — ularning dangasaligidan emas, balki o'qituvchining ularni o'tilayotgan mavzuga qiziqitira olmaganligidan kelib chiqishini unutmash lozim. Ko'p darslar odatda "so'rov-tushuntirish — olingan bilimlarni mustahkamlash - uyga vazifa" sxemasi asosida o'tiladi. Oqibatda, ayrim o'quvchilarning ongi va qo'li bo'sh qoladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya asosida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy-ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

1. Ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ijtimoiy, moddiy-texnik, pedagogik hamda psixologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash.

2. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar, shuningdek, respublika ta'lim muassasalarida bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirish borasida to'plangan tajribalarni o'rganish, milliy-mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda ularni uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq etish.

3. Ilg'or yondashuvlar asosida iqtidorli bolalarni o'qitishga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv va pedagogik jarayon mazmuni hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish.

O'tgan davrlardagi ta'lim tizimi avtoritar ta'lim metodlariga asoslangan bo'lib, u o'quvchini itoatkor, o'zgarar fikriga bo'ysinuvchan shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan edi. Hozirgi paytda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi ta'lim islohotlari barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan demokratik ta'lim metodlariga asosidagi milliy modelning joriy etilishi bilan ahamiyatlidir. Demokratik ta'lim metodlari o'qitish jarayonida o'quvchi fikrining hurmat qilinishi, uning har bir tushunchani o'zlashtirishda faol mushohada etishi, o'qituvchi fikrini tahlil qilishi va o'zi asosli deb topgan fikrlariga qabul qilish mumkinligiga asoslanadi. Bu g'oyalarni amalga oshirishdagi muammo respublikamizda haligacha avtoritar metodlardan demokratik ta'lim metodlari o'tish mexanizmi ishlab chiqilmaganligi bilan izohlanadi. To'g'ri, bu borada joriy etilayotgan o'quvchilar bilimini baholashning reyting tizimi, test nazoratlarining keng joriy etilishi, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashdagi erkinliklarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning yutuqlari sifatida qayd etish mumkin. Biroq, ta'lim metodlarini yangilash borasida ilmiy izlanuvchilar, metodist va amaliyotchi o'qituvchilar hali ko'plab muammolarni hal etishlari lozim. Faol ta'lim metodlari ilg'or xorijiy davlatlar

tajribasini o'rganish va mamlakatimiz ta'lim xususiyatlari bilan omuxtalashtirish natijasida keng ommalashayotgan demokratik ta'lim metodlari turkumiga kiradi. U ta'lim jarayonining o'qituvchi va o'quvchi fikrining o'zaro hurmat qilinishi, o'quvchilarning o'zaro munosabatlarida yuqori darajadagi muloqot ko'nikmalarining shakllantirilishi bilan ahamiyatlidir. Faol ta'lim metodlarini qo'llash jarayonining xarakterli xususiyati shaxsning axborotlarni o'zlashtirishdagi barcha imkoniyat va malakalar umumiy majmua sifatida qaralishidir. Ushbu o'rin axborotlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga eshitish va ko'rish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ijodiy mushohada qilish, so'zlab berish, jismoniy harakatlar bajarish kabilar, malakalar sifatida esa loyihalash, harakatlanish, tasavvur qilish, nutq, sezgi organlari faoliyati nazarda tutiladi.

Muammoni hal etishning birinchi yo'nalishi quyidagicha mazmunga ega: Mustaqil-ijodiy fikrlash sifatlarini faollashtirishda boshlang'ich ta'lim muhim o'rin tutadi, chunki xuddi shu davrda shaxs, uning qiziqishlari, moyilliklari shakllanishi uchun poydevor yaratila boshlaydi. Jamiyat uchun mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan, harakat qila oladigan ijodkor shaxslar juda asqotayotgan hozirgi kunda o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb muammosi bo'lib turibdi. O'quvchilarning ijodiy faoliyati tajribalarini o'zlashtirishlari uchun tablim jarayonida faol aqliy izlanishni talab qiladigan muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish zarur. Ijodiy faoliyat tajribalarini o'qituvchini tayyor axboroti orqali hosil qilish mumkin emas, chunki o'qituvchi muammolarni o'zi hal qilsa, o'quvchilardagi qiziqish, muammolarni hal qilishga bo'lgan intilish, so'nadi, o'z bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Noan'anaviy ta'lim o'quvchilarni faqat bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishni ko'zda tutmasdan, balki darsda vujudga keltiradigan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarni kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashlari orqali ijodiy faoliyat tajribalari, o'quvchilarning mustaqilligi, o'quv-bilish motivlarini, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, mustaqil izlanish yo'lini o'zlashtirishga imkon beradigan murakkab jarayondir. O'quvchilar mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi noan'anaviy ta'lim jarayonida muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan ta'lim printsiplari: ilmiylik, tushunarlik, sistemalilik, o'quvchilarning ongligi va faolligi, ko'rgazmalilik, o'quvchilarni puxta bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, uzviylik, ketma-ketlik, o'quvchilarning ijodiy mustaqil ishlari printsiipi, o'quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondoshuv, o'quv ishlarini insonparvarlashtirish printsiplaridan foydalanishni taqozo etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Arkadiy Il'ich.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Tadqiqotchilar (A.L. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tuqilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llaybilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbqiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A.Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova **innovatsion jarayon tuzulmasining** uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga

tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'yektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - yetuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaoromlik qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaoromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va himmatini keng yoyadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushirish va amaliy harakatga o'tish

tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshirish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

- Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.
- Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'psub'yektli (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'yekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi.

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'yimoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch - malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalarida paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsada, hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangidan-yangi yo'nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ular bo'yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining

vujudga kelishi, o'zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo'lgan talabning ortishi sanaladi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, "texnos"- san'at, mahorat, "logos"- ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir. Pedagogik texnologiya – texnologiyaga nisbatan tor tushuncha bo'lib-unda faqat ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini mahorat, san'at bilan o'rganish. Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan usul, shakl va uyushmalar yigindisiga asoslangan loyihadir. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir.

Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib, "tehnos"-mahorat, san'at "logos" -ta'limot, fan ma'nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so'zi boshqa terminlarga qo'shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir.

Ta'lim texnologiyasining rivojlanish bosqichlari quyidagilar:

1-bosqich: (XX-asrning 30-yillari) TT-o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi (pedagogik texnika)

2-bosqich: (XX-asrning 50-yillari) Ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash. Ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish,

axborotlarni uzatish sifatini sifatli tashkil etish, o'qituvchi faoliyatini individuallashtirish

3-bosqich: (XX-asrning 60-yillari) Ta'lim maqsadlarining aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash hamda uning samaradorligini oshirish, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish

Pedagogik texnologiyaning quyidagi asosiy tushunchalari mavjud:

1. Texnologiya – biror ishda mahoratda, jarayonda qo'llaniladigan yo'llar, usullar majmuasi.

2. Pedagogik texnologiya – pedagogik va texnologik yondashuvlar integrasiyasidir.

3. Pedagogik loyihalash – yaratilgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat.

4. Pedagogik tizim –bir biribilan o'zaro bog'langan mo'ayyan munosabatda bo'lgan elementlar bilan tasvirlangan yahlit ta'lim tizimidir.

5. Pedagogik innovasiya – pedagogik jarayonga yangilik kiritish

6. Pedagogik jarayon – Ta'lim beruvchiva ta'lim oluvchi orasidagi ta'limiy va tarbiyaviy munisabatlar tizimi. Yangi texnologiyalar katta ta'lim imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali to'la o'rganilmagan. Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar.

Hozirda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining rivojlanishida katta rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Texnologiyani bunday tavsif qilish ta'lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog'lanishning muhimligini, pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorligini ko'rsatadi. O'quvchi passiv ta'lim ob'yektidan faol shaxs ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o'qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi.

Innovatsion usullarda dars o'tish jarayonini, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim davridan boshlab tashkillashtirish ta'lim

tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta'lim jarayonlarining o'tilishida ham qulayli yaratgan bo'ladi. O'z-o'zidan kelib chiqadiki, boshlang'ich ta'limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o'taydi.

Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

- 1-bosqich: loyihani yaratish
- 2-bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash
- 3-bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish
- 4-bosqich: pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash
- 5-bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

Nazorat savollari:

1. Loyihalashtirish texnologiyasida hamkorlikni ta'minlashning qanday ahamiyati bor?
2. Hamkorlikda o'qitishning qanday metodlari mavjud?
3. Pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlik qanday amalga oshiriladi?.
3. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirishning usullarini tushuntiring .
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha bering.
5. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlarini tushuntiring.
6. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.
7. Pedagogik texnologiyaning qanday asosiy tushunchalari mavjud?
8. Ta'lim jarayonini loyihalash qanday bosqichlarda kechadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'planishi* 2017-yil, 6-son, 70-modda.
4. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma T:, 2001

5. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
6. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.:BMT bolalar jamg'armasi (YUNISEF), 2021

3-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari.

Reja:

1. Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'rni. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning afzalligi.
2. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashtirishdagi kompetentligi.
3. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati va pedagogik faoliyatni loyihalashtirish turlari.
4. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishdalooyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: pedagogik texnologiya, kategoriya, metodologik asos, "Texnologiya", tarixiy rivojlanish, davr, pedagogik olimlar, darajalar, tuzilish, nazariy asoslar, maktabgacha ta'lim tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida XIX-asrning 2-yarmida rivojlandi va fanga kirib keldi. Pedagogika fani differensiyalash jarayonida pedagogika fani tarkibidan alohida yo'nalish, mustaqil fan bo'lib ajralib chiqdi. Pedagogik texnologiya fani hozirda pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida OTM.larida o'qitilib kelinadi. Pedagogik texnologiya fanining asosiy maqsadi-yosh avlodda mazkur fan orqali BKM.larni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini yuksak mahorat va san'at bilan bosqara olishdi.

Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat san'at bilan boshqarishdir. Pedagogik texnologiya – texnologiyaga nisbatan tor tushuncha bo'lib-unda faqat ta'lim-tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini mahorat, san`at bilan o'rganish. Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan usul, shakl va uyushmalar yigindisiga asoslangan loyihadir. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir.

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3 – ming yillikda davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, Ta'lim beruvchifaoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo`lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o`q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojlana boshlanishi, sabab bo`ldi. Bunday murakkab va mehnattalab mashina va 6 jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo`llari va usullarining murakkab jarayonlarini o`zaro bog`liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo`lib, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo`ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma`lum ishni bajarish san`ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o`rganish taqozo etiladi. «Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko`paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi. «Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi, bu qonuniy hodisadir.

PT – bu Ta`lim beruvchi(tarbiyachi)ning o`qitish (tarbiya) vositalari yordamida ta`lim oluvchi(talaba)larga muayyan sharoitda ta`sir ko`rsatishi va aks ta`sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir. Yuqorida keltirilgan ta`rifdan ko`rinib turibdiki, PT tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham bu tushunchaga berilgan ta`riflar soni pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko`pdir. Pedagogik nashrlarda «texnologiya» atamasining xilma-xil ko`rinishlarini uchratish mumkin: «o`qitish texnologiyasi», «o`quv jarayoni texnologiyasi», «ma`lumot texnologiyasi» va hokazo. O`qitish texnologiyasi PTga yaqin tushuncha bo`lsa-da, aynan o`xshash ma`noni anglatmaydi, chunki u ma`lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o`quv materialini o`zlashtirish yo`lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko`proq xususiy metodika bilan bir jinlidir. PT esa ma`lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va «Ta`lim beruvchi– moddiy muhit – ta`lim oluvchi (talaba)» funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi. Hozirgi kunda o`qituvchilar metodikani ko`p hollarda texnologiyadan ajrata olmayptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo`ladi. Metodika o`quv jarayonini tashkil etish va o`tkazish bo`yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko`zlangan aniq maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko`chirishdir. Misol uchun, gaz qonunlari tushunchalarini shakllantirish metodikasi yoki energiyaning saqlanish qonunini fizika kursining elektr bo`limida qo`llash metodikasi va h.k. PT o`qitish jarayonining o`zaro bog`liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini qurish, ularni joriy etish shartlarini

aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hi-sobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishini ta'minlay-di. Yoxud PT o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'in-disidir. Texnologiya o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalash zarurati bilan 7 metodikadan farqlanib turadi. Shu bilan birgalikda ma'lum vaqt davomida PT o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelinadi. Faqat 70-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning mohiyati yangicha talqin etila boshlandi. Yapon olimi T.Sakamoto tomonidan «o'qitish texnologiyasi - bu o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligi e'tirof etiladi. Obyektiv borliqni o'rganishning tizimli yondashish metodi fanda keng ko'lamda qo'llanilgach, uning ta'siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga ham aniqlik kiritildi: rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani «belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat» deb tushuntiradi. Shuningdek, olima zamonaviy o'qitish texnologiya-si haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini o'qtiradi: «O'qitish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini nima real tavsiflash o'sha, o'qituvchiga o'rnatilgan maqsadlarga erishish uchun nimaga tayanish zarur bo'lsa o'sha» Bu alohida fan Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi:

Ilmiy aspektda o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektda rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektda pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi..

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. U kontseptual asos, ta'lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy kontseptsiyaga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy kontseptsiyasi ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o'quv material mazmunidan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

Izchillik pedagogik texnologiyaning mezon sifatida jarayonning mantiqiyliigi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likligi, yaxlitligani o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlaridan biri boshqaruvga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezonini ta'lim jarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlaridan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llashi imkoniyati tushuniladi.

Texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassis tomonidan amalga oshirish, bir xil darajada bajarish va ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin. Uning metodikadan asosiy farqi shundaki, metodika o'qitish usullari va yo'llarining ma'lum shaxs uchun qulay bo'lgan majmuidan iborat. Metodika o'qituvchining bilim, ko'nikmalari, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq. Buni dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan turli xususiy fanlarni har xil didaktik vositalardan foydalangan holga jadal (intensiv) o'qitish metodikalari orasidagi farqini solishtirishda ko'rish mumkin.

Shunday qilib, texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- ma'lum ilmiy asosga, kontseptsiyaga tayanish;
- tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi;
- samaradorligi, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi;
- boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

Pedagogik texnologiya ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarga pedagoglar tomonidan kasbiy-pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta'sir ko'rsatilishini tashkil qilish tizimini belgilaydi.

Pedagogik texnologiya pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida tashkil qilish hamda uning texnologikligini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Pedagogik texnologiya tizimi pedagogik maqsadlarning aniq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Texnologik tizimning asosiy belgisi kutilgan natijaga erishishni kafolatlashdir. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida

bajarilishi lozim vazifalar, buning uchun talab qilinadigan vositalar hamda metodlarning aniq modullari yoki algoritmlari hosil qilinadi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, yangi ta'lim modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

1) shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

2) davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

3) uzluksiz ta'lim - malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari va standartlarini o'z ichiga oladi;

4) fan - yuqori malakali mutaxassislarining tayyorlovchisi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ishlab chiquvchisi;

5) ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, ular sifatiga qo'yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, tizimni moliyalashtiruvchi va moddiy-texnik baza bilan ta'minlash qatnashchisi.

Pedagogik texnologiya asoslari

1. Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi.

2. Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Pedagogik texnologiya fanining metodologik asosi uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning hususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir.

4. Pedagogik texnologiyaning didaktik asosi uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi.⁴²

5. Pedagogik texnologiyaning pedagogik asosi. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy hulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o`quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to`g`ri bo`lishi ta`minlanadi.

6. Pedagogik texnologiyaning psixologik asosi psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi.

7. Pedagogik texnologiyaning fiziologik asosi o`quvchilarning turli yoshdagi fiziologik xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.

8. Pedagogik texnologiyaning gigenik asosi ta`lim- tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat.

9. Pedagogik texnologiyaning mafkuraviy asosi uning milliy istiqlol g`oyasi va mafkurasini tamoyillarini o`zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo`naltirilgan bo`lishidan iborat.

10. Pedagogik texnologiyaning huquqiy-me`yoriy asosi ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi.

11. Pedagogik texnologiyaning iqtisodiy asosi ta`lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi.

12. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi ta`lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakli va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma`lumotlardan iborat bo`lib ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi.

Tarixan "Texnologiya" tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog`liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san`at, hunar va fan haqidagi ta`limotga muvofiq keladi. Texnologiya deganda, odatda ashyolarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi. Siyosiy lug`at (M.,1989)da texnologiyaga shunday izoh beriladi:

1) ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor ashyolarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shaklining o'zgarish metodlari yigindisi;

2) ashyolar, materiallar va yarim xom ashyolarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta`sir o`tkazish usullari to'g'risidagi fan.

«Qomusiy lug‘at»da ham shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: «Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejimli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish.» (M., 1979) Texnologiya grekcha so‘z bo‘lib, “texnos”- san‘at, mahorat, “logos”- ta‘limot degan ma‘nolarni bildiradi. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta‘limot deb, hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta‘riflari mavjud. V.P. Bepalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos boladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o‘qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bepalko o‘quv jarayonini loyihalash g‘oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo‘q. N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o‘quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo‘lishi shart deb hisoblaydi, U fan va amaliyot oralig‘ida tamoyillarni olg‘a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo‘llash kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi alohida fan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o‘qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta‘lim mazmunini, ta‘lim maqsadi, kutilayotgan natijani ta‘lim belgilash, ta‘lim metodlari, shakllari va vositalarini ta‘lim tanlash, talabalarning bilim, kunduz va malakalarini barqarorlashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chikish, mashqulotga ajratilgan vaqt ichida ularni ta‘lim amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O‘quv mashg‘uloti maqsadining aniq bo‘lishiga erishish uchun pedagogdan quyidagilarga e‘tibor qaratish talab etiladi:

- 1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma‘lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta‘lim maqsadiga erishishni to‘la ta‘minlay olishi;
- 2) o‘qitish jarayonining yakuni bo‘yicha maqsadni amalga oshirish darajasi tug‘risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko‘ra aytish mumkinki, ta‘lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta‘lim natijalari belgilanadi.

Ta‘lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti - kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o‘qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va

maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija quyilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish - darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi:

Ta'lim resurslarini tanlash - mavjud shartsharoitdan kelib chiqqan holda pedagog, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. Pedagog, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalari sirasidan quyidagilar o'rin oladi

O'qitish va o'qish strategiyasi - belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi - dars ishlan-masining asosiy uzagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi urinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

Talabalar o'quv loyihaviy faoliyati bosqichlari:

Kirish bosqichi loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (auditoriya ishi)

Bajarish bosqichi bajariladigan amaliy faoliyat

Yakunlash bosqichi Loyiha taqdimoti, talabalar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi (auditoriya ishi)

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.

O'quv loyihasi - bu:

- 1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;
- 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;
- 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga kura quyidagicha tasniflanadi:

Faoliyat mazmuniga ko'ra:

1. Axborotli loyihalar.
2. Tadqiqot loyihalari.
3. Amaliy loyihalar.

Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda " o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. O'quv loyihaviy faoliyat - o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni xal qilish yulida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi

Talabalarning juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzulardagi o'quv loyihalarni tayyorlashlari quyidagi jarayonda kechadi:

- loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
- loyihaviy faoliyatni tashkil etish;
- loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;
- loyihaviy vazifalarni hal etish;
- loyiha (maxsulot)ni rasmiylashtirish;
- hisobot tuzish;
- taqdimotni tayyorlash;
- loyiha taqdimoti, himoyasi va bahosi;
- refleksiya;
- hisobot topshirish.

Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu pedagogning tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xaritani tuzish pedagogni o'quv mashg'ulotining kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Takliflar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- pedagogik jarayonni loyihalashda talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyojni qaror toptirishga e'tiborni qaratish;
- bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni xosil qilish;
- talabalarda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning faolligini ta'minlash;
- talabalarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, bular borasida xulosa chiqarish, umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;

- fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda innovatsion ta'lim texnologiya va metodlarni mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda tanlash;
- ta'lim jarayonida pedagogning har bir ta'lim oluvchi bilan ishlashga harakat qilishi va qaytar aloqa o'rnatishga erishishi;
- o'quv materiallari va taqdimot slaydlarini barcha foydalanuvchilar diqqatini tortishga mo'ljallab qiziqarli, jozibali tayyorlash.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – "Ilq qadam" Davlat o'quv dasturi va Maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida aks ettirilgan ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyilidir. Ushbu pedagogik konsepsiyamni yozishdan oldin men o'tgan davr mobaynida, o'zimning hamkasblarimning ish faoliyatini kuzatuvim hamda turli o'quv seminarlaridagi kuzatuvlarim asosida yozishga qaror qildim. Pedagogik konsepsiya eng avvalo o'zimning Pedagogik kompetensiyamni oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda ushbu Konsepsiya orqali men tashkilotim va shahrimdagi tarbiyachilarning o'zlarini ustida ishlari uchun ozgina bo'lsa ham turtki, shu bilan birgalikda yo'l ko'rsatuvchi ish bo'ladi deb o'yladim. Ushbu konsepsiyani yozish vaqtida, konsepsiyadagi ko'rsatma va yo'nalishlarni hayotga to'liq tadbiiq etishim uchun men doimiy o'z ustimda ishlashim kerakligi hamda kamida 2 yil davomida ta'lim-tarbiya jarayonimga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishim lozimligini tushundim. Aytib o'tish lozimki, bolalarga ularning individual ritmda rivojlanishlari va individual potensialini hamda qiziqishni oshirish uchun teng imkoniyatlarni taqdim etuvchi qulay muhitni ta'minlash uchun tarbiyachi shaxsi muayyan kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarini xam o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachiik uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi.

Kasbiy mahoratning bir qismi sifatida tarbiyachining loyiha madaniyati ham katta o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining loyihaviy faoliyati - bu tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (muammo "tug'dirish", ma'lumot to'plash va qayta ishlash, tajribalar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) rivojlantiruvchi ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash usullaridan biridir. va mantiqiy fikrlash; maktabgacha ta'lim tashkilotining uslubiy faoliyati davomida va malaka oshirish kurslarida olgan bilimlarini birlashtiradi. Loyiha faoliyatining maqsadi - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyat uchun sharoit yaratish, tarbiyachilar tomonidan kasbiy faoliyatda olingan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish. Tarbiyachilar tomonidan loyihalarni ishlab chiqish uchun mavzular, mini-loyihalar faoliyatning ijodiy yo'nalishiga qarab mustaqil ravishda tanlanadi. Faoliyatning yakuniy bosqichida taqdimot o'tkaziladi.

Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirish. Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Seminar - ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.
2. O'yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi.
3. Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari, maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.
4. Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi:
 - umumiy bilim;
 - kasbiy bilim, qobiliyat, ko'nikma;
 - qiyin vaziyatdan chiqish qobiliyati, tezkorlik.
5. Ishbilarmonlik o'yini nafaqat maktabgacha ta'lim muassasasi uchun dolzarb bo'lgan muammo bo'yicha nazariy seminar natijalariga asoslangan test darsi

sifatida, balki yangi muammo echimlarini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: "Maktabgacha yoshdagi bola bo'lish osonmi? «

6. G'oyalar banki - bu bosqichda an'anaviy usullar yordamida hal qilib bo'lmaydigan muammolarni kollektiv ravishda hal qilishning oqilona usuli. Masalan: "O'yin ekologiyasi", "Pedagogik g'oyalar yarmarkasi", "Eng yaxshi rivojlantiruvchi o'yin".
7. Master-klass. Uning asosiy maqsadi pedagogik tajriba, ish tizimi, mualliflik topilmalari va tarbiyachiga eng yaxshi natijalarga erishishda yordam bergan barcha narsalar bilan tanishishdir

Ushbu pedagogik konsepsiyada keltirilgan fikr va mulohazalar, yo'nalish hamda takliflar bu eng avvalo ma'lum bir davr ichida o'zining ta'lim-tarbiya berish faoliyatining sifat samaradorligini oshirish uchun qilinadigan ishlar sifatida ko'rishimiz mumkin.

Bugun tarbiyachining pedagogik kompetensiyalarini doimiy oshirib borishi, bu eng avvalo bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishda asosiy omildir.



"Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishda asosiy omildir. Mazkur pedagogik konsepsiyada ko'rsatilgan vazifalar, yo'nalish va natijalarga erishish maqsadida men o'zim uchun bir o'quv yiliga

rejalashtirilgan chora-tardbirlar rejamni ham tuzib chiqdim. Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy sharoitida tarbiyachining maqomi tubdan o'zgarib bormoqda, uning ta'lim funksiyalari, shunga muvofiq, uning kasbiy va pedagogik kompetensiyasiga, uning kasbiy mahorat darajasi talablari o'zgaradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy tizimida o'zining shaxsiy salohiyatini safarbar qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qodir bo'lgan ijodkor, mahoratli tarbiyachi talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'yicha mutaxassislarining turlicha qarashlari mavjud. Jumladan, bilim oluvchilarning saviyasi, pedagoglarning bilimi va mahorati, ularning kompetentligi va kreativligi, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, jarayon monitoringining to'g'ri tashkil etilishi, natijalarning tahlili va shu kabi ko'pgina omillarni aytish mumkin. Mazkur omillar har bir oliy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasining o'quv va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq qismlarida albatta o'z aksini topadi. Ayniqsa, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida bo'lishiga erishish, real mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirilganligi, onlayn ta'limni amalga oshirishga sharoitlar yaratish, ilmiy faoliyatga yoshlardagi ehtiyojni kuchaytirish, oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kasbiy ta'limga yo'naltirish kabilarga bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Har bir bulajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetishi va uning amaliyotda ta'lim muassasalari innovatsion jarayonlariga ko'shilishdagi ahamiyatini anglab etishi hamda yaratish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini qurish va eng muhimi, yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o'quv jarayonida talabalar mustakil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh⁵⁰ esa ularga baho bera olsa, ukituvchi ularning

bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonning asosi hisoblanadi. Har bir o'quv mashg'uloti mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi ta'lim texnologiyasi - bu yakka tartibdagi jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim texnologiyasi - ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalashtirishni o'z ichiga oladi.

Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarning qisqacha tahlili. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim texnologiyalari va pedagog ma,oratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik, kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

U.Tolipov va M.Usmonboevalarning fikriga ko'ra, interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunini tarkibiy qismlari hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanishga majbur etishi:

- talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi:

- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi:

- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning¹ ta'kidlashiga ko'ra, ta'lim texnologiyalarning xislati shundaki, unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi o'quv jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liq.

O'quv jarayonini loyihalashtirish quyidagi uch bosqichdan iborat:

- o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash;
- natijalar asosida nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonining texnologik xaritasi (dars ishlanmasi xaritasi)ni ishlab chiqish.

B.X.Xodjaevning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Professor M.Ochilovning ta'kidlashicha, o'quv maqsadi - bu muayyan ta'lim jarayonini yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni xosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bulgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqini belgilaydi. O'quv maqsadi va natijalarni belgilashda aniq ulchanadigan, real amalga oshiriladigan, erishish mumkin bo'lgan imkoniyat inobatga olinadi.

Ilmiy muammoning suyilishi. Innovatsiyalar ta'lim jarayonida qo'llanilganida, yangilanish asosida yuzaga keladi. Shu tarzda yangilanishni yangilik yaratish, qo'llash va o'zlashtirish natijasida ta'lim rivojlanishiga erishiladi.

Innovatsiyalar ta'lim jarayonining qaysi bulagiga o'zgartirish kiritishni aniklashdan boshlanadi. Shu jarayonda tub burilish yuzaga keladi.

Innovatsion jarayoni samaradorligi va ularni yuzaga chikaruvchi omillar urtasidagi bog'liqlik, shuningdek, innovatsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida shu omillarga ta'sir etish usullaridan iborat.

Innovatsiyalarni qo'llash davomida u uzining yangilik xususiyatini yo'qotib boradi. Bir yangilik o'rnini undan ham samaralirok bo'lgan boshqasi egallaydi.

Asosiy qism. O'qituvchi va talabaning maqsaddan natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh, xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlashi lozimdir, balki, film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va talabaga bog'liqdir.

Loyiha - aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan xolda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat maxsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

Loyihalash - boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash "**g'oya - maqsad - kutiladigan natija - taxmin qilish - bashoratlash - rejalashtirish**" tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi, vatman yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, kalam, marker, nusxa kuchirish apparati (printer) va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim jarayonini loyihalash - alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan xolda uning loyi,asi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari:

- 1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;
- 2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;
- 3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;
- 4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni

to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'uloti maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti - kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish - darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lim resurslarini tanlash - mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalari sirasidan quyidagilar o'rin oladi:

O'qitish va o'qish strategiyasi - belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash - o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi - dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

Ta'lim jarayonini loyihalash: **loyiha - mazmun - faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim vositalari:

O‘qituvchi uchun: 1) o‘quv-metodik kullanmalar; 2) metodik tavsiyalar; 3) metodik ishlanmalar; 4) o‘quv dasturlari; 5) dars rejasi; 6) ma’ruza matni.

Talaba uchun: 1) darslik; 2) o‘quv kullanma; 3) jadvallar; 4) tarqatma materiallar; 5) yo‘l-yo‘riqlar; 6) texnologik xaritalar; 7) tipik xatolar xaritasi; 8) topshiriq varaqalari.

Darsni tashkil etish uchun: 1) plakatlar; 2) modellar; 3) maketlar; 4) jihozlar; 5) audiovizual vositalar; 6) texnik vositalar; 7) real vositalar.

Ta’lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1-bosqich: loyihani yaratish;

2-bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash;

3-bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish;

4-bosqich: pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash;

5-bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish.

Ta’lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

1) pedagogik faoliyat mazmunini taxlil qilish;

2) natijalarni oldindan ko‘ra bilish;

3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

Vazifalarning belgilanishi:

1-qadam. Umumiy pedagogik vazifalar (pedagogik jarayon xususiyatlarini yaxlit xolda inobatga olish asosida belgilanuvchi);

2-qadam. Bosqichli pedagogik vazifalar (ma’lum bosqich xususiyatlarini inobatga olgan xolda belgilanuvchi);

3-qadam. Vaziyatli pedagogik vazifalar (muayyan vaziyatlarni inobatga olgan xolda belgilanuvchi);

Agar vazifalar aniqlangan bo‘lsa, unda o‘quv natijalarini aniqlash uchun nazorat topshiriqlari tuzish lozim. Bular og‘zaki, yozma, nazorat savollari yoki test bo‘lishi mumkin.

Ta’lim oluvchilarni baholashda mezonli baholash shaklidan foydalaniladi. Ushbu baholash baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritilgan natijalarini bilim, ko‘nikma va malakalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Baholashning bu shaklida ta’lim oluvchilar xaqqoniy, xolis baholanadilar va kuchli guruhlarini yaxshiroq farklash

imkoni yaratiladi. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chikish zarur.

O'qituvchi har bir darsni yaxlit xolatda ko'ra bilishi, uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi kerak. Bunda ukituvchiga u tomonidan bulajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi muhim ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va extiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi. Bunday texnologik xaritanini tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika va axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, uslublarni bilishi kerak bo'ladi.

O'quv mashg'uloti ishlanmasi - bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bulgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining o'quv mashg'uloti jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmunini boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish maksadi kuzlanadi. O'quv mashg'uloti ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi malaka talablari, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan o'quv mashg'uloti ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi.

Oliy ta'limda o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

- Ma'ruza mavzusi
- Ma'ruzaga ajratilgan vaqt. Talabalar soni
- O'quv mashg'ulotining shakli va turi
- O'quv mashg'ulotining tuzilishi
- O'quv mashg'ulotning maqsadi:

Pedagogik vazifalar:

- O'quv faoliyati natijalari:
- Ta'lim metodlari
- Ta'limni tashkil etish shakli
- Didaktik vositalar
- Ta'limni tashkil etish sharoiti

- **Nazorat**

Oliy ta'limda o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti faoliyat mazmuni

Pedagog Talaba

1-bosqich. Boshlang'ich qism - o'quv mashg'ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)

2-bosqich. Asosiy o'qism - bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)

3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)

O'quv mashg'uloti loyihasi (ishlanmasi) uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki o'quv mashg'uloti "jonli" tashkil etilishi zarur. O'quv mashg'ulotining bu xususiyatiga ko'ra uni xech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Texnologik pasport (pedagogikada) - ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

Texnologik xarita (pedagogikada) - pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.

Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

Model - real, xaqiqatda mavjud bo'lgan ob'yektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi. Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish.

O'quv jarayonida quyidagi turdagi modellar qo'llaniladi:

1. O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).
2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'yektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).
3. Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).
4. O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'yekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni xosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iktisodiy, xarbiy, ishchanlik o'yinlari va boshqalar).

5. Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar).

Talabalar o'quv loyihaviy faoliyati bosqichlari

Kirish bosqichi: Loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish (auditoriya ishi)

Bajarish bosqichi: Bajariladigan amaliy faoliyat

Yakunlash bosqichi: Loyiha taqdimoti, talabalar maxsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi (auditoriya ishi)

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.

O'quv loyihasi - bu:

1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni maxsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;

2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositasi;

3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta'lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

Faoliyat mazmuniga ko'ra:

1. Axborotli loyihalar.
2. Tadqiqot loyihalari.
3. Amaliy loyihalar.

Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. O'quv loyihaviy faoliyat - o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo'lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashkil etiladi.

Talabalarning juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzulardagi o'quv loyihalarni tayyorlashlari quyidagi jarayonda kechadi:

- loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
- loyihaviy faoliyatni tashkil etish;
- loyihaviy faoliyatni rejalashtirish;
- loyihaviy vazifalarni hal etish;
- loyiha (maxsulot)ni rasmiylashtirish;

- hisobot tuzish;
- taqdimotni tayyorlash;
- loyiha taqdimoti, himoyasi va bahosi;
- refleksiya;
- xisobot topshirish.

Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi, avvaldan puxta o'ylab tuzilgan o'quv mashzuloatining loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik xaritani tuzish o'qituvchini o'quv mashg'ulotining kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Takliflar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- pedagogik jarayonni loyihalashda talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki extiyojni qaror toptirishga e'tiborni qaratish;
- bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni xosil qilish;
- talabalarda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning faolligini ta'minlash;
- talabalarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, bular borasida xulosa chiqarish, umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;
- fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda innovatsion ta'lim texnologiya va metodlarni mavzuning mazmunidan kelib chiqan holda tanlash;
- ta'lim jarayonida o'qituvchining har bir ta'lim oluvchi bilan ishlashga harakat qilishi va qaytar aloqa o'rnatishga erishishi;
- o'quv materiallari va taqdimot slaydlarini barcha foydalanuvchilar diqqatini tortishga muljallab qiziqarli, jozibali tayyorlash.

Dunyo va respublikamiz miqyosida yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo'lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyani egallashlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Respublikamizda 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" kontseptsiyasini ishlab chiqildi. Kontseptsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodning aqliy-intellektual, estetik, jismoniy, ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish alohida dolzarblik kasb emoqda. Bu borada pedagog rahbar-jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisiga aylanishi muqarrar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta'limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta'limni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lim sifatini oshirish muhim va zaruriy bo'lib hisoblanadi.

Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi. «Avvalambor, uning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamassligi, kerak bulsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishini, o'z kasb-korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishini kutadi. Jamoatchilik, halq rahbar shaxsning mustaqil dunyoqarashi, keng fikrlashi, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishini, iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat, or-nomusli, harom-xarish ishlardan hazar qiladigan, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkorlik fazilatiga ega bo'lishini, tashkilotchi, talabchan va qat'iyatli bo'lishini istaydi»

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga - yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi. Bu esa hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. SHu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlariga ega, insoniy

fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi - matabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" masalalari borasida bir qator olimlar izlanish olib bormoqdalar. Bular R.H. Djuraev, J.G'. Yo'ldoshev, S.Turg'unov, R.Safarova, M. Yuldashev, SH.A. Abdullaeva, Y. M. Asadovlardir.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslari, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning xukukiy-me'yoriy asoslari, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini o'rganish va shu asosda chora-tadbirlarni belgilash, amaliyotga joriy qilish ishlari jadallashmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimining yangi avlod rahbarlarini shakllantirish masalasi ham kundalik dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalar sirasiga kiradi. Bunda rahbarning muvofiqlashtirish, rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va baholash vazifalari bilan uyg'unlikda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari to'g'risida e'tirof etilgan funktsiyalar bolalarning intellektual jihatdan voyaga yetishiga, ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga va pedagog xodimlarning ilmiy-ma'naviy jihatdan o'sishiga, siyosiy va fuqarolik pozitsiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.

MTT pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan ustozlarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim-tarbiya oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz" kitobida: "O'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifa - kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi"-degan fikrni e'tirof etadilar. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmokda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati - tarbiyachi va xodimlarning kasbiy rivojlanishi tavsifi bo'lib, zamonaviy bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanishi e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoyi bo'lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli

rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir.

Mustaqil O'zbekistonda pedagoglik kasbiga hurmat e'tibor va uni sharaflash beqiyosdir, shu bilan birga ustozlar oldiga qo'yiladigan mas'uliyat ham katta.

Hozirgi kunda o'zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo'shayotgan ijodkor pedagoglar, olimlar, tadqiqotchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Bularning barchasi mustaqil O'zbekiston diyorida pedagog shaxsiga bo'lgan e'zoz, e'tibordan dalolatdir.

Imom al-Buxoriyning «Al - jomi' as - sahih» hadislar to'plamining «Ilm kitobi» bobida ilm egallash fazilati va xosiyatlar, ilm o'rganish va o'rgatish odobi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ushbu bobda ilm o'rgatish va o'rganishga doir hadislar keltirilgan. Ularning tahlili, ilm o'rgatuvchiga nisbatan didaktik talablar, pedagogik -axloqiy g'oyalarni ifodalashga imkon beradi. Bugungi kunda ham pedagoglar malakasini oshirish jarayonida, ularning pedagogik, psixologik tayyorgarligi, bilimi, muomala madaniyatini yuksaltirish, zamonaviy fan sirlaridan xabardor qilish, axborot va kommunikatsiya ko'nikmalarini singdirish va milliy psixologik omillarni e'tiborga olish kerak. Yuksak saviyali, mahoratli ustozlargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. Ilmga chanqoq o'zbek xalqida ziyoli, ilmli insonlarni e'zozlash, ular faoliyatiga havas bilan qarash xususiyati mavjud.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirishda bu borada to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim tashkilotlarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanmoqda, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik tenologiyalar bilan to'liq ta'minlanmoqda. Jahon andozalariga javob beradigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari qaror topmoqda va ularni rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirishda, ta'lim jarayonini to'liq axborotlashtirish ko'zda tutilmoqda.

Hozirgi paytda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar malakasini oshirishga quyidagicha yondashish tendentsiyalari kuzatilmoqda:

- sifatli o'quv jarayonini tashkil qilishda pedagog kompetentsiyasini rivojlantirish;
- ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi - turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda pedagogning layoqatini oshirish;
- ta'lim-tarbiya sifatining mahsulasi - natijani qo'lga kiritish va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan yemas, balki tahsil oluvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda.

Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilgan bosh g'oya, ya'ni: "... faqat ilm va bilimlar jamiyatni rivojlantirishi, davlatni taraqqiy ettira olishi mumkinligi", to'g'risidagi g'oyasiga monand ravishda sifatli ta'lim boshqaruvini amalda joriy etish talab etiladi. Demak, bugungi kunda jahon andozalariga tenglashtirilgan ta'lim sifat tizimi asosida mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda pedagogdan ta'lim berishda yuksak mahorat talab etiladi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifati, uni baholash va sifat menejmentiga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: maktabgacha tarbiya tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyaviy sifat nazoratining ichki baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan (London universiteti qoshidagi "Layf Kouching", Ta'lim institutlari (Buyuk Britaniya); ta'lim sifati menejmenti tizimini sertifikatlash va sifatni kafolatlash usullari tavsiflangan (Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Germaniya) va boshqalar.

Dunyoda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lim sifatini kafolatlashning yagona mezonlari va standartlarini belgilashni aniqlash; ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish; ta'lim dasturlarini akkreditatsiyalash milliy tizimlarini muvofiq-lashtirish; sifatni boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish. Biroq, hanuzgacha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirish va ushbu tarbiya maskanlarida ta'limiy va tarbiyaviy boshqaruv menejmentiga xos xususiyatlarni aniqlashning yagona tizimini takomillashtirish masalalari o'z yechimini tulaqonlicha amalga oshirilmagan. Shu jihatdan olganda, ta'limda sifatni boshqarish, sifatni kafolatlashda akkreditatsiyaning o'rni, sifatning tashqi monitoringi, oliy ta'limda sifatni baholash tizimlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va ta'lim sifatini nazorat qilishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash zarurati oshmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish ehtiyoji sezilmoqda. Muammoning yechimini topish uchun:

- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malakasini oshirishda «tarbiya kvalimetriyasi» va «ta'lim kvalimetriyasi» tushunchalarini ilmiy jihatdan tavsiflash;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari boshqarishning metodologik va nazariy asoslarini sifatli menejment nuqtai nazaridan tadqiq qilish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlariga qo'yiladigan davlat talablarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida takomillashtirish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining malaka oshirishdan keyingi faoliyati samaradorligi monitoringini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilari iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar yaratish va amaliyotga tatbiq etish;
- davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlarida sifat menejmenti tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish lozim.

Davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya tashkilotlari xodimlarining faoliyatini kvalimetriya asosida baholash, kasbiy faoliyat natijasi, tarbiyalanuvchilarning intellektual darajasi va shaxsiy rivojlanishi mezonlariga asoslangan holda takomillashtirishga qaratish lozim.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lim komil inson shaxsini yetuklikka yo'naltiradi. Binobarin, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarga insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik birodarlik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin o'zoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasiga, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda yosh organizmga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurni, xayolni, diqqatni, xotirani faollashtirishni talab qiladi. Bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashni o'rganadi. O'yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish o'yg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalarda kattalarning mehnatiga, ijtimoiy hayotga, kishilarning qahramonona ishlariga qiziqish sari ularda bo'lajak mutaxassislik, yaxshi ko'rgan qahramonlariga taqlid qilish kabi dastlabki orzular paydo bo'ladi.

Shunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi;
- 2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar;
- 3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiiq qiladi;
- 4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakkam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi. Maktabgacha yosh davrida o'yinning takomillashuvi. Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi.

Ma'lumki, 1-3 yosh bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini, hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajrata olmaydilar. Shuning uchun ularga ko'g'irchoq bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniqsa, qiz bolalar o'z ko'g'irchoqlarini har xil rangli matolarga o'rab, ro'mol qilib o'ratib mashq qiladilar. O'g'il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig'adigan quticha o'yinchoklarni berish foydalidir.

Bola 1-yoshdan 3- yoshgacha narsalar, bilan harakatlar qilishni egallaydi o'yin bolaning harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam qiladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari

jarayonida o'xshatma qilib har xil hayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar. Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir. Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik karakteriga ega bo'ladi. Bunda bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, onasini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik karakteriga ega bo'la boshlaydi.

O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P.Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish - ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi». O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P.Usova shunday degan edi: «Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish - ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi».

O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg'ulot o'rtasida bolalar o'yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'pincha avval boshlagan o'yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o'ynashlari uchun 1 soat-1 soatu 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o'yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko'proq syujetli-rolli o'yinlarni, qurilish materiallari, qo'g'irchoqlar bilan, stol usti o'yinchoqlari o'ynashlari mumkin. Shu bilan birga ermak o'yinlardan ham foydalaniladi. Ammo o'yin bilan

ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq o'yg'onib qoladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiya pedagogikaning mustaqil soxasi sifatida qachon rivojlanib, fanga kirib keldi?
2. . Pedagogik texnologiya fanining asosiy maqsadi nima?
3. Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelish sababalari?
4. Pedagogik texnologiyaning qanday aspektlari mavjud?
5. Pedagogik texnologiya qanday asoslarga ega?
6. Pedagogik texnologiya fanining qanday asosiy tushunchalari mavjud?
7. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining qanday ahamiyati bor?
8. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning qanday turlari mavjud?
9. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda loyihalashtirish faoliyatining ahamiyatini tushuntiring.
10. Talabalar o'quv loyihaviy faoliyatining qanday bosqichlari bor?

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
4. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obm red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
5. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va O`zbek tilining izohli lug`ati "K" harfi 46-bet 19 amaliyot. - T.: Fan, 2005
6. Muslimov N.A., Raximov Z. To'g'ri Xujaev A.A., Qodirov X.SH. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. - Toshkent: "Voriz" nashriyoti, 2019. 568 b.

7. Muslimov N.A., Usmonboeva M.X. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" moduli bo'yicha o'quv-metodik majmua. - Toshkent: TDPU, 2016. 238-b.
8. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: "Nasaf", 2000. 75 b.
9. Tolipov U.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: "Fan". 2006. 90-93- betlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.

4-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni hamda syujetli-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.

Reja:

1. Maktabgacha ta'limda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olgan holda qurish-yasash faoliyatini loyihalashtirish.
2. Qurish-yasash faoliyati orqali matematik bilimni shakllantirish.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markaz foliyati haqida tushuncha.
4. Syujet-rolli o'yinlar turlari va sahnalashtirishga rahbarlik qilish.

Tayanch tushunchalar: qurilish o'yinlari, qurilish materiallari, "Qurish-yasash", qurish-yasash faoliyati, ijodiy yondashish, maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, tafakkur, idrok, syujetli-rolli oyinlar, markaz, syujet, tasavvur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotida qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar. Qurilish o'yinlarining mazmunini bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning

qurilish o'yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o'z o'yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o'yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg'otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg'ulot va o'yin vaqtida bolalar bir-birlari bilan turlicha munosabatda bo'ladilar. Ular rollarni o'zaro bo'lishib oladilar, ishlarni bajarishda bir-birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Qurilish o'yinlarida harakat elementlari ko'p bo'lib, u bolalarning harakat qilishga nisbatan bo'lgan talablarini qondirishga yordam beradi. Bola biror narsani qura boshlaganda qurilish materiallarini tegishli joyga olib boradi, ularni stol yoki pol ustiga joylashtiradi, engashadi, bu vaqtda uning qo'llari faol harakat qiladi, ya'ni ma'lum miqdorda jismoniy kuch sarflaydi. Mayda qurilish materiallari bilan o'ynaganda qo'lning mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari, ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bunda bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda tafakkurning tahlil va sintez, taqqoslay bilish kabi uquvlari hali sust rivojlangan bo'ladi. Qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar esa bolalarning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o'stiradi. Tarbiyachining ko'rsatgan narsasini esda saqlab qolish va uni qayta esga solish bolalarni narsalarni bir-biriga solishtirishga, tahlil va sintez qilishga, o'xshashini topib qo'yishga va farqini ajrata bilishga majbur qiladi va qurilishdagi vazifalarni pala-partish bajarmaslikka, tasodifiy xulosa bilan qoniqib qolmay, balki maqsadga muvofiq yo'l tutishga o'rgatadi. Bolalar bilimni sistemali ravishda qurilish o'yinlari faqat tevarak-atrofnii bilib olish vositasigina bo'lib qolmay, balki axloqiy sifatlarni tarbiyalovchi vosita hamdir. Bolalar doimo atrofda qurilayotgan yangi turar joylarni, maktablar, bolalar bog'chalari, do'konlarni kuzatib boradilar va tarbiyachidan hukumatimizning xalqlarga qilayotgan g'amxo'rlikini eshitadilar. Bolalar bevosita kuzatayotgan qurilishdagi aniq misollar bolalarning o'zbek xalqi o'z mehnatini qanchalik sevishini tushunishlariga yordam beradi. Qurilish o'yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z ishiga javobgarlik hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi.

Bolalar jamoasini to'g'ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar bolalarni maktabga tayyorlash ishini amalga oshirishda ham yordam beradi. Bu o'yin va mashg'ulotlar jarayonida bolalarda diqqatni bir joyga to'plash, oldiga qo'ygan maqsadga chidam va sabot bilan erishish, olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbuskorlik ko'rsatish

xususiyatlari shakllanib boradi. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurish-yasash mashg'ulotida egallaydilar. Ana shu mashg'ulotlarda ular narsalarning elementar ko'rinishlarini, qurilish detallaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o'rganadilar va qurilishni badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o'zlashtirib oladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichik bolalar qurish-yasashga bir necha bor urinadilar, ular faqat qurilish to'plamlaridagi materiallarni yapaloq tomoni bilan qo'yib, terib chiqadilar yoki bk-birining ustiga qo'yadilar. Tarbiyachi bolalarni har xil narsalar qurishga o'rgatgan bo'lsa, kichik yoshdagi

bolalar
ning
qurilish
o'yinlar
ida u
o'z
aksini
topadi.



Qurilish materiallari bilan o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar uchun zaruriy sharoitlar. Bolalar qurish texnikasini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Buning uchun, avvalo, guruhda yetarli miqdorda qurilish materiallari bo'lishi, ya'ni hamma bolalar bir vaqtda yoki hech bo'lmaganda yarim guruh bolalar mashg'ul bo'la oladigan darajada material bo'lishi zarur. Namunaga qarab qurish mashg'ulotida ham bolalarni materialdan cheklab qo'ymay, balki har kimga keragini taqsimlab berish lozim. Bolalar har doim zarur bo'lgan materialni olib ishlata bilishni o'rgansinlar. Bolalar qurish-yasash malakalarini endigina egallay boshlaganlarida, ya'ni ikkinchi kichik guruhdan boshlab qurish mashg'ulotlarini o'tishga ruxsat beriladi. Mashg'ulotlarda qurish-yasashga o'rgatish uchun stol ustida o'ynaladigan qurilish to'plarnidan foydalangan ma'qul. Ko'pchilik bolalar bog'chasirining uchastkasida qurib o'ynash uchun yirik qurilish materiallaridan foydalaniladi. Bu materiallar bolalarni ko'pchilik bo'lib qurishga, o'ynashga o'rgatadi. Guruhdagi bolalarning hammasi qurish usullarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun mashg'ulot vaqtida stollarni har xil joylashtirish mumkin. Qurilishni yakka-yakka bajarayotganda stollarni odatdagi tartibda yoki P harfi shaklida terib qo'yish mumkin, agar bolalar bir qurilishni guruh bo'lib bajarsalar, 2-3 stolni birlashtirib, qator qilib qo'yish kerak. Mashg'ulot vaqtida bolalarga qurilishning eng zarur usullari ko'rsatiladi, shuning uchun mashg'ulot uzoq cho'zilmaligi (10-12 daqiqadan oshmasligi) kerak.

Qurish-yasash mashg'ulotlarini o'quv yilining birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ikkinchi yarmida esa o'yinlar bilan chegaralansa ham bo'ladi. Mashg'ulotning maqsadi qurish-yasashning hamma usullarini ko'rsatishdan iborat: qurilishni qurishda qurish-yasashning hamma usullari ko'rsatishni va harakat bilan tushuntirish, tayyor qurilgan namunani ko'rsatish va unga kirgan elementlarni tahlil qilish. Namuna sifatida qurilish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko'rsatuvchi tayyor qurilishdan foydalanish. Bolalar bino, inshootni qurishni bilib olishlari uchun (baland poydevorning ustini qanday bekitish, bir detalni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim detallarini ko'rsatish. Tarbiyachi tomonidan bajarilayotgan qurilishning ayrim qismini davom ettirishni bolalarga taklif qilish. Quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, qurilishning hajmini (katta-kichikligini) aniqlash, bunda qurilishning o'yinchoqlarga mos bo'lishini aytish. Bolalarni o'zlari ijod qilib qurishga o'rgatish uchun zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

«Qurish-yasash» lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish, degan ma'noni bildiradi. Bolalarni qurish-yasashda qurilish materiallaridan, qog'ozdan, karton, daraxt va boshqa materiallardan turli xil o'yinchoqlar yasash o'rgatiladi. O'z xarakteriga ko'ra bolalar qurish-yasashi ko'pincha tasviriy va o'yin faoliyati bilan o'xshashdir, bu tevarak-atrofdagi aks etadi. Bolalarning yasagan narsalari asosan amaliyotda ishlatiladi. Masalan, o'yinlar, archani yasatish uchun, onalarga sovg'a uchun.

Qurish-yasash faoliyati - amaliy faoliyat bo'lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Qurish-yasash faoliyatiga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko'nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylik va hokazo) tarkib topa boshlaydi, bularning barchasi bolalarni maktabda o'qishga tayyorlaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi ayrim narsalarni, ya'ni quyon uchun uy, mashinalar va yo'lovchilar uchun ko'prik yasaydilar. O'yinchoqlarni qurish-yasashda ishlatish katta ahamiyatga ega, o'yin faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kichik guruhda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari. Kichik guruhda kubiklar, g'ishtchalar, plastilin, prizmalardan foydalaniladi. Yil boshida 1 kichik guruhda tarbiyachi 4-6 tadan iborat bolalar guruhini tashkil qiladi. Sekin-asta guruhlar soni ko'payib boradi, yilning 2-yarmida esa mashg'ulotlar butun guruh bilan birgalikda olib boriladi. Kichik guruhda qurish-yasashga o'rgatishda tarbiyachi turli metodlardan foydalanadi. Asosiy metodlar informatsion-retseptiv va reproduktiv metodlardir. Bolalarga nimani qanday yasash kerakligi

tushuntiriladi, tarbiyachi bolalarga namuna ko'rsatib, to'la tushuncha beradi. O'rgatishdan avval tarbiyachi tasvirlanadigan predmetning yaxlit o'zini, uning qismlarini bolalarga to'laligicha ko'rsatib tushuntiriladi. Bolalar predmetni kuzatishlari asosida o'z qurilmalarini quradilar. Masalan, tarbiyachi sayr vaqtida bolalarga avval zinapoyadan tepalikka ko'tarilib, so'ng sirpanib tushish kerakligini aytadi. Mashg'ulotning boshida namuna yaxlitligicha ko'rsatiladi. So'ng namunaning qismlari, uning shakli qanday joylashganligi tushuntiriladi (uyning-devori, tomonlari, tomi va hokazo). Tarbiyachining bunday tushuntirishi bolalar ishini ancha osonlashtiradi. Bolalar olgan bilimlari asosida o'z qurilmalarining mustaqil tarzda yasay olishlari kerak. Shuning uchun biror bir qurilmani turli xil variantlarda ko'rib ko'rsatish lozim. Har bir mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalarga bu qurilma bilan qanday o'ynash mumkinligini ko'rsatadi (2-3 daq). Bu paytda bolalarda o'yin faoliyatiga qiziqish uyg'onadi. Bu o'yin faoliyati bolalarni qurish-yasash jarayonidan chalg'itadi, lekin kichik guruhda bundan tez-tez foydalaniladi. O'yinchoq bolalarni qurishga undaydi. Bolalarga qurilish materiallarning qismlari nomini yaxshi o'zlashtirish uchun tarbiyachi mashg'ulotdan keyin materiallarni stolga birma-bir qo'yib, ularni nomini aytadi.

Didaktik o'yinlar orqali ham bolalarga tushuncha berib boriladi. Qurish-yasash faoliyatini yanada qiziqarli o'tishi uchun tarbiyachi bolalar bilan ishlaganda ertak parchalari, topishmoq, she'rlardan keng foydalanish lozim. Bu tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi qurish-yasash jarayonida bolalarning ishlarini to'g'ri bajarishlarini, materialdan to'g'ri foydalanishlarini kuzatib boradi. Agar tarbiyachi bolalarning biron bir xatosini ko'rsa, u paytda qaytadan tushuntirib, ko'rsatib berishi mumkin. Bolalarning ish faoliyatini tahlil qilganda tarbiyachi faqatgina natijalarnigina emas, balki bolalar namunani qanday kuzatganliklari, materialni tanlab, ishni qanday bajara olishlarini ham hisobga oladi. Mashg'ulot yakunida pedagog bolalarga qurilish materiallarini yig'ib, joyiga joylashni ham ko'rsatib beradi.

O'rta guruhda bolalarga tanish bo'lgan qismlarni (kubik, g'ishtcha, plastilin) nomlash bilan birga, ularni bir-biridan farqlashga ham o'rgatiladi. Bolalar qurilmalarni mustaqil tahlil qilishni o'rganadilar; uning asosiy qismlarini ajratish, katta-kichikligi, tuzilishini farqlash, narsalarning qanday joylashganligini o'rganadilar. Bolalar kichik guruhda tarbiyachining namunasi asosida ko'rgan bo'lsalar, o'rta guruhda esa mavzuning nomlanishiga qarab, o'zlari o'ylaganlari bo'yicha quradilar. Shuning uchun bolalar diqqati qurilmani oldindan rejalashtirib, unga kerakli bo'lgan shakllarni tanlashga qaratiladi. O'rta guruhda qurish-yasash predmetlarini farqlash, ularning xususiyati bilan tanishish, shu xususiyatiga asoslanib, predmetlarni guruhlarga ajratishni o'rganadilar. Qurilmalarni qurish ishning ketma-ketligini rejalashtirishga bolalarni oldindan detallarning shakliga, katta-kichikligiga va mustahkamligiga qarab tanlashga

o'rgatilib boriladi. Bularni qurish jarayonida bolalar silindr nomini to'g'ri aytishga, undan o'z o'rnida to'g'ri foydalanishga o'rganadilar. Bolalarning har bir konstruksiyani o'zlashtirib olishlari uchun bir necha mashg'ulot o'tkaziladi. Birinchisida, bolalar namunaga qarab qurishga o'rganadilar, keyingi mashg'ulotlarda esa, bu namunani o'zlari mustaqil hal qilishga, ya'ni konstruktiv masalani hal qilishga o'rganadilar. Masalan, bolalar namuna asosida ko'proq qurishni (ko'prikning tayanch qismini, ko'prik qurilmalarini va mashinalar uchun plastik qism, ya'ni tushuvchi qismni bilib olishgach, uni qurish uchun qanday detallardan foydalanish kerakligini) o'rganib olishgach, bolalarga shu usulda ko'prik, ammo baland yoki keng ko'prik qurish tavsiya etiladi. Keyinchalik bolalar o'zlarida bor bo'lgan qurilish materiallaridan keng foydalanib, o'zlari yangi ko'prik konstruksiyasini o'ylab topadilar. Tarbiyachining rahbarligida bolalar bitta konstruksiyani bir necha murakkablashgan ko'rinishlarda qurishga o'rganadilar. Bu esa bolalarda qurishning turli yo'llari haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab bolalarga yuqoridagi vazifalardan tashqari, bolalarga o'z ixtiyorlari bo'yicha qurish-yasashlar beriladi. Bu ixtiyoriy qurish mashg'ulotlari davomida bolalar qurish bo'yicha olgan bilim malakalari rivojlanadi, mustaqillik va tashabbuskorliklari o'sadi. O'z maqsadlarini va qurish-yasash ishlarida amalga oshirish uquvlari shakllanadi. Mashg'ulotlarni uyushtirganda, turli-tuman mayda o'yinchoqlardan (odamlar, hayvonlar, o'simliklar, transport) foydalanadilar. Bu esa bolalar qurilish o'yinlarini yanada boyitadi, uni maqsad sari yo'naltiradi va o'yin faoliyatlarining yanada rivojlanishiga olib keladi. Qurilish materiallari alohida-alohida bo'lakchalarga yoki bo'limlarga ajratilgan javonlarda saqlanishi mumkin. Har bir qurilish materialining turi tuzilishiga, ya'ni shakliga qarab, bir-biridan alohida-alohida saqlanadi, chunki bolalar o'zlariga kerak qurilish materiallarini tez va oson ajratib oladilar va har bir shaklni tezroq o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Yilning ikkinchi yarmidan «Shaharcha» mazmunli to'plamdan foydalaniladi, bu to'plam prizma, kubik va daraxt siluetlaridan iborat. O'rta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari. O'rta guruhda, asosan, informatsion-retseptiv metoddan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga yangi bilim berayotganda, bolalarga illustratsiyani ko'rsatib, uning asosiy qismlarini ajratib tushuntiradi. Namunani kuzatish paytida tarbiyachi bolalarga ular o'rtasidagi farq, o'xshashlikni tushuntirib beradi. Bolalarni tahlil qilishga jalb qilish lozim, qurilma nimadan iborat, uning qismlari qaysi detallardan iboratligi so'raladi. Tarbiyachi, agar bolalar xato qilsa, to'g'rilaydi, qiynalsa, yo'llanma beradi. Tarbiyachi bolalarga ko'prik konstruksiyasini o'ylab topish vazifasini berayotganda, bolalar bilan qisqa suhbat o'tkazadi: ko'prikning asosiy qismlari nimadan iboratligi eslatib o'tiladi. Mayjud materialdan qurilma uchun kerakli

bo'lgan detallarni tanlab olish taklif etiladi. Qurish-yasash mashg'ulotida bolalarga tanish bo'lgan materiallar stol ustiga qo'yiladi, uning yoniga turli xil mayda o'yinchoqlar: qo'g'irchoq, hayvon, transport terib qo'yiladi. Mashg'ulotning boshida tarbiyachi bolalarning nima yasamoqchi ekanliklarini, kim uchun, qanday materialdan foydalanishlarini bilib oladi. Buning uchun bolalar kerakli materialni tanlab olib, keyin qurishni boshlashlari lozim. Tarbiyachi bolalar ishini kuzatib, ularga yordam beradi, rag'batlantiradi. Bolalarning o'zlari o'ylab topgan qurilmalari tahlil qilinadi. Bolalarni qurish-yasashga o'rgatishda tarbiyachi har bir bolaga berilgan vazifani mustaqil bajarishga imkoniyat yaratadi.

Katta guruhda predmetni tahlil qilish, ularning xarakterli belgilarini solishtirishga o'rgatib boriladi. Bu guruhda o'rgatish faoliyatining oddiy elementlari katta ahamiyatga ega, ya'ni vazifani tushunishi, ularni mustaqil bajarishi kabi. Bolalarga so'zlab berish orqali qurish-yasashga o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarga o'z so'zlari orqali mavzuni rasm, illustratsiyalar orqali tushuntirib beradi. Asosiy diqqat bolalarni o'z o'ylaganlari bo'yicha ishlashga qaratiladi. Bolalarda qurilmalarni mustahkam qurish, g'ishtchalardan ustuncha qurish kabi yangi malakalar shakllanadi. Jamoa qurilmalarini qurishni (hayvonot bog'i, ko'cha, bolalar bog'chasi) bolalar bir-birlari bilan birga bajaradi.

Yuqoridagi malakalarni bolalar turli qurilmalarni yasashda egallab boradilar. Ba'zi qismlarni almashtirib yasash uchun turli mavzular tanlanadi: uylar, transport, ko'prik. Bu paytda tarbiyachi mavzuni nomlashni bolalarga aytadi. Shundan so'ng tarbiyachi tayyor qurilmani bolalarga ko'rsatib, xuddi shunday bajarishlari kerakligini talab qiladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar bor bo'lgan materiallardan mustaqil ravishda konstruktiv vazifalarni bajarishni o'rganadilar. Bolalarda oldindan, quriladigan materialni mo'ljallash malakasini shakllantirish, devorchalar qurish-yasash mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalarga oddiy vazifa, ya'ni devorni namuna orqali qurish vazifasi beriladi. Tarbiyachi ustunchalarni qurish, so'ng g'ishtchalarni to'g'ri joylashtirishni ko'rsatadi. Keyingi mashg'ulotda esa bolalar 2 ta uy quradilar. Bu vazifa namunasiz bajariladi. Vazifaning shu tariqa berilishi va uni asta-sekin murakkablashtirib borish bolalarni keyingi bo'ladigan faoliyatga tayyorlab boradi. «Tepalik qurish» mashg'ulotlarida bolalar avval tarbiyachining namunasini ko'rib, tepalikning balandligini belgilab oladilar. Shundan so'ng bu tepalikdan koptokchani dumalatib ko'radilar. Tarbiyachi bolalarga tepalikning baland, pastligiga ko'ra, koptokchalarni tez va sekin dumalatishni tushuntirib beradi. Bolalarga baland tepalik va past tepalik qurish topshirig'i beriladi. Bu mashg'ulotda bolalar koptokchani tez yoki sekin dumalatish tepalikning baland-pastligiga bog'liqligini aniqlaydilar, ya'ni baland tepalikdan koptok tez dumalaydi, past tepalikdan esa sekin dumalaydi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

Katta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari.

Katta guruhlarda M.P.Agapovaning qurilish materiallaridan, o'yinchoqlar institutida ishlab chiqilgan № 2, 5, 6 to'plamlaridan foydalanish mumkin. O'rgatishning asosiy metodlari-informatsion-retseptiv, tekshirish evristik metodlar. Bolalar namuna orqali tasvirlaydilar, tarbiyachi tushuntiradi, sayrda maqsadga qaratilgan kuzatishlar olib borishadi. Tarbiyachi bu metodlar yordamida bolalarda mustaqillikni rivojlantiradi. So'zlashuv usuli ham bolalarda faollik, mustaqillikni o'stiradi. Tarbiyachi mavzu nomini aytib namunani ko'rsatadi (kema).

Bolalar modelni kuzatib topshiriqni bajaradilar. Tarbiyachi esa oldindan bir qancha detallarni to'playdi va ularni bolalar oldiga qo'yadi. Topshiriqni bajarayotganda tarbiyachi bolalarga savollar berib, bolalarni mustaqil faoliyatga undaydi. Tarbiyachi bolalarga gapirib berishni o'rgatgandagina ular o'zlari o'ylaganlari bo'yicha qurilmalarni qurishlari mumkin. Qurilmalarni tahlil qilayotganda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, bir predmetni turlicha qilib qurish mumkin.

Tayyorlov guruhida bolalarga predmetning umumiy va individual xususiyatlarini ajratishga o'rgatiladi. Bolalar narsalar qismlarining proportsiyasini, simmetriyasini aniq chamalashga, narsalarni chiroyli bezashni o'rganadilar. Bu yoshdagi bolalar oldindan ko'rmoqchi bo'lgan narsalarini tasavvur qilib, uning qanday tuzilishini gapirib bera olishlari kerak, buning uchun qanday materialni tanlab, ishni qanday bajarishni bilishlari lozim. Tarbiyachi bolalarga kompleks narsalarni jamoa bo'lib qurishni, guruh bilan qurishni o'rgatib boradi. Bolalar bundan tashqari, mavzuni aniqlab, kerakli materiallar tanlash, bir-birlari bilan maslahatlashib, birga fikrlab qurishni o'rganadilar. Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari berilgan topshiriq bo'yicha, rasmlar orqali murakkab bo'lgan turli narsalarni yasaydilar. Qurish-yasash jarayonida predmetlar shakli orasida bog'liqlikni o'rganish, ularning qo'llanilishi, alohida qismlarning katta-kichikligi, konstruksiyasini bolalar egallab boradilar.

Tayyorlov guruhida bolalarning transport turlari bilan, binolar bilan tanishishlari katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi mashg'ulot o'tishdan avval bolalarni transportning turlari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, bolalar kemalarni turlari bilan ham tanishadilar: katta va kichik, yuk, harbiy, passajir kemalari. Tarbiyachi kemalarning turlarini solishtirib, bolalarga tushuntiradi: tez yurar kemalar uzun, ingichga asosga ega, yuk kemasi - keng asosli, passajir kemasi harbiy kemaga qaraganda keng bo'ladi. Birinchi mashg'ulotda bolalar harbiy kema, keyingisida passajir kemasini yasaydilar. Shu sxema asosida «shahar transporti» mavzusida mashg'ulot o'tkaziladi. Kuzatish paytida bolalarning shahar transportining turli-tumanligi haqida tasavvuri rivojlanadi. Tarbiyachi transportning har bir turining nima uchun qo'llanilishi ta'kidlab o'tadi.

Keyinchalik bolalarda predmetning qo'llanishiga ko'ra konstruksiyasini ajratish, konstruksiyani va predmetning alohida qismlari katta-kichikligini ayrimlash malakasi shakllanadi. Bu vazifani ko'prik qurish jarayonida qo'llash mumkin. Bolalar bir nechta konstruksiya bilan tanishadilar va quyidagi fikrga keladilar: qurilmalarning o'lchami, ularning qo'llanilishi bo'yicha aniqlanadi. Kemalar qatnaydigan keng va chuqur daryoga baland va keng ko'prik quriladi. Ko'prikning tepa qismida transport va yo'lovchilar uchun yo'laklar quriladi. Birinchi mashg'ulotda tarbiyachi bolalarga yo'lovchilar uchun va transport uchun ko'prik qurishni taklif qiladi. Ikkinchi mashg'ulotda bolalar ham yo'lovchi, ham transport uchun umumiy ko'prik quradilar. Uchinchi mashg'ulotda esa bolalarni o'zlari mustaqil konstruksiya o'ylab, uni nima uchun qo'llanilishini tushuntirib beradilar. Tayyorlov guruhida bolalarda turli binolar haqida tushuncha bo'ladi: ko'p qavatli bino, teatr, vokzal, ertak-uychalar. Pedagog asosan bolalar diqqatini fazoviy joylashtirish, qurilmalarini fazoviy joylashtirishga qaratadi. «Ko'cha, shahar maydonlarini qurish» mavzusini o'tishdan avval pedagog bolalarni shahar bo'ylab ekskursiyaga olib boradi va bolalar diqqatini shaharning qurilishi va estetik tuzilishiga qaratadi. Mashg'ulotda bolalarni guruhchalarga bo'lib, har bir guruhga biror bir maydon, ko'chalar qurish topshiriladi. Bolalar turli binolarni qurayotganlarida, ularda predmetning asosiy qismlarini va tanish bo'lgan geometrik shakllarni ajratish malakasi shakllanib boradi. Kinoteatrga ekskursiyadan so'ng bolalar tomoshabinlar zali, foyega kirish qismi kub, prizma, yarimdoira shakliga ega ekanligini ko'radilar va o'zlari kinoteatr qurganlarida shu narsalarga e'tibor beradilar. Tarbiyachi tomoshabinlar zali va foyening qurilish usulini ko'rsatib beradi. Bolalar jamoa bo'lib, turli mavzularda narsalar quradilar (ko'chalar, temir yo'llar, vokzal, hayvonot bog'lari, kinoteatrlar va hokazo).

Tayyorlov guruh bolalari asosan qurish-yasashning quyidagi usulidan foydalanadilar, ya'ni tarbiyachining topshirigi bo'yicha bola o'z tasavvuriga tayangan holda rasm, foto-rasmlardan foydalanadi. Ko'pgina qurilma mavzusi beriladi. Katta guruhga qaraganda bu guruhga beriladigan shartlar murakkabdir. Namunalar ko'pincha rasm, foto-rasm bo'lib, bu rasmda bolalarning ishlayotgan qurilish materialidan qurilgan qurilmalari aks etgan bo'ladi. Ba'zida tarbiyachining o'zi yasagan narsani namuna sifatida ko'rsatish mumkin.

Lekin bu usul bu yoshdagi bolalarga to'g'ri kelmaydi. Tarbiyachi topshiriqni tushuntirayotganda qurish-yasashning yangi usulini qisman ko'rsatib o'tadi. Tayyorlov guruhidagi ekskursiya va suhbatlar bolalarni qurish-yasash obyektlari haqida tasavvur qilishlariga yordam beradi. Har bir sayohat bolalarning keyingi mashg'ulotga tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Shahar bo'ylab ekskursiyada tarbiyachi asosiy diqqatni maydon, ko'chalarning tuzilishiga, binolarning chiroyli qurilganligiga qaratadi. Tarbiyachi bolalar bilan biror bir

maydonning fazoviy joylashishini, binolarni tahlil qiladi. Mashg'ulotda esa topshiriqni tushuntirib, bolalar bilimini faollashtiradi. Mashg'ulotning boshida o'tkaziladigan suhbatlar bolalar bilimini faollashtiradi. Ko'prik qurayotganida tarbiyachi bolalarga eslatib o'tadi: ko'priklar har xil bo'ladi. Yo'lovchilar uchun va transport uchun ko'priklar. Mashg'ulotning boshida, kinoteatr qurishda tarbiyachi suhbat o'tkazib, binoning asosiy qismi tomoshabinlar zali, foyeni ajratadi, uning asosiy shakl, fazoviy joylashishini aniqlaydi. Agar boshqa mashg'ulot bo'lsa, tarbiyachi bolalardan o'ylagan qurilmalari, uning nima uchun qo'llanishi, tanlangan materiallar haqida gapirib berishni talab qiladi.

Qurilish, konstruksiyalash va matematika markazida turli xil shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda islohotlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalar, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bila mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yrdamlashadi. Muammolarni hal etish tajribasini beradi. Bu yerda shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko'rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta'limda kun bo'yi bo'lish uchun tayyorgarlik guruhlari mavjud. **Maqsad:** bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o'qishi va uning maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish.

Vazifalar:

- Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash;
- fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;
- rivojlanish faoliyati;
- Nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;
- tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish;

- vizual - majoziy idrokni rivojlantirivizual - majoziy idrokni rivojlantirish;
- xotirani, nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;
- kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;
- bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollarini kengaytirish;
- barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalari bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning

maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Bolaning o'sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan ozicha mano topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o'ynayotgan o'yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o'rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o'yini bolani har jihatdan rivojlantiradi. Zero, maktabgacha talim yoshidagi bolalar hayotda ko'rgan voqea-hodisalarni kishilarga taqlid qilib oynaydilar. Bolalar kishilarga taqlid qilish orqali real hayotiy muammolarni hal etishga o'rinadilar. O'z kechinmalarini takrorlaydilar, qayta o'ynaydilar va jonlantiradilar. Shu tariqa, sahna o'yini bolaning boshqalar bilan o'zaro hamkorlik qilishga qobil bo'lgan shaxs darajasiga o'sib rivojlanishiga komak beradi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o'rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlanib boradi. Musiqiy, so'z, ko'rish obrazlaridan foydalangan holda zarur bolgan ruhiy sifatlarini (idrok qilish, tassavur qilish, diqqat, tafakkur), ijrochilik konikmalarini (rolga kirish, tasavvurdagi muhitda harakatlanish ko'nikmasi) va sezgilari (mushak va hissiy) rivojlanish iuchun sahna mashqlari otkaziladi. Badiiy asarlar bo'yicha oddiy parchalarni sahnalashtirishda bola obrazni aks ettirish uchun unga malum ifoda vositalari (ohang, yuz-harakati, imo-ishora) o'rgatiladi. Har bir bola rol o'ynayotganda avvalo asar qahramoning his tuyg'u holatini sezishi va tushunishi, boshqa personajlar bilan rolni munosabatga kirishishida o'zini tutishi qobiliyatilari shakllantirishi lozim. Teatrlashtirilgan o'yinlarda obrazli o'yinchoqlardan, loydan, pape-mashe, plastilindan mustaqil yasalgan o'yinchoqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sahnalashtirilgan har qanday o'yin asosida bolaning bilish jarayonida irodaviy - hissiy xususiyati badiiy asardagi go'zallikni his qilishi ko'nikmasini to'g'ri shakllantirib borishga alohida e'tibor qaratish kerak. Masalan, tarbiyachi bolalarga o'qib ertak kitobcha syujetinini oz so'zlarini bilan hikoya qilgan holda, sahna ssenariysini tuzadilar, unga mos qo'g'irchoqlarni tanlab, ishtirokchilar o'rtasida muhokama qilib, rollarni bolib olishadi. Syujetni rollarga kirib, ravon va ifodali qilib aytishi kerak. Syujetdagi qo'g'irchoqlar hatti-harakatini o'zlashtirishi - har bir imo-ishora va mimikasini ko'rsata bilishi kerak.

Rollarni ketma-ketlikda bajarish; qo'irchoqlarning birin-ketin chiqishini namoyish etish. Sahna o'yini jarayonida bola bir xodisa bilan boshqasini bog'lashi, g'oyalarni sinab ko'rishi, xatolarini tuzatishi, rejalar tuzishi, uni amalga oshirish ularning aqliy rivojlanishiga olib keladi.

Syujetli - rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi uchun ko'rgazmalar tayyorlash.

Guruhlarda xonalarni syujetli rolli o'yinlar va sahnalashtirish markaziga mos holda jihozlash yo'riqnomasi:

1. Shirma
2. Marionetka-qo'g'irchoqlar (ipda o'ynatadigan)
3. Qo'lqopli, barmoqli, tayoqchali, soya teatr ertak kaxramonlari
4. Ertak qaxramonlari liboslari
5. Niqoblari
6. Uycha maketi
7. Mazmunli o'yinchoqlar
8. Rejissyorlik o'yinlari uchun qaxramonlar (odamchalar, askarlar, multfilm personajlari)
9. Sahna uchun jihozlar (turli daraxtlar, tandir maketi va xokazo)

Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlari bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni - bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkoni yaratiladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan xisoblanadi. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rang-barang xatti-harakatlari, ko'rinishlari - bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

Syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar:

- bolalar o'yinlarini kuzatish,
- o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish;
- o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 - bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi:

- o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar;
- suhbatlar;
- badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish;
- illyustrativ rasmlar ko'rsatish;

- mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar;
- tasviriy faoliyat mashg'ulotlari

3 - bosqich. o'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari):

- tayyor o'yinchoqlarni tanlash;
- qo'lda yasalgan o'yinchoqlar.

Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4 - bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish):

- o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish;
- o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish;
- o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish;
- o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish;
- so'z va harakat;
- harakat va o'yin materiallari,
- so'z, harakat va o'yin materiallari o'yinning tili xisoblanadi.

5 - bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish:

- ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish;
- bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish;
- o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish;
- tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;
- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash;
- kattalarning o'yinga ta'sir etishi - maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga to'lag'onli yordam berish;
- bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

Syujet - o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblanada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Syujetli-rolli o'yin Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolaning asosiy o'yin turidir. Syujetli -rolli o'yin o'z ifodasiga ko'ra inson faoliyatidir. Bola o'yinini oziqlantiruvchi manba bu, borliq dunyo kattalar va tengdoshlarining hayoti hamda faoliyatidir. Syujetli rolli o'yin keng asosiy xususiyati unda hayolni vaziyatning mavjud bo'lishidir. Xayoliy vaziyatlar bolalar o'yin chog'ida qabul qiladigan syujet va rollardan tarkib topadi, ular buyum va narsalarning o'ziga xos

qo'llanilishini o'z ichiga oladi. O'yin syujeti bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqealarning yig'indisidir. Syujetda o'yinning mazmuni ochiladi, voqealar ishtirokchilari bilan bog'liq bo'lgan harakatlar va munosabatlar ifodalanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, vositalarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra xilma-xildir. Professor Y.A. Arkin maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarini quyidagicha tasniflagan:

1. Bolalardagi ruhiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan o'yinlar:

- harakatli;
- intellektual;
- estetik.

2. Texnikaviy o'yinlar:

- san'at o'yinlari;
- qishloq xo'jaligi o'yinlari;
- kasb bilan bog'liq o'yinlar;
- qurilish o'yinlari.

3. Hayotiy-ijtimoiy o'yinlar:

- oila hayotiga doir;
- bog'cha, maktab;
- ijtimoiy hayot bilan bog'liq;
- ijtimoiy-siyosiy o'yinlar;

4. Harbiy o'yinlar:

- “Askar-askar” o'yini;
- “Dengizchi (matroschi)” o'yini.

5. Dramalashtirilgan o'yinlar:

- teatr;
- kino;
- sirk.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarini D.B. Elkonin o'z navbatida quyidagicha tasniflagan:

- maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;
- ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o'yinlar;
- ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish orqali o'yin syujetining ko'lami kengayishi mumkin. Bola maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan kunda ularning o'yinlari faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, mashg'ulotlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o'yinlarning turlari ko'payib, bog'cha, hayvonot bog'i, oshxona, poyezd, sataroshlik, sotuvchilik kabi o'yinlar qo'shilib boradi. Bolalar o'yinlarining

ko'payib borishi ularning yosh xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Bolalar o'sib-ulg'aygan sari ularning o'yinlar syujeti tobora boyib, xilma-xillashib boraveradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha o'yinlari o'zining mazmuni, xususiyati va tashkil etilishiga ko'ra ikki katta turkumga bo'linadi:

1. Ijodiy o'yinlar.

2. Qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar bo'lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o'yin jarayonida o'ylab topiladi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. O'yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

Ijodiy o'yinlarga:

– syujetli-rolli o'yinlar;

– sahnalashtirilgan o'yinlar;

– qurish va yasashga doir o'yinlar kiradi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. Bunday o'yinlar mustaqil o'yin bo'lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'la namoyon bo'ladi. O'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o'yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o'yin g'oyasini yaratishida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo'ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan – tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinlarda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Syujetli-rolli o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. “Bolalar bog'chasi”, “Maktab” kabi o'yinlar bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Rolli o'yinlarda har bir bola o'zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi, haydovchi, tarbiyachi, enaga, o'qituvchi kabilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar avval katta bo'lmagan guruhlarda 2–3 kishidan bo'lib o'ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'p sonli jamoalarga birlashadi. O'yinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi. Uch yoshda bolaning o'yinlari yangicha tus oladi. Bola o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydi. Uch yoshning oxiriga kelib, bola rol tanlay boshlaydi (“Men oyisiman”, “Men shifokorman” tarzida). Bolalar to'rt yoshga yetganda, syujetli rollar ancha rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, bog'cha, avtobusdagi voqealarni aks ettiradi. Bola besh

yoshga qadam qo'yganda, undagi kuzatuvchanlik yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o'yin mazmuni murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo'yicha o'yinlar o'ynaydi. Katta bog'cha yoshida ijodiy o'yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to'liq qo'llay boshlaydilar. Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar. O'yin jarayonida ular ba'zi bir narsalarni xohlaganicha nomlab, faraz qilib o'ynaydilar. Masalan, qumni shakar, stulni mashina, danaklarni konfet o'rnida qabul qiladilar. Aks ettiruvchi vosita qancha ko'p bo'lsa, o'yin mazmuni shunchalik boyib boradi. Psixolog J. Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramzli, ma'noli tasavvur shakllarining tayanchi, degan xulosaga kelgan.

O'yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bolalar o'yinlariga har tomonlama to'g'ri rahbarlik qilish orqali ularga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, o'yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta'sirini ko'rish mumkin. Bolalar o'yinlarining ikkinchi turkumi qoidali o'yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi:

- didaktik;
- harakatli;
- musiqaviy;
- ermak o'yinlar.

Qoidali o'yinlar barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichkintoylarda mas'uliyatli bo'lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishlash, atrofdagilar bilan murosada bo'lishga o'rganib boradi. Har bir qoidali o'yinlar o'z g'oyasi va mazmuniga egadir. O'yin davomida qoidalarning to'g'ri bajarilishi "to'g'ri" yoki "noto'g'ri", "o'yin qoidasi buzildi", degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o'yin vaqtida o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganib boradi. Albatta, har bir o'yin so'ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo'yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e'tibor qaratilishi kerak. O'yin so'ngida qatnashchilarni rag'batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o'yinlarning samarali o'tishini ta'minlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha turdagi qoidali o'yinlar mazmuniga ko'ra o'z qoidalariga ega bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- o‘yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o‘yin vazifasining mavjudligi;
- o‘ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo‘lga solib turilishi;
- o‘yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;
- o‘yinning ta‘lim-tarbiyaviy mazmuni o‘yin harakatlari vaqoidalarida mujassam bo‘lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta‘limda bolalarning yosh xususiyatlarini tushuntiring.
2. Qurish-yasash faoliyatini loyihalashtirishda nimalar e‘tiborga olinadi?.
3. Qurish-yasash faoliyati orqali matematik bilimni qanday shakllantirish mumkin?.
4. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi qanday rivojlantiruvchi markazlar mavjud?
5. Syujet-rolli o‘yinlarning qanday turlari bor?.
6. Sahnalashtirishga kim va qanday rahbarlik qiladi?
7. Qoidali o‘yinlar mazmuniga ko‘ra qanday xususiyatlarga ega?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
5. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma T., 2001
6. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbita berishning zamonaviy tendensiyalari. T.; O‘ZPFITI 2015
7. Djanpensova, B.Xolmuratova,. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. T.; “Innovatsiya-Ziyo”, 2020
8. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T.:BMT bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2022-y 2-nashri
9. Bikbayeva.N.U., Ibragimova Z.I., Qosimova X.I. “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish” T. “O‘qituvchi”. 1995.

10. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk agentligi”.-T.:2020-yil. (elektron darslik).

11. Xujayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nashriyoti Toshkent 2011 y

12. Liviyskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent 1995 yil- 500 b.

13. Xujayev F, Raxmonqulov K.D., Nigmanov B.B “Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” TDPU nashriyoti Toshkent 2008 y

5-mavzu. Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni va tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini loyihalashtirish.

Reja:

1. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi haqida tushuncha. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish nutqiy faoliyatini loyihalashtirish usullari.

2. Mashg‘ulotdan tashqi vaqtlarda tasviriy faoliyat.

3. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsad va vazifalari.

4. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlari va usullari.

Tayanch tushunchalar: rivojlantiruvchi markaz, muhit, til va nutq, muloqot, markazlarda bolalar faoliyati, monologik nutq, dialogik nutq, ichki nutq, yozma nutq, mustaqil tasviriy faoliyat, tasviriy faoliyat, sensor tarbiya, estetik sezgi, didaktik o‘yinlar, faoliyat turlari, o‘rgatish metodlari

MTTda rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Mulkchilik shaklidan qat’i nazar, boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik bepul tayyorgarlik ko‘rish uchun barcha guruhlarda rivojlanish markazlari, shu jumladan maktabgacha ta’limda kun bo‘yi bo‘lish uchun tayyorgarlik guruhlari mavjud.

Maqsad: bolaning har tomonlama rivojlanishi, tarbiyalanishi, o‘qishi va uning

maktabga samarali tayyorgarligini ta'minlash uchun sharoit yaratish.

Vazifalar:

- Bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- individual manfaatlarni qo'llab-quvvatlash;
- fikrlash jarayonlarini va kognitiv qiziqishni faollashtirish;
- rivojlanish faoliyati;
- Nostandart holatlarda samarali harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish;
- tashabbuskorlikni rivojlantirish, o'z fikrlarini ijodiy ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish;
- bolalarni texnik va badiiy ixtiro bilan tanishtirish;
- vizual - majoziy idrokni rivojlantirish;
- xotirani, nozik vosita ko'nikmalarini, fikrlash, tasavvurni rivojlantirish;
- kommunikativ ko'nikmalarni, muloqot qobiliyatini va jamoaviy ijodkorlikni rivojlantirish;
- bolalarda izlanish va kognitiv faoliyatni rivojlantirish istiqbollari kengaytirish
- barkamol shaxsni rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak.

Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak.

Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining etakchi rolini hisobga olish kerak.

Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak.

Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur.

Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallar va o'yin uskunalar bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi:

har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallarl.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatzatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atributlari.

Til va nutq markazi: didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmi Alifbo" kubiklari.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo'yicha maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'yin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.

San'at markazi: tasviriy faoliyat zarur jihozlar, xalq hunarmandchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar

yoʻzuvchisi va Oʻzbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Markazdagi bolalar faoliyati: oʻyin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, musiqiy va badiiy.

Pedagogning faoliyati:

- bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani oʻrgatish;
- mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga boʻlgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga boʻlgan ehtiyoj, oʻrganish va ragʻbatlantirish, shu bilan birga subʻekt boʻlish;
- Bolalar bilan birga uyushgan tadbirlar tashkil etish;
- qiyinchiliklar yuzaga kelganda, bolaga begʻaraz va oʻz vaqtida ogʻzaki va amaliy yordam koʻrsatish;
- bolaning shaxsiy qiziqishini ragʻbatlantirish.

Rivojlansh markazlarida oʻquv va bilim jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va oʻyin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, shou, badiiy adabiyot, oʻqish, ensiklopedik adabiyotlarni oʻqish, koʻrib chiqish va muhokama, tushuntirish, munozara, video namoyishlarini tomosha qilish, kompyuter taqdimotlarini tomosha qilish, ijodiy faoliyat, tadqiqotlar, tajribalar, jonli va jonsiz tabiatning sirlari va boshqalardan foydalanish;

Bolaning rivojlanishi faqat oʻquv faoliyatida emas, balki oʻyin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning oʻyin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga eʼtibor qaratadi. Agar kerak boʻlsa, tarbiyachi didaktik materiallarni toʻldiradi yoki oʻzgartiradi. Tarbiyachi guruhdagi barcha bolalar besh kun davomida har bir markazga tashrif buyurishini taʼminlaydi. Kuzatish va tahlil asosida kutilayotgan natija, muammolar, echimlar tarbiyachi har hafta oxirida bolalarning oʻz maqsadlariga erishgan yutuqlarini qayd etadi, agar shunday boʻlsa, muammolar pedagogning va bolalarning va uning otalarining shaxsiy ishi bilan belgilanadi. Shunday qilib, rivojlanish markazlarida toʻgʻri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga oʻziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan oʻzaro munosabatlarni oʻrganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuygʻularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan taʼlim asosida yotadi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani oʻzlashtirish va avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya oʻrnatish, oʻz harakatlarini rejalashtirishda tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq faoliyatining yo`nalishi har xil bo`lishi mumkin:

- yangi informatsiyani berish, yangi bilimlarni berish;
- aqliy masalani yechish.

Til aloqa vositasi yoki quroli, nutq faoliyati esa aloqa jarayonining o`zidir.

Psixologiya nutqni o`rganar ekan, har turli sharoitlarda, har xil muammoli vaziyatlarda tildan foydalanish xususiyatlarini aniqlaydi, inson hatti-harakatini rejalashtirishda tilning rolini o`rganadi, bolalarda aloqa (kommunikatsiya) jaryonining tarkib topish yo`llarini va shu kabilarni tahlil qiladi.

Ixtiyoriy va ma'lum darajada faol nutq ko`p hollarda **monologik**, reaktiv nutq esa **dialogik** nutq deb ataladi.

Monologik nutq

Monologik nutq ma'lum darajada nutqning batafsil turi hisoblanadi. Chunki monologik nutqda biz barcha ma'lumotlarni iloji boricha to`liq berishga, notanish vaziyat va holatlarni tinglovchi tushinishi uchun batafsil tasvirlab berishga majburmiz.

Monologik nutq - nutqning faol, ixtiyoriy turlaridan biridir. Monologik nutqni amalga oshirish uchun gapirayotgan odam qandaydir nutq mazmuniga ega bo`lishi, shu mazmun asosida o`z nutqiy mulohazasini izchil ravishda qura bilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda notiq o`z nutqini (gaplarnigina emas) avvaldan bir butun holda oldindan rejalashtiradi (programmallashtiradi).

Monologik nutq qiyin, murakkab bo`lganligi sababli uni maxsus ravishda tarbiyalash, shakllantirish talab qilinadi. Masalan kichik bola yoki o`rganmagan kishiga o`z fikrini batafsil, monolog sifatida bayon qilish qanchalik qiyinligini barchamiz bilamiz. Shu sababli maktablarda, boshqa tipdagi o`quv yurtlarida monologik nutqni o`stirishga alohida e`tibor berish lozim. Ayniqsa o`qituvchi uchun "tili to`mtiq" bo`lishdan yomonroq, pedagogikaga zidroq narsa yo`q. Nutqning bu turini rivojlantirish uchun turli bahslar, ma`ruzalar bilan chiqishlar, treninglar o`tkazish lozim.

Dialogik nutq. Nutqning bu turi vaziyatga qarab yuzaga chiqadi va kontekstual (shu vaziyatdan, oldingi aytilgan fikrning mazmuni va shakllaridan kelib chiqiladi) xarakterga egadir. Dialogik nutqning xarakteristikasi monologik nutqning xarakteristikasiga qarama-qarshidir.

Birinchidan, dialogik nutqda suhbatdoshlarga ma'lum bo`lgan ayrim suzlar tushirib qoldiriladi. Shu sababli yozib olingan dialogik nutq o`zgalar uchun ko`pincha tushunarsiz bo`ladi.

Ikkinchidan, dialogik nutq ixtiyorsiz, reaktiv nutqdir. Dialogik nutq ko`pincha biror fikrga, lukmaga, hatto nutq bilan bog`liq bo`lmagan stimullarga javob tariqasida (qo`lini eshik qisib olgan kishi - "Ox, qurib ketsin!" deydi) yuzaga keladi.

Uchunchidan, dialogik nutq nihoyat darajada oz tartibli. Dialogik nutq

davomida luqma tashlash odatda oldindan rejalashtirilmaydi. Agar dialogik nutq jaryonida rejalashtirishga to'g'ri kelsa ham bu oddiy rejalashtirish bo'ladi. Chunki, biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek dialogik nutq kontekstga bog'liq ravishda boshqariladi. Ko'p hollarda u g'uyoki o'z-o'zidan "oqib" kelaveradi. Dialogik nutqda qo'llanilaverib odat bo'lib qolgan so'zlar va so'z birikmalari ("rahmat", "yaxshi", "marhamat") juda ko'p qo'llaniladi.

Ichki nutq. Ichki nutq nutq faoliyatining alohida xili hisoblanadi. Ko'pincha ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasida vosita sifatida nomoyon bo'ladi. Agar biz biron-bir qiyin masalani yechayotgan bo'lsak uni o'z-o'zimiz bilan maslahat (muhokama) qilib olamiz. Tabiiyki ichki nutq chalayarim, uzuq-yuluq - ya'ni fragmentar xarakterga ega bo'ladi. Sababi biz o'z fikrimizni, nima haqida o'ylab nima haqida "gapirayotganimizni" o'zimiz juda yaxshi tushunamiz.

Ikkinchi tomondan, ichki nutqda biron vaziyatni idrok qilish paytida anglashilmovchilik bo'lmaydi. Ichki nutq xaddan tashqari sharoitga bog'liqdir. Ichki nutqni artikulyatsiya a'zolarining harakatlarini (lablar, tilning harakatlari) qayd qilish yo'li bilan tekshirish mumkin. Ammo bu holda ichki nutqning mantiqiy jihatdan oxirigacha olib boilmaydigan, real ovoz chiqarishgacha yetkazilmaydigan talaffuz qilish harakatlarigina o'rganiladi.

Yozma nutq. Yozma nutq monologik nutqqa juda yaqin turadi. Shu sababli ba'zi qo'llanmalarda uni monologik nutqning turi ham deb ko'rsatishadi. Monologik nutqning barcha xususiyatlari yozma nutqqa ham xosdir. Yozma nutq og'zaki monologik nutqqa nisbatan birmuncha batafsilrokdir. Chunki yozma nutq jarayonida suhbatdoshdan keluvchi teskari aloqaning bo'lmasligi. Bizdan suhbatdoshimiz biror narsani so'ray olmaydi, tushungan yoki tushunmaganini izhor qila olmaydi. Shu sababli hamma narsani batafsil, oldindan tushuntirishga, izhor qilishga harakat qilamiz. Bu jihatdan yozma nutq og'zaki nutqqa nisbatan nihoyatda murakkab. Yozma nutqni o'zlashtirish va uni tushunish uchun maxsus tartibda ta'lim olmoq zarur.

Yozma nutq, o'z mohiyati jihatdan, nutqning eng ixtiyoriy turidir. Agar biz bayon qilmoqchi bo'lgan fikr o'ylaganimizdek chiqmasa biz uni yana boshdan boshlaymiz. Yozma nutq ham turli darajada va shaklda bo'lishi mumkin. Kimdir yozma nutq davomida og'zaki nutqqa suyanadi o'zicha gapirib turadi), kimdadir yozma nutq to'liq ichki planga to'liq o'tgan. U shunchalik o'rganganki, tashqi nutqqa suyanmaydi, g'uyoki "o'ylamaydi", gaplar o'z-o'zidan quyilib kelaveradi. Yozma nutqning natijalari ham doimo ko'zga tashlanib turadi. Shu sababli tartibli nutqqa o'rgatishni yozma nutqdan boshlash kerak.

Bolalarning badiiy jihatdan tarbiya olishi faqatgina mashg'ulot jarayonida emas, balki kundalik hayotda yuzaga keladi. Bu o'rinda bolaning o'z faolligi jarayonida yuzaga keluvchi mustaqil tasviriy faoliyat muhim rol o'ynaydi. U bu

jarayonda mashg'ulotlarda olgan badiiy tajribasidan foydalanadi. Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda bolada o'zi sevgan mavzularga tasviriy faoliyatning biror bir turlariga nisbatan layoqat yoki xohish seziladi. Bunga bolalarning o'z ixtiyorlari, xohishlari bo'yicha ishlagan loy, applikatsiya, rasm va qurish yasash ishlari misol bo'ladi. Shuningdek, tasviriy san'at va uning turlari, musiqa, adabiyot, bolalar mustaqil tasviriy faoliyatining asosiy sababchisi hisoblanib, bolalarning kechinmalarini boyitadi. Teatr, kino, sirk yoki televizion eshittirishlarni ko'rish bolalarda obrazlarni ifodali, mazmundor bo'lishini yanada oshiradi. Bolalarda tasviriy faoliyat bilan o'zlari shug'ullanishlari jarayonida ularda chizish, yopishtirish, loydan yoki qurilish materiallaridan o'yinchoqlar yasashga nisbatan xohish uyg'onadi. Ular o'z o'yinchoqlarini o'rtoqlariga, tarbiyachisiga 8-martga o'z buvilari, onalari uchun sovg'alar tayyorlab, ularga hadya qiladilar. Ba'zida bolalar zalni, guruh xonasini bezatish uchun o'yinchoqlar yasaydilar yoki mashg'ulotlar uchun ko'rgazma materiallari tayyorlaydilar. Masalan, sanash uchun shablonlar, solib qo'yish uchun qutilar va hokazo. Bolalar guruhda yoki o'rtoqlarida paydo bo'lgan yangi narsalar bilan qiziqib, uni chizishga yoki applikatsiya qilishlari mumkin. Masalan, birorta bola bog'chaga yangi qo'lqopda keladi, bolalarga u yoqib qoldi va bolalar uni tasvirlashga o'tishlari mumkin. Bolalar albatta, o'zlariga yaqin bo'lgan narsalarni chizadilar. Masalan, shimolda yashovchibug'uni, O'rta Osiyoda esa tog'lar, qumliklar va tuyalarni tasvirlaydi. Bolalar, ayniqsa, ko'proq dekorativ va ertak hikoya asosida rasm chizadilar. Qizil gilam va naqshlarni chizadilar, qo'g'irchoqni bezaydilar. Tayyorlov guruhida esa ko'proq bolalarning naturaga qarab gullar, vazalar chizishlarini kuzatish mumkin. Shuningdek, guruh xonasini, zalni bezatish uchun dekorativ bezaklar chizadilar. Bu jarayonda bolalar, asosan, akvarel, guash, rangli bo'rlar, ko'mirlitayoqchalardan foydalanadilar. Bolalar bo'sh vaqtlarida loydan, plastilindan narsalar yasashni yaxshi ko'radilar. Ular odarnlar, hayvonlar, ertak qahramonlarini loydan yasaydilar. Ayniqsa, jamoa bo'lib narsalar yasash katta o'rin tutadi. Bolalar guruhlarga birlashib, mavzular asosida o'yinchoqlar yasaydilar. Masalan, «Mazay bobo va quyonlar», turli idish-tovoqlar. Bolalar geometrik shakllarni qirqib yopishtiradilar, qor parchalari, qog'ozdan qirqilgan qo'g'irchoqlar uchun ko'ylaklar va hokazo. Bolalar jamoa bo'lib applikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, qo'g'irchoq uchun gilamcha, bolalar ishlarining mazmuni, maktabgacha ta'lim muassasasi hayotidan yoki yaqin ularni o'rab turgan hayotdan, atrofdan olishi mumkin. Qurish yasashda esa bolalar katta va mayda qurilish detallaridan foydalanadilar, garaj, uylar, paroxodlar quradilar. Qog'ozdan archa uchun, guruh xonasi uchun o'yinchoqlar yasaladi. Tabiat materiallaridan, gugurt cho'pi, plastilin yordamida, qayiqchalar yasaydilar. Kuzda turli-tuman barglardan piramida yoki shapkachalar yasaydilar. Mashg'ulotdan tashqari, bolalar kitoblardagi rangli rasmlarni rasimli albomchalarni tomosha qiladilar. Bu esa bolalarning badiiy didlarini, idrok qilishlarini o'stiradi.

Rangli shaklni sezishni o'stirish maqsadida didaqtik o'yinlar uyushtiriladi. Shuningdek, bolalar mustaqil tasviriy faoliyat bilan bino ichida ochiq havoda ham shug'ullanishlari mumkin. Buning uchun bolalarga, masalan, asfaltda chizish uchun rangli bo'rlar, loydan yoki qumdan turli xil figuralar yasash, toshlarni terib, turli ko'rinishlarni hosil qilish, somondan turli xil narsalar yasashlarini, qishda esa qordan turli narsalar yasab, ularni rangli muzchalar biln bezatishni taklif etish mumkin. Shuningdek, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatlari o'zaro, ya'ni rasm, loy, applikasiya, qurish yasash bilan chambarchas bog'liqdir.

Bolalarning bu faoliyatlari ularni tashkil etadigan roli o'yinlar bilan ham bog'liqdir. Yirik qurilish detallaridan jamoa fermasi, kino, do'kon quradilar, bu o'yin uchun loydan sabzavot va mevalar yasaydilar. Har bir bola mustaqil tasviriy faoliyat jarayonida tarbiyachi oldiga kelib, o'ziga kerakli zarur narsani so'rab olishi, tushuntirib berishi va u bilan nima ish qilmoqchi ekanligi haqida so'zlab berishi mumkin. Bu jarayonda bolalar o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, uni bajarish usullarini, yo'llarini o'zlari mustaqil axtarib topishga harakat qiladilar.

Bolalarning faolligi jarayonida vujudga keluvchi mustaqil tasviriy faoliyati tarbiyachining shu ishga rahbarlik qilishida biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki tarbiyachi to'g'ridan to'g'ri rahbarlik qilmay, balki ikkinchi darajali holatni egallaydi. Bola tevarak-atrof haqidagi taassurotlarini mustaqil ravishda tasvirlash uchun ular tasvirning vositalaridan keng va erkin foydalanishni bilishlari lozim. Bu esa mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi tomondan berilib, bolalar tomondan egallangan bilim va malakalar hamda taassurotlarning ko'payib, boyib borishi bilan belgilanadi. Masalan, naturaga qarab gul rasmini chizgach, bolalar bilan gulzordagi gullarni yoki uchastkadagi gullarni, rasmlardagi turli gullarni ko'rib chiqish lozim. Shundagina bolalar o'z mustaqil faoliyatlarini gullardan chiroyli guldastalar va dekorativ kompozitsiyalar tuza oladilar.

Tarbiyachi bolalarga ular nimalarning tasvirini xohlashsa, o'sha predmetlarni ko'rib, kuzatib chiqishni taklif etadi. Agarda bola samolyot, mashina chizmoqchi bo'lsa, tarbiyachi undan chizishni bilasanmi, deb so'rashi va yordam sifatida bolalarga transport turlarining rangli rasmini ko'rib chiqishini va bunda ularning har bir o'ziga xos xususiyatlariga bola diqqatini tortishi lozim. Bolalar diqqatini ko'proq uncha murakkab bo'lmagan dekorativ kompozitsiyalar tortadi. Masalan, gilamcha, salfetka va hokazo. Shuning uchun tarbiyachi bolalar ishini boyitish maqsadida, mashg'ulotlardan tashqari tasviriy faoliyat jarayonida bolalarga dekorativ naqshlarni ko'rib chiqish uchun tavsiya etishi mumkin. Masalan, Dimkov naqshlari. Agarda bolalar mashg'ulotdan tashqari mazmunli kompozitsiya tasvirlamoqchi bo'lsalar, tarbiyachi qog'oz varag'idan predmetlar qanday yasalishi, ish tartibini eslatib o'tishi zarur. Bolalar bo'sh vaqtlarida o'zlari sevgan ranglar bilan bo'yoqda, qalamda shug'ullanishni sevadilar, tarbiyachi materialning xillarini rango-rang qilib, bolalarning bu qiziqishlarini, xohishlarini o'stirishi lozim.

Bolalarga chizayotgan ishlarni toza, chiroyli qilib bajarishlarini eslatib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarning bu ishlarida ularga maslahatgo'y bo'lishi kerak. U bola qanday qilish lozimligini aytmaydi, balki bola bilan ishning borishini tahlil qilib, bolaga ishning sifatli bo'lishi uchun yordam beradi.

Mustaqil tasviriy faoliyat jarayonida faollik yoki xohish, bolalar tomondan kelib chiqishi kerak. Agarda tarbiyachi bu jarayon davomida kichik va o'rta guruh bolalariga ko'proq maslahat berib, faolligini oshirsa, katta tayyorlov guruhlarida bolalarga ko'proq mustaqillik berishlari lozim. Tasviriy faoliyatida bolalar faolligi asosida do'stona munosabatlar tarkib topadi, bolalar bir-birlariga maslahatlar beradi, yordam beradi, ya'ni jamoa bo'lib ijod qilish o'sadi. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati bilan shug'ullanishi uchun materiallar yetarli darajada bo'lishi, loy yetarli va qulay bo'lishi, materiallarni saqlash uchun joylashgan jvonlar bolalar olishi uchun qulay bo'lishi, tasviriy san'at asarlari, shuningdek, dekorativ san'at namunalari, naqshlar, xoxloma va Dimkov o'yinchoqlari bo'lishi zarur. Bular tasviriy faoliyat burchagini bezashi mumkin. Shuningdek, tasviriy faoliyat zonasida doska bo'lishi lozim, chunki bolalar unga rangli bo'rlar bilan rasmlar chizadilar. Turli-tuman materiallarning bo'lishi, bolalar mustaqil tasviriy faoliyatlarini yana ham boyitadi. Tasviriy faoliyat burchagidagi materiallarni tarbiyachi vaqti-vaqti bilan almashtirib, to'ldirib boradi. Illustrativ rasmlar to'plami bo'yicha xoxloma, dimkovo o'yinchoqlari stol ustiga terib joylashtiriladi. Bolalar ularni ko'rib chiqadilar. Bolalar o'yin jarayonida rasm chizishdan tashqari, loydan o'yinchoqlar yasashni yaxshi ko'radilar. Qurilish materialardan bolalar keng foydalanib, o'yinlar tashkil qiladilar. Ammo tarbiyachi oldindan qurilish burchagini tashkil etish to'g'risida o'ylab ko'rishi kerak. Bu burchakda tarbiyachi yirik va mayda qurilish detallarini plastmassa, rezinadan qilingan o'yinchoqlarni, odam va hayvon obrazlarini, transport, o'simliklarni tasvirlovchi mayda o'yinchoqlarni ham joylashtiradi. Katta va tayyorlov guruh qurilish burchagiga qurilmalar tasviri aks ettirilgan albomlar, fotosuratlarini ham joylashtirish lozim. Albomda yig'ilgan fotosuratlar turli-tuman binolarning ko'rinishini tasvirlash mumkin. Masalan, ko'prik, transport, binolar kabi.

Bolalar qurilmalar qurish jarayonida o'z qurilmalarini boshqatdan ko'rib, o'zgartirib, turli xil detallar bilan boradilar, shuning uchun bolalarning juda qiziqib qurayotgan ishlari bir necha kun mobaynida saqlanishi zarur. Kichik guruhlarda esa tarbiyachi bolalarga nimalar qurishga o'rganganligini o'zi eslatadi, o'zi bolalar o'rnida ishtirok etadi va qurilmalarni qurish jarayonida birgalikda yordamlashadi va o'z vaqtida maydonchaga qurilish materiallarining to'plamini olib chiqadi, bolalar stol ustida turli xil qurilmalar quradilar, ular bilan o'yin o'ynaydilar. Qo'l mehnati burchagida xilma-xil materiallardan karton, yelim, qog'oz, qutichalar va tabiat materiallaridan saqlanadi. Katta yoshdagi bolalar tarbiyachining rahbarligida mashg'ulotda olgan bilim va malakalari asosida, o'yin uchun kerakli

o'yinchoqlar yasaydilar. Tarbiyachi bolalarga maslahatlar beradi, qiynalishsa, ko'rsatib beradi. Ba'zida tarbiyachining o'zi o'yinchoq yasaydi, ammo albatta bularni bu ishga jalb etadi. Masalan, qaysidir qismini yopishtirishni yoki kerakli qismlarni tanlab olishni taklif etishi mumkin. Ba'zida tarbiyachi mashg'ulotdan ikki-uch kun oldin, bolalar yasashi lozim bo'lgan buyumni bolalar ishtirokida yasab, ikki-uch kun burchakda saqlashi mumkin. Tabiat materiallari bilan ham barglar, shoxlar, o'simlik urug'lari, joludlar ishlashadi. So'ng ularni sayr yoki ekskursiyada kuzatadi, bolalar ularni yig'adilar va tarbiyachi ulardan qanday qilib o'yinchoq yasash kerakligini ko'rsatib beradi. Masalan, shishkalardan tipratikan, baliq va boshqalar yasaydilar. Tarbiyachi bolalardan bu materiallardan nimalar qilish mumkinligini so'rab, ularda fantaziyaning faolligini o'stirib boradi.

Kichik va o'rta guruh bolalari ham mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda rasm chizish, loydan buyumlar yasashga qiziqishi uyg'onib boradi. Ular turli xil sodda ko'rinishdagi rasmlar chizishga va o'rta guruh turli xil figuralarni rangli qog'ozdan qirqadilar. Tarbiyachi ularning qiziqishlarini o'stirib, rangli qog'ozdan chiptalar, cheklar qirqishni tavsiya etishi mumkin. Tasviriy faoliyatga pedagogik rahbarlik qilish mashg'ulotdan tashqari vaqtda asta-sekin o'zgarib boradi. Ya'ni harakatlarni ko'rsatib berishdan mustaqillikka o'tish, material tanlashda yoki o'z rejasini o'ylagan maqsadini tasvirlashda ham. Mashg'ulotdan tashqari vaqtda tasviriy faoliyatni ishning yordamchi shaklsiga aylantirib yuborish kerak emas. Shuningdek, tarbiyachi shuni esda tutmog'i lozimki, mashg'ulotdan tashqari tasviriy faoliyat bilan shug'ullanish hamma uchun majburiy emas, u bilan kim chizishini, loydan narsa yasashni, qirqishni yaxshi ko'rgan bolalar shug'ullanishi mumkin. Bolalar tasviriy faoliyat bilan mashg'ulotdan tashqari vaqtda 10-15 daqiqa davomida shug'ullanib, o'z rasmlarini, loy va applikatsiyani tugatishlarini yoki uni keyingi kunda ham davom ettirib, tugatishlari mumkin. Bu faoliyatga rahbarlik qilish tarbiyachidan juda katta sezgirlikni, diqqatni va bolalarning ijodiy qobiliyatlarining o'sishi uchun sharoit yaratib berishni talab etadi. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatlari burchagining jihozlari va materiallari. Bolalarning mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Bu maqsadda guruh xonasining yaxshi yoritilgan va o'yin burchagidan mumkin qadar uzoqroq biron bir joyi ajratilishi kerak. Xonaning deraza oldi ajratilishi maqsadga muvofiq, u yerda ikki-uch stol qo'yiladi. Agar deraza tokchalari past bo'lsa, ularga taxtalar mustahkamlanadi, bolalar shug'ullanma-yotgan paytda ularni tushirib qo'yish mumkin. Rasm solish, narsalar yasash, applikatsiyalar uchun mo'ljallangan buyumlar yaqin turgan javonning ochiq tokchalarida, stollarda turishi kerak. Kichik guruhda bolalarga erkin foydalanishlari uchun faqat rangli qalamlar beriladi. Katta guruh bolalariga (ayrim cheklanishlar bilan) barcha materiallar berilishi mumkin: Loy o'miga plastilin tavsiya qilinadi. Bolalar o'z rasmlarini

«Xalq ertaklari», «Odamlar mehnati», «Manzarali naqshlar», «Tabiat haqida» va shu kabi mavzulik papkalarga joylashtiradilar. Tasviriy faoliyat «zonasida» bolalar o'z ishlarida ijodiy foydalanadigan tabiiy materiallar solingan quti va ko'rgazmali qurollar bo'lishi kerak.

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikasiya — bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofnı obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarnı har tom onlam a tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarnı ongli tom ondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarnı kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo'lib, uning shaklinı o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy boglanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarnı sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarnı axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bolayotgan voqea-hodisalarnı aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari — boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarnı yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi.

Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlarnı tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarnı o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bulish kabi axloqiy sifatlarnı tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarnı o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada.

Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo‘laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi — bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog‘liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo‘ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba’zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o‘rganadilar. Ularda tasviriy san’at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg‘uni, munosabatni tarbiyalaydi.

Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy-ijodiy o‘stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o‘sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki is tirohat bog‘iga sayr, ko‘z faslida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda paydo bo‘luvchi estetik his-tuyg‘u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to‘g‘ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o‘z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko‘rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo‘ladi. Ularni o‘quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko‘rsatmalarini bajarishga o‘rgatadi. Oldiga qo‘yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo‘llarini izlab topish bu o‘quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o‘z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o‘ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixo logik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug‘ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishga asos bo‘ladi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari boshqa ta’lim-tarbiyaviy ish bo‘limlarining vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Mashg‘ulot o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilim lariga ham tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqida tasavvurga ega bo‘lsalar, rasm, loy, applikasiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlari bolalar o‘yini bilan ham bog‘liq bo‘ladi. O‘yin bola hayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi turli xil — mazmunli-rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli o‘yinlar o‘tkaziladi. Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli

bo'ladi va emotsional holatni uyg'otadi, bu esa bolalar ishlarining sifatiga yaxshi ta'sir etadi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil, quvnoq muhit yaratadi. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyatida ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalar e'tiborini qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guaih bolalarida zavq uyg'otadi, o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha bor o'tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur. Bolaning hayotida mazmunli-rolli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli-rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatga qiziqishini, baja rayotgan ishining sifatini yaxshilaydi. O'yinning borishi: o'yin obrazlarning tasviri, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib yopishtirish ishlaridan ko'ra, bolalar uchun qiziqarlidir. Bolaning kechinmalariga o'yin bo'yoq beradi. Bola o'z o'yinli rasmlarining to'la va yorqin ifodalanishiga intiladi. Tarbiyachi esa bolaga bunda yordam berishi kerak. Rasm, loy, qirqib yopishtirish bilan dramalashtirib, o'yinlarini uyg'unlashtirib olib borish, bolalarni har tomonlama rivojlantirishdek vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Dramalashtirish o'yinlari uchun ko'pgina narsalarni bolalarning o'zlari yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismlari, kostyum detallari, maskalar. Tarbiyachining rasm, qirqib yopishtirish mashg'ulotida bolalarga o'ynagan o'yinlarining tasviriy topshirigini berish, ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishini uyg'otadi. Tasviriy faoliyatning dramalashtirish o'yini bilan birlashtirib olib borish o'rta guruhdan boshlanadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarida bolalarga qahramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi. O'ynagan harakatli o'yinlarining tasviriy taklifi bolalarda zavq uyg'otadi. Bu o'yinlarning mazmunini faqatgina rasmda emas, balki qirqib yopishtirish bilan ham oson tasvirlash mumkin. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar predmetning belgilari, rangi, shakli, tuzilishi ni, kattaligini va boshqalar haqidagi bilimlarini mustahkamlab boradilar, xilma-xil sensor tajribaga ega boladilar, tevarak-atrof haqidagi tasavurlari boyiydi. Didaktik o'yinlarning o'zi ham tasviriy nutqning mazmunini bo'la oladi.

Bolalar qiziqish bilan didaktik materialni tayyorlaydilar. Tasviriy faoliyat bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish, musiqa mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ladi. Tabiat ham ma'vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning rasmlari tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash uchun yordam beradi, bundan tashqari, bolalarda o'sha kasbga

nisbatan estetik his-tuyg'ularni uyg'otadi, bu esa hayotlarini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ish bilan o'zaro bog'liqligi juda muhimdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga ertak, hikoya o'qib berishadi, she'rlar yod oldiradilar. Bolalarda bu ishlar davomida obrazli tasavur shakllanadi va ular ertak va she'rdagi obrazlarni o'zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munosabatlarini bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qo'l keladi, bu mashg'ulotlar davomida bundan tashqari nutq boyligini o'stiriladi, u obrazli ifodalar boyitib boriladi.

Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog'iqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshdagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berish taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg'otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o'stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san'at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko'nikmalarni egallab oladilar, san'at go'zalligini, boyligini ko'ra bilishga o'rganadilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish bolalar hayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi. Yana bir muhim tomon shundaki, o'yinlarda, zal va guruh xonalarini bezashda bolalarning ishlari kerak, ya'ni bolalarning ishlari ularning hayotida kattagina o'rin egallashi kerak.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda, rejim asosida uyushtiriladi. Kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo'lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun bir guruh bilan uyushtiriladi. Kichik guruhda mashg'ulotlar yilning birinchi yarmida 5—7 daqiqadan asta-sekin 10—15 daqiqagacha cho'zib boriladi. Kichik guruhda 15—20 daqiqagacha, o'rta guruhda 20—25 daqiqagacha, katta tayyorlov guruhda 30—35 daqiqagacha bo'ladi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining muvaffaqiyatli uyushtirish, unga zarur boigan materiallarni o'z vaqtida tayyorlashga ham bog'liqdir. Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iboratdir:

a) tarbiyachi rasm va applikatsiya mashg'uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog'oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko'ra). Qog'oz varag'iga oldindan orqa tomoniga bolalarning ismi, familiyasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sana yozib qo'yiladi. Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo'yadi (albatta, 4—5 qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo'yiladi);

b) katta tayyorlov guruhlarida bolalar qo‘proq akvarel bo‘yog‘ini ishlatadilar. Oldindan bo‘yoqlar ho‘llangan bo‘lishi lozim. Mo‘yqalamlar yaxshilab yuviladi;

d) mashg‘ulot uchun lattalar, bankachalarni tayyorlash zarur. Suv bankalarga mashg‘ulot boshlanish arafasida quyiladi;

e) applikatsiya uchun rangli qog‘oz yig‘masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).

f) kleyster (undan tayyorlanadi);

g) loy haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plenkalarda saqlanadi. Tarbiyachi har bir bolaga loy parchasini qo‘yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlar uchun ko‘rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho‘l yoki nam lattalar berilishi kerak;

h) plastilin ham rangi bo‘yicha tayyorlanib, rangdor mayda detallarni yasash jarayonida beriladi. Ko‘proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo‘yitadi;

i) maktabgacha ta iim muassasasida ko‘rgazmali materiallar ham boiishi lozim. Masalan, predmetlar, o‘yinchoqlar, illustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san’at namunalari;

j) har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko‘rgazmalar boiishi kerak. Mashg‘ulot uchun zarur boigan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi kerak, navbatchilar bunda ularni mashg‘ulot uchun tayyorlay olishlari lozim;

k) o‘rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg‘ulotga tayyorlanib, jarayonga, ya’ni navbatchilikka jalb qilinadi. Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchilar vazifalari tarbiyachi tom onidan rejalashtiriladi. Kichik guruhda: tarbiyachi guruhda bolalarni mashg‘ulotdan keyin o‘z joyini tartibga solishga, ya’ni qolgan loyni, mo‘yqalamni, salftkani, qalamni tarbiyachiga berishga o‘rganadilar. Kichik guruhda: yilning boshida tarbiyachining o‘zi materiallarni tayyorlaydi, so‘ng alohida bolalarni materiallar tayyorlashga jalb etadi. Bu navbatchilik emas, balki ba’zi bolalar uchun topshiriqlar berish hisoblanadi (yil davomida tarbiyachi ham ma bolalarni mehnat topshiriqlarini bajarishga jalb etishi lozim). Mashg‘ulotdan so‘ng bolalar, har biri o‘z stollaridagi narsalarni oldin umumiy stolga olib kelishga o‘rganadilar, so‘ng tarbiyachi o‘z yordamchilari bilan mo‘yqalamlarni yuvadi, salftkalami yig‘ib oladi.

O‘rta guruhda ham yilning boshida xuddi kichik guruh kabi topshiriqlar beriladi. Yilning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni navbatchilikka jalb etadi. Ular bankalarga suv quyadilar, bo‘yoqlarni qo‘yib chiqadilar va boshqalar. Mashg‘ulotdan so‘ng bo‘yoqlarni joyiga olib borib, suv va mo‘yqalamlarni yuvib, joyiga qo‘yadilar. Katta guruhdagi navbatchilar stol va stullarning qay tarzda

tuqirishini nazorat qilib, mashg'ulotdan so'ng stollar ustini artib chiqadilar, ular loy, bo'yoqni, mo'yqalamlarni stol ustiga qo'yib chiqadilar. Yelim ham qo'yib chiqadilar. Taxtachalarni yig'ib, bankachalarni yuvib, joyiga qo'yadilar, qaychilarni tarqatib, mashg'ulotdan so'ng yig'ib chiqadilar.

Tayyorlov guruhida navbatchilikka katta mustaqillik beriladi. Tarbiyachi bolalarga, navbatchilarga mashg'ulot uchun nimalar kerak bo'lishini aytadi, navbatchilar ularni tayyorlaydi. Tarbiyachi kuzatadi.

Ijobiy natijalarga erishish ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bogiiqdir. Mashg'ulotlarga kirishda, eng avvalo, gigiyenik sharoitlarga rioya qilishga e'tibor berish kerak: mashg'ulot o'tkaziladigan xona yaxshi shamollatilgan boiishi lozim; me'yoriy yoritilgan va yorug'lik chap tom ondan tushib turgan boiishi kerak; jihozlar, asbob-uskuna va materiallar ham da ulami joylashtirish pedagogik, gigiyenik va estetik talablarga javob berishi kerak. Mashg'ulotlarning davomiyligi belgilangan me'yorlarga muvofiq kelishi kerak, vaqtdan esa to'liq foydalanish lozim. Mashg'ulotning boshlanishi, bolalar e'tiborini uyushtirilishi, bolalar oldiga ta'lim yoki ijodiy vazifalarning qo'yilishi, uni bajarish usullarining tushuntirilishi katta ahamiyatga egadir. Tarbiyachining ishi kuzatilar ekan, uning bolalar bilan aloqasini, ularning muvaffaqiyatlariga qiziqish bildirilayotganligini, ularga xayrixohlik va muhlik bilan munosabatda bo'linayotganligini, bolalar oldiga o'quv-ijodiy topshiriqning qo'yilishini e'tiborga olish muhimdir. Ayniqsa, tarbiyachining nutqiga (savodli, tushunarli, emotsional ta'sirli qilib gapira oladimi) alohida e'tibor berish kerak. Tarbiyachi harakat usullarini tushuntirishi, ko'rsatishlar vaqtida bolalarni faollashtirishi, ularni aytayotgan gaplarni anglashga, eslab qolishga undashi muhimdir. Bolalarga u yoki bu holatni takrorlashlariga, aytishlariga (masalan, masalani hal qilish, o'yinchoqni qanday yasash) imkon berish kerak. Tushuntirishlar 3—5 daqiqadan ortiq vaqtni olmasligi kerak. Pedagog mashg'ulot davomida bolalarning individual xususiyatlarini nazarda tutib, bolalarni ishda faol qatnashishga jalb qiladi, ularda o'quv faoliyati malakalarini tarkib toptiradi, o'z harakatlarini baholash va nazorat qilish qobiliyatlarini o'stiradi. O'quv vaziyatidan bolalarda o'rtoqlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, chidam, maqsadga intilganlikni rivojlantirishdan foydalaniladi.

Mudira e'tibor beradigan asosiy ob'yekt, bu bolalar hamda bo'ladigan mashg'ulotning boshlanishi va davomiyligi xatti-harakatlaridir. U bolalarning mashg'ulotlarda xatti-harakat qoidalarini bajarayotgan yoki bajarmayotganliklarini kuzatadi. Mashg'ulotlarda bolalar to'g'ri o'tirishlari, chalg'iyvermasliklari, tarbiyachi va o'rtoqlarining gaplariga diqqat bilan quloq solishlari, faqat tarbiyachi so'ragandagina javob berishlari kerak; javob berayotganda o'rinlaridan turishlari, agar kerak bo'lsa, stol yoniga kelishlari lozim; rasm bo'yicha gapirganda ko'rsatkichdan foydalanishlari lozim. Kattaroq bolalar o'z ish joylarini darhol

tayyorlay olishlari, kerakli materialni (bo‘yoq, suv, plastilin va shu kabilarni) olib kelishlari, zarur mavzuda ishlay olishlari kerak.

Mashg‘ulot davomida asosiy e‘tibor dastur materialining bolalar tom onidan o‘zlashtirilishiga, bolalar bilimining sifatiga, nutq, qo‘l va harakat ko‘nikmasi hamda malakalarining rivojlanganlik darajasiga qaratilishi lozim. Mashg‘ulot kuzatilar ekan, ayrim bolalar qanday ishlayotganligini qayd etish, ayrim topshiriqlarni bajarish vaqtida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlash muhimdir. Mudira dalillarni qayd etadi, keyin shular asosida bolalar tomonidan bilimlarning egallanishi, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi haqida xulosalar chiqaradi. Shuningdek, maktabgacha ta‘lim tashkilotining mudiralari (bir guruhda turli yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan) yoshga qarab guaihchalarga bo‘lish qanday tashkil etilganligi (kichik va katta guruhchalar qayerda va qanday joylashtirilganligi, gum hchalar ishini qanday boshlaganliklari — bir vaqtda boshlagan yoki boshlamaganligi, qaysi guruhcha oldinroq shug‘ullana boshlaganligi) va har qaysi yoshga ko‘ra bo‘lingan guruhchalar uchun mashg‘ulotning davomiyligi, mashg‘ulot yakunida kichik bolalar nima bilan mashg‘ul bo‘lishgan hamda katta bolalar ishda davom etib turishganda ular o‘zlarini qanday tutishgani, tarbiyachi barcha bolalarning faol faoliyatlarini qanday usullar bilan ta‘minlagani, u o‘z diqqatini bolalarning ikki-uch guruhchasiga taqsimlay olgan yoki olmaganligi, har bir bola faoliyatini nazardan qochirgan-qochirmaganligi, bolalarda e‘tiborning to‘planganligi va mustaqillikning tarbiyalangan-tarbiyalanmaganligi haqida qo‘shimcha tarzda tushuntirishi kerak.

Mudira qanchalik ko‘p narsani ko‘ra olsa va eslab qola olsa, u mashg‘ulotning ijobiy tomonlari va nuqsonlarini shunchalik cliuqur tahlil qila oladi, u chiqaradigan xulosalar shunchalik islionclili bo‘ladi. Kuzatishlar vaqtida yozib borish kerakmi va u qaysi sxemada bo‘lishi kerak? Yozuvlar ko‘rilganlarni, kuzatilayotgan narsalar haqida o‘z fikrini, ijobiy yoki salbiy dalillarni qayd etish uchun zarur□dir. Mashg‘ulotlami tahlil qilishda xulosalarni isbotlashga asoslashga yordam beradi. Qanday yozish kerakligi haqidagi masala prinsipial masala emas: har kim o‘ziga qanday qulay bo‘lsa, shunday yozaverishi mumkin.

Kuzatish va dalillarni to‘plash ishning birinchi yarmi bo‘lsa, ikkinchisi dalillarni tahlil qilish va pedagogik jarayonning yu tuqlari va kamchiliklari haqida asosli xulosalar chiqarishdan iborat. Amalda esa quyidagi kabi holatlar uchraydi: mudira tarbiyachining ishini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi, ammo ularni aniq dalillar, ishonarli misollar bilan tasdiqlamaydi. Bun day hollarda xulosalar tasodifiy, sub’yektiv tuyulishi mumkin. Boshqacha ham bo‘ladi: mudiri mashg‘ulotni diqqat bilan kuzatgan, ko‘pgina dalillarni yozgan va eslab qolgan, ammo bu dalillarni tahlil qilmagan, ularni umumlashtirmagan, shuning uchun chiqarilgan xulosa va tarbiyachiga berilgan tavsiyalar bunday vaqtda retseptiv xarakterda bo‘lib qoladi. Demak, mudira o‘zida kuzatish, dalillarni ko‘rish,

shuningdek, ularni tahlil qilish, umumlashtirish ko'nikmasini tarkib toptirish kerak. Mashg'ulotlarni tahlil qilish uchun:

- 1) mashg'ulotning tashkil etilishini;
- 2) dastur mazmunini;
- 3) mashg'ulotni o'tkazish metodikasini;
- 4) uning natijalarini (ya'ni tekshirish vaqtida bolalardagi bilim, ko'nikma, malaka ham da ularning xatti-harakatlarini) ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

O'rgatish metodlari – pedagogikada qabul qilingan ta'rifga ko'ra qo'yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo'l sifatida ta'riflanadi. U mashg'ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini o'rgatish usullari – ayrim yordamchi vosita bo'lib, mashg'ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta'limda tor ma'nodagi ahamiyatga ega.

Ayrim metodlar mashg'ulot ishining umumiy yo'nalishini aniqlamay, balki usul sifatida namoyon bo'ladi. Masalan: mashg'ulot boshida she'r (hikoya) o'qish beriladigan vazifaga bolalarning qiziqishini uyg'otish uchun o'qilsa, boshqa mashg'ulotlarda esa she'r o'qish tarbiyachi uchun xizmat qiladi, ya'ni mashg'ulot boshini tashkil qilish uchun qo'llaniladi.

Yu.B.Babanskiy tasviriy san'at metodlarini faoliyatning umumiy harakteriga qarab, 3 guruhga klassifikatsiyalagan:

1-guruh: o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish. Bunga o'quvchilarning ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, induktiv va deduktiv, reproduktiv va muammoli-izlanuvchan, hamda mustaqil ishlari kiradi

2-guruh: ta'lim berishning o'quv faoliyatini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) va motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari. O'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va motivlashtirish; burch va javobgarlikni stimullashtirish motivlashtirish

3-guruh: mustaqil faoliyat. Maktabgacha ta'lim tashkilotiida bolalarning mustaqil ishlari katta o'rin egallaydi, faqat bu mustaqil ishlarga bolalarning murakkab muammoli masalalarni yechishi kirmaydi, chunki bunday murakkab masalalar uzoq vaqtni talab qiladi.

Yu.B.Babanskiy taklif qilgan bu metodlar asosan maktab ta'limiga mos bo'lib, ularning 1-guruhidagina maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda foydalaniladi, ya'ni bu: ko'rgazmali, og'zaki, amaliy metodlar, hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lish uchun qaratilgan qisman reproduktiv mashqlardir.

Qolgan metodlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun murakkablik qiladi, chunki ularning deyarli barchasi muammoli masalalarni yechish bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun o'ziga xos bo'lgan asosiy guruhni o'yin usullari tashkil etadi va bu o'yinlardan turli metodlar ichida foydalanish mumkin.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari. Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish mavzusining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki u atrof-

muhitni o'rganishda, bilish, hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shuncha bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bolalarni tasvirlashning muhim usullariga, turli tasviriy ashyolardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasvirlash usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun sodda shaklli, aniq chizmalı va aniq qismlarga ajratilgan predmet natura sifatida tanlanadi. Naturani shunday joylashtirish kerakki, hamma bolalar shu naturani ayni bir karakterli tomonidan qabul qilishlari kerak. Masalan: bolalar mashinani yon tomonidan, qo'g'irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar. Agar guruhda bolalar soni ko'p bo'lsa, barchasiga teng ko'rinishi uchun 2-3 ta bir xil predmet qo'yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda detallarga ajratib ko'rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o'z so'zlari, harakatlari bilan yo'naltiradi. Bu jarayoni ma'lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qiladi. Bunday ko'nikmalar bolalarda 5-6 yoshda rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga o'rinadilar. Masalan: katta guruhda naturadagi archa shoxlarini tasvirlayotganda, bolalar shoxni fazoda joylashtiradilar (vertikal yoki qiya holatda) va shoxdagi shoxchalarning sonini, o'lchamlarini chap va o'ng tamondan, to'q yoki och rang bilan chizadilar. Natura sifatida tirik qushlar, hayvonlardan foydalanish mumkin emas. Ularning harakatlari, tovushlari bolalarni rasm chizishdan chalg'itadi, bolalarning predmetni kerakli holatda idrok qilishlariga, diqqatlarini bir nuqtaga qaratishga xalaqit beradi.

Mashg'ulot boshida predmetlarni ko'rib chiqish. Kichik va o'rta guruhlarda ko'pincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar ko'rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko'rsatiladi. Mashg'ulotning qolgan vaqti mobaynida esa bolalar o'z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko'rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojat qilmaydilar

Katta guruhda ham predmetlarni ko'rib chiqish uchun imkon bo'ladi. Masalan: «Uch ayiq» ertagi mavzusi bo'yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o's yinchoq ayiqni ko'rib chiqishni, predmet shaklining asosiy xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini

aniqlashni, soʻng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning oʻzgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydilar

Bolalarning kuzatishlari koʻpincha qisqa muddatli boʻladi (masalan: shahar sharoitida hayvonlarni kuzatish). Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun harakterli boʻlgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmlar ana shunday sharoitlarda kerak boʻladi: kerakli predmet qoʻl ostida yoʻq paytida, yoki boʻlmasa tekislikda tasvirning ayrim usullari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi. Masalan: tarbiyachi bolalarga uzoqlashgan predmetni tushuntirish uchun rasmni koʻrsatadi. Hayotda bolalar shu uzoqdagi predmetlarni bir chiziqda joylashgan deb idrok qilsalar, rasmda tarbiyachi uzoqlashganini koʻrsatib, tushuntirib beradi, 6 yoshdan boshlab shu maqsad bilan rasmdan foydalanish mumkin. Rasmni koʻra turib, bola yerni bir chiziq bilan emas, balki keng yer boʻlagi bilan chizishni, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari pastroqda va qogʻoz chetiga joylashishini tushunib yetadi. Rasm mashgʻulot davomida bolalar oldida qoldirilsa, bolalar tushunib yetmay nusʻha koʻchirishga oʻrganib qoladilar. Bu yoshda esa bolalar nusʻha koʻchirish bilan emas, balki ijod bilan rasm chizishlari kerak. Baʼzida mashgʻulot davomida bolalarga ayrim detallarni aniqlab olish uchun rasmni koʻrsatish kerak boʻladi. Keyin esa rasm olib qoʻyiladi, chunki bolalar nusʻha koʻchira boshlaydilar. **Ogʻzaki metod va oʻrgatish usullari.** Tasviriy faoliyatda mashgʻulot doim tarbiyachining bolalar bilan suhbatidan boshlanadi. Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga olish va mashgʻulotga boʻlgan qiziqishini uygʻotishdir. Bolalar oʻz tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashgʻulotlarida suhbatning roli kattadir.

Suhbat qisqa, mazmunli va his-hayajonli boʻlishi kerak. Tarbiyachi asosiy diqqatini mashgʻulotda qilinadigan ishga qaratadi. Bolalarning mavzu boʻyicha yoki yangi tasviriy usullari haqidagi tasavvurlarini aniqlab olishdan avval, suhbat mobaynida yoki suhbatdan keyin tarbiyachi kerakli predmet yoki rasmni koʻrsatadi. Topshiriqni boshlashdan avval esa, ish usulini bolalarga koʻrsatadi. Suhbat oʻrgatish metodi sifatida 4-7 yoshli bolalar bilan ishlashda asosiy rol oʻynaydi. Kichik guruhlarda suhbat bolalar tasvirlashlari kerak boʻlgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini oʻrgatish uchun kerak boʻladi. Bunday hollarda suhbat tasvirlashning maqsadini va vazifalarini bolalarga yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Bolalarning tasavvurlari va hissiyotlari tez jonlanib, ijodiy kayfiyatlarini tez yoʻqolib qolmasligi uchun suhbat metod sifatida ham, usul sifatida ham qisqa va 3-5 minutdan oshmasligi kerak. Yaxshi uyushtirilgan suhbat mashgʻulotda maqsadga yaxshi erishish uchun qulay sharoit yaratadi.

Badiiy adabiyotning obrazlaridan foydalanish. Badiiy obrazni oʻziga mujassamlashtirgan nutq oʻziga yarasha koʻrgazmalikka egadir. Masalan: sheʼr, hikoya, topishmoq va hokazo. Ifodali oʻqilgan badiiy asar ijodiy kayfiyatning oshishiga, tafakkurning, hayolning faol ishlashiga yordam beradi. Shu maqsad

bilan badiiy soʻzdan faqatgina ifodali oʻqish mashgʻulotlarida emas, balki predmetlarni idrok qilgandan soʻng tasviriy jarayonlarida ham foydalaniladi.

Barcha yosh guruhlarda mashgʻulotlarni maqsadga yoʻnaltirilgan holda topishmoq aytishdan boshlash mumkin. Masalan: «Boshi taroq, dumi oʻroq». Bu topishmoq orqali xoʻrozning boshqa qushlardan chiroyli tojisi, dumini betakrorligi kabi detal shakllari ajratiladi. Baʼzida kichik sheʼrlarni yoki asarlardan parcha oʻqish ham mumkin. Agar kerak boʻlsa, asarni oʻqish bilan birga ogʻzaki obrazga qoʻshib natura yoki predmetning tasviri bolalarga koʻrsatiladi.

Rasm chizish, loydan buyum yasash mashgʻulotlarida badiiy asar oʻqish har doim ham qoʻl kelavermaydi, uni boshqa oʻrgatish usuli bilan almashtirgan maʼqul. Chunki bola ogʻzaki soʻzni eshitgandan koʻra naturani koʻrganida koʻproq jonlanadi. Tarbiyachi badiiy obrazni tanlayotganida juda ham ehtiyotkorlik bilan tanlashi lozim. Negaki, toʻgʻri tanlangan asar predmetni, qiyofalarni koʻrish idrokini oʻz ichiga oladi (rangini, shaklini, holatini). Maslan: «Boʻgʻirsoq» ertagi orqali boʻgʻirsoqning obrazi, «Oltin baliq» ertagi orqali esa baliq obrazi yanada yorqinroq tasvirlanadi.

Mashgʻulot davomida tarbiyachining koʻrsatmalari va tushunchalari

Tarbiyachining koʻrsatmalari barcha koʻrgazmali usullarni oʻz ichiga oladi, hamda oʻzi mustaqil oʻrgatish usuli sifatida xizmat qiladi. Bu bolalarning yoshi va topishmoqlariga bogʻliqdir. Kichik yoshdagi bogʻcha bolalari uchun ogʻzaki koʻrsatmalar kamdan-kam beriladi. Bolalarning tasvirlash malakalari yetarli boʻlmay, sezgi analizatorining ishtirokisiz tarbiyachining koʻrsatmasini tushunmaydilar (koʻrish, eshitish, qoʻl, tam bilish sezgilari). Agarda bolalar mustahkam koʻnikmaga ega boʻlsalar, tarbiyachi koʻrgazmali koʻrsatmasiz tushuntirishi mumkin. 5-6 yoshli bolalar uchun bir soʻzning oʻzi xotiradagi chizish usuli haqidagi tasavvurni eslashga yordam beradi. Tarbiyachining koʻrsatmalari butun guruh bolalariga va alohida bolalarga qaratilgan boʻlishi mumkin. Butun guruh uchun beriladigan koʻrsatmalar mashgʻulotning boshida beriladi. Ular qisqa, loʻnda, tushunarli boʻlishi kerak. Oʻrta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar topshiriqlarini qanday oʻzlashtirganliklarini bilish uchun biror boladan topshiriqning ketma-ketligini va qaysi usullardan foydalanib bajarish kerakligini soʻraydi. Bunday qayta soʻrash yaxshi tushinishlariga yordam beradi.

Kichik guruhda tushintirib, koʻrsatgandan soʻng, tarbiyachi yana ishni nimadan boshlash kerakligini qayta esga soladi. Katta guruhda esa bolalarga: nimani chizishini yoki yasashini, asosiysi nimadan iborat, predmetlarni qanday joylashtirish kerakligi haqida oʻylashni taklif qiladi. Bolalar ishga kirishgandan soʻng, tarbiyachi har bir bolaga koʻrsatma berishga kirishmasdan, balki ishga kirisha olmayotgan bolalarga nima tushunarli boʻlmaganini soʻrashi lozim, bunday bolalarga qaytadan vazifa tushintiriladi va koʻrsatma beriladi. Hamma bolalarga

ham ko'rsatma berish zarur emas. Ko'rsatma ikkilanuvchan, uyalchang, o'ziga ishonmaydigan bolalarga kerakdir. Yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tarbiyachi har doim ham oldindan aytib berishi kerak emas. Tarbiyachining ba'zi bir bolalarni berilgan topshiriqni o'zi mustaqil bajarishiga ko'zi yetsa, u holda tarbiyachi ko'rsatma berishdan bosh tortishi ham mumkin. Asosiysi, tasviriy faoliyatda bola qiyinchilikka duch kelib, uni bartaraf etishga yo'l topa olishi kerak. Ko'rsatma shakllari hamma bolalar uchun har xil bo'lishi kerak. Ayrim bolalarga maqtoqli ton bilan ko'rsatma berilsa, o'ziga ishongan bolalarga esa ko'prok talab qo'yiladi. Tarbiyachining ko'rsatmalari to'g'ridan-to'g'ri, buyruq shaklida bo'lishi kerak emas. U bolani o'ylashga, fikrlashga undashi kerak. Bola qilgan xatoni ko'rsatish bilan birga, tasvirning ma'nosi o'zgarayotganiga diqqatni qaratish lozim. Masalan: «Qizchaning ko'ylagi huddi g'ijimga o'xshaydi» (yaxshi bo'yalmagan), «Daraxtlar yiqilib ketayotganga o'xshaydi» (yaxshi joylashtirilmagan), «Bu odam biram katta, ammo uyga kira olmayapti» (rasmdagi proporsional holat). Shu bilan birga xatoni qanday qilib to'g'rilash kerakligini aytib bermaslik lozim. Bolaning o'zi fikr yuritsin. Ko'rsatma yoqimli tovush bilan berilishi bolalarning qiziqishini orttiradi. Yakka tartibdagi ko'rsatmalar boshqa bolalarning diqqatini jalb qilmasligi uchun pastroq tovushda, yakka holda beriladi. Mashg'ulot davomida qachon ko'rsatma beriladi? Qachonki, ko'pchilik bolalar xatoga yo'l qo'ysalar va tarbiyachi barcha bolalarning diqqatini o'ziga jalb qiladi va qaytadan tushuntiradi. Bunday mashg'ulot davomida beriladigan ko'rsatmalarni kamroq berish kerak, negaki u ijodiy faoliyatini buzadi.

O'yinli o'rgatish usullari. Tasviriy faoliyatda o'yinlardan foydalanish ko'rgazmali-amaliy o'rgatish usuliga kiradi. Bola qancha kichik bo'lsa o'yin uning tarbiyasida shuncha katta o'rin tutadi. O'yin usullari qo'yilgan masalaga nisbatan bolalarning ishini diqqatini yaxshi jalb qiladi va hayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. O'yin usullari kichik guruh uchun birinchi marta Ye.A.Flerina tamonidan tashkil qilingan, keyinchalik A.A.Volkova, T.G.Kazakova tamonidan davom ettirilib, kichik bog'cha bolalari uchun har bir mashg'ulotni o'yin obrazi bilan bolaga singdirish maqsadida katta bir tizim ishlab chiqildi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o'rgatish, hamda qo'l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo'llari bilan havoda, so'ng qog'ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: «Bolakay yo'lda chopib ketyapti», «Buvijon» va hokazo, degan iboralar bilan tushuncha hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuvi bola tamonidan chiziqlarni va sodda shakllarni tasvirlash malakasiga ega bo'lishni ancha tezlashtiradi.

Kichik guruhda predmetlarni tasvirlashda ham o'yin usullaridan foydalaniladi. Masalan: mehmonga qog'irchoq keladi va bolalar unga nozu-

ne'matlar yasaydilar, non, pirog, pechene va hokazo. Bunday ish mobaynida bolalar sharni yassilashga urinadila

O'rta guruhda bolalar ayiqni yumshoq o'yinchog'iga qarab chizishlari kerak. Shunda qiziqarli o'yin o'tkazish uchun, ayiqcha eshikni taqillatadi, so'ng bolalar bilan salomlashib, bolalardan uning rasmini chizib berishlarini iltimos qiladi. Mashg'ulot yakunida u rasmlarni baholashda qatnashadi va yaxshi rasmlarni o'zi tanlaydi.

6 yoshli bolalar bilan tasviriy faoliyat davomida kichik guruhga qaraganda o'yinlar ancha kamayadi. Masalan: sayrda bolalar o'zlarining fotoapparatlari bilan atrofni rasmga oladilar: daraxtlar, qushlar, hayvonlar va hokazo. Guruhga kelib, o'zlari olgan «rasmlarni namoyon qiladilar va rasmlarni chiqaradilar», ya'ni ko'rganlarini qog'ozga tushuradilar. Tarbiyachi o'yindan foydalanganida butun mashg'ulotni o'yinga aylantirib yubormasligi kerak. Chunki bu bolalarning diqqatini topshiriqni bajarishdan tortib, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish tizimini buzad

Amaliy metodlar. Tasviriy san'atga o'rgatish mobaynida bolalar turli materiallardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Rasm chizish, loydan buyum yasash, applikasiya turli metodlardan, hamda o'rgatish usullaridan foydalanishni talab qiladi, shu jumladan bolalarda ko'nikma malakalarni hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanish talab qiladi. Amaliy metodlardan asosiysi bo'lmish, texnik va ba'zan tasvirlash malakalarini o'rgatadigan mashqlardir.

Kichik guruhda bu mashqlar bolalar uchun sezilarli emas, yumaloq shaklli predmetlarni yasashni o'rganib, bolalar koptokni, olmani, apelsinni va shu kabi predmetlarni yasaydilar. Yo'llarni, yomg'irlarni chizib, ular gorizonta va vertikal chiziqlarni chizishni mashq qiladilar.

Katta guruhdagi bolalar oldida esa, to'g'ridan to'g'ri ma'lum bir topshiriq qo'yiladi, chiroyli va to'g'ri shtrix bilan chizishga o'rganish. Shtrixlab chizishni ko'rsatib bergandan so'ng, bolalarga murakkab bo'lmagan predmet konturini (Masalan: uy, qo'ziqorin, olma) chizib olib, uni ozoda qilib bo'yamaslik rasmni xunuk qilib qo'yishini biladilar va sidqidildan mashq qiladilar. Mashqlardan tasvirlash harakterga ega bo'lgan topshiriqlarni tushinish uchun foydalaniladi. Masalan: tarbiyachi bir chiziq bilan inson boshining yonmacha qiyofasini chizishni ko'rsatib berganidan so'ng, bolalar bir necha marta odam boshining rasmini qayta-qayta chizadilar.

Evristik metod. Evristik metod grek so'zidan kelib chiqqan holda, «Evristika» haqiqatni topish san'atidir. Bu metod topqirlikni, faollikni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachining vazifasi bolalarda tasvirlash faoliyatini shunday tashkil qilishi kerak-ki, u faol va ijodiy bo'lsin. Har bir

mashgʻulot faqatgina didaktik vazifasini emas, yaʼni maʼlum bir predmetni tasvirlashni oʻrgatish emas, balki boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Shu maqsad bilan tarbiyachi turli xil usullardan foydalanishi mumkin: maslahat, maqtoʻv, topshiriqni bajarish usulini koʻrsatmasi (toʻliq boʻlmagan), oʻyinchoq koʻrsatmasi, eslatma va shu kabilar. Bolani shunday holatga qoʻyish kerakki, u oʻylagan oʻyini bajarishi uchun oʻzi yoʻl topsin. Shunday qilib u yoki bu metod va usullarni tanlash quyidagilarga bogʻliqdir:

- mashgʻulot mazmuniga va mashgʻulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;
- bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga;
- bolalar foydalanadigan tasviriy materiallariga bogʻliq,

Atrof-olam haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash maqsadida mashgʻulotlarda, asosan ogʻzaki metodlar qoʻllaniladi: suhbatlar, bolalarning koʻrganlarini xotiradan qayta eslash uchun yordam beradigan savollar.

Tasviriy faoliyatning turli koʻrinishlarida oʻrgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Masalan, mazmunli mavzularda kompozitsiyaga oʻrgatish vazifasini rasmlarga qarab tushuntiriladi, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari esa pastroqda chiziladi. Bu masala loydan buyum yasaganda shakllarni ularning holatiga qarab joylashtiriladi; yonma-yon yoki ketma-ket va xokazo. Bu yerda alohida tushuncha yoki koʻrsatma berish shart emas. Har bir usuldan oʻylab, mashgʻulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, dasturda berilgan mashgʻulotning mazmuniga nisbatan va asosan ushbu guruh bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak.

Mashgʻulotda alohida metod va usullar koʻrgazmali va ogʻzakilari-oʻzaro qoʻshiladi, mujassamlashtiriladi va bir-biriga umumiy taʼlim jarayonida bogʻlanadi. Koʻrgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy hissiy asosini yangilaydi, soʻz esa toʻgʻri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarni va tasvirlanayotganlarini umumlashtirishni shakllanishiga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi haqida tushuncha bering
2. “Til va nutq” markazida qanday mashgʻulotlar tashkil etiladi? Qanday resurs taʼminoti mavjud?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish nutqiy faoliyatini qanday loyihalashtirish usullarini ayta olasiz?.
4. Mashgʻulotdan tashqi vaqtlarda tasviriy faoliyat qanday tashkil etiladi?.

5. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirishning maqsadlarini tushuntiring.
6. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirishning qanday vazifalari bor?
7. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlarini ko'rsating.
8. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish usullari qanday?

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.
2. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.: 2022-y, 2-nashr
4. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk agentligi".-T.:2020-yil. (elektron darslik).
5. F.R.Qodirova "Nutq o'stirish metodikasi" O'UM T.; 2012 y (elektron)
6. Xujayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" Cho'lpon nashriyoti Toshkent 2011 y

Axborot manbalari

15. www. tdpu.uz
16. www. pedagog.uz
17. www. Ziyonet.Uz
18. www. edu.Uz

6-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari. Pedagogik texnologialarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiytlari.

Reja:

1. MTTning turli yosh guruhlarida jismoniy harakatlarni loyihalashtirish.
2. Mashg'ulotlar orasida chalg'ituvchi jismoniy harakatlarni rejalashtirish.
3. Pedagogik texnologialarning o'ziga xos xususiytlari.
4. Ta'lim jarayonida testlardan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: chiniqish, jismoniy daqiqalar, maydonchalar, sog'lomlashtirish vazifalari, ertalabki badantarbiya, quyosh, suv,

havo vannalari, texnologiya, pedagogik hamkorlik, rivojlanish bosqichlari, ta'lim texnologiyalari, noana'naviy mashg'ulot shakllari

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bolalarni jismoniy mashqlarga muntazam o'rgatishning asosiy shaklidir. Mashg'ulotlarning ahamiyati harakatlar madaniyatini mujassam shakllanishi, sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni muntazam amalga oshirishdan iboratdir.

Mashg'ulotlar xushchaqchaq, intizomli, atrof-muhitda yaxshi harakat qila oladigan, belgilangan vazifaga muvofiq tez va ishonch bilan, maqsadga yo'nalgan holda faoliyat ko'rsata oladigan, shuningdek, axloqiy sifatlar va ijodiylik namoyon eta oladigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jismoniy mashg'ulotlar kuzda, qishda va bahorda binoda hamda ochiq havoda o'tkaziladi. Yoz paytida o'yinlar, mashqlar ochiq havoda, jismoniy tarbiya maydonchasida o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar tuzilishi jismoniy mashqlarning bolalar tomonidan izchil bajarilishidan iboratdir. U qo'yilgan vazifalar, nerv tizimining ish qobiliyati va bola organizmining har bir alohida yosh bosqichidagi xususiyatlari bilan belgilanadi. Mashg'ulot paytida bola organizmining dinamikasi va uning psixologiyasini nazorat qilish tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'zaro bog'liq uch qismdan iboratdir:

1. Kirish – tayyorgarlik
2. Asosiy qism.
3. Yakuniy qism.

Ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalari mashg'ulotning har bir qismi uchun baravar muhim ahamiyatga ega.

Mashg'ulotning kirish qismini mazmuni va vazifalari. Jismoniy tarbiya mashg'ulotining birinchi qismi qo'yilgan vazifalar va uning asosiy qismidagi mashqlar mazmuniga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin

Mashg'ulotning bu qismi vazifasi bolalarda unga nisbatan qiziqish va emotsional kayfiyat paydo qilishdan, diqqatning tayyorgarlik darajasini tekshirishdan, ayrim harakat ko'nikmalarini aniqlashtirishdan, bola organizmini asta-sekin mashg'ulotning asosiy qismida kechadigan birmuncha intensiv tez faoliyatga tayyorlashdan iboratdir. Shu maqsadda bolalarga to'g'ri qad-qomatni tarbiyalashga, yassi tovonlikni oldini olishga yordam beradigan, fazoda hamda jamoada mo'ljal olish bilan bog'liq, bajarilishi ko'p vaqtni talab qilmaydigan tanish mashqlar va ularning variantlarini bajarish taklif etiladi

Bunday mashqlarga quyidagilar kiradi:

- saflanish mashqlari – turlicha saflanishlar va qayta saflanishlar;
- turli topshiriqlar bilan bajariladigan yurish va yugurish;

- tarqalib yengil yugurish hamda keyinchalik katta va kichik davra, kolonna va hakoza bo`lib saflanish;
- turli ko`rinishdagi va yassitovonlikning oldini olish maqsadidagi yurishlar tovonda, oyoq uchida, poldagi qalin shnur ustida, narvonda yurish va boshqalar.

Kirish qismi bolalarning kolonnaga 3 va 4 qator bo`lib saflanishi, tarqalish bilan yakunlanadi. Bu bolalarni mashg`ulotning asosiy qismi boshlanishidagi umumrivojlantiruvchi mashqlarni o`rgatishga o`tish uchun xizmat qiladi.

Bu qism kichik guruhlarda 2-4 daqiqagacha, o`rta guruhlarda 3 dan 5 daqiqagacha, katta guruhlarda 4 dan 6 daqiqagacha, davom etadi

Mashg`ulotning bu qismida bir holatda dastlab bolalarni umumrivojlantiruvchi mashqlarga, so`ngra asosiy harakatlarga o`rgatish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash vazifalari belgilanadi; ikkinchi bir holatda asosiy harakat mashqlariga o`rgatish belgilanadi. Bu mashqlar yangi harakat materiali bilan tanishtirishni, avvaldan tanish mashqlarni turli variantlardan foydalanib takrorlashni, mustahkamlanish bosqichidagi harakat ko`nikmalarini takomillashtirishni ko`zda tutadi. Shundan so`ng barcha bolalarni intensiv harakatga tortadigan qoidali harakatli o`yinlar o`tkaziladi.

Bolalarning psixik ish qobiliyatining davomsizligini hisobga olib, murakkab vazifalar asosiy qismning boshida belgilanadi (bolalarni yangi material bilan tanishtirish yoki juda murakkab koordinatsiyali mashqlarni bajarish)

Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bolalar kichik buyumlar, bayroqchalar, tayoqchalar, chambaraklar, lentalar, shnurlar bilan bajaradilar. Chunki ular organizmning funksional holatini yaxshilashga ta`sir etadi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlarni bolalar kichik buyumlar, bayroqchalar, tayoqchalar, chambaraklar, lentalar, shnurlar bilan bajaradilar. Chunki ular organizmning funksional holatini yaxshilashga ta`sir etadi.

Dastlab to`g`ri qad-qomatni shakllantirish va nafas olishni tartibga solish maqsadida qo`l mushaklari va yelka kamari mushaklarini rivojlantirish hamda mustahkamlash mashqlari beriladi. Ikkinchi navbatda gavda uchun, orqa mushaklarni mustahkamlash va umurtqa egiluvchanligini rivojlantiruvchi (oldinga, orqaga va yon tomonlarga egilish, gavdani aylantirish) mashqlari beriladi. Uchinchi navbatda qorin va oyoq mushaklarini mustahkamlovchi (cho`qqayish, tizzadan bukilgan oyoqlarni ko`tarish...) mashqlari beriladi.

Shundan so`ng asosiy harakatlarni o`rgatishga o`tiladi. Bunda ulardan biri bolalar uchun yangi, boshqalari esa o`rganish va takomillashtirish bosqichida bo`ladi.

Mashg`ulotning umumrivojlantiruvchi mashqlarni o`rgatish bilan olib boriladigan asosiy qismi davomiyligi: kichik guruhlarda 15 dan 18 daqiqagacha;

o`rta guruhda 20 dan 22 daqiqagacha; katta guruhda 25 dan 28 daqiqagacha bo`ladi.

Umumrivojlantiruvchi mashqlarsiz o`tkazilganda esa uning davomiyligi kichik guruhlarda 8-12 daqiqa, o`rta guruhda 12-15 daqiqa, katta guruhda 15-20 daqiqani tashkil etadi.

Mashg`ulotning o`yindan so`nggi yakunlovchi qismi tobora sekinlashadigan intensiv suratdagi yurishni o`z ichiga oladi. U umumiy qo`zg`aluvchan ishga yordam beradi; yurish jarayonida bolalar bir necha nafas olish mashqlarini bajarishlari mumkin. Ba`zi hollarda yurish barcha bolalar ishtirokidagi kam harakatli o`yin bilan almashtirilishi mumkin. Yurish yoki uni almashtiruvchi o`yin so`nggida mashg`ulotga yakun yasaladi. Yakunlovchi qism: kichik guruhda 2 dan 3 daqiqagacha, o`rta va katta guruhlarda 3 dan 4 daqiqagacha bo`ladi.

Butun mashg`ulotning davomiyligi:

- kichik guruhlarda 15-20 daqiqa;
- o`rta guruhlarda 20-25 daqiqan;
- katta guruhlarda 30-35 daqiqani tashkil etadi.

Ochiq havodagi jismoniy tarbiya mashg`ulotlari. Jismoniy tarbiya mashg`ulotlarini ochiq havoda o`tkazish juda muhimdir. Ular bola organizmining funksional jihatdan shakllanishiga, chiniqishiga yordam beradi, shamollash kasalliklariga qarshiligini oshiradi.

Ochiq havodagi mashg`ulotlar hamda uch qismdan: kirish – tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi qismlardan iboratdir.

Mashg`ulotning kirish – tayyorgarlik qismi harakat texnikasini yaxshilash, oyoq mushaklarini mustahkamlash, qomatni yaxshilash maqsadida nafas olish, sekin sur`atdagi yugurish mashqlaridan iboratdir. Yugurishdan so`ng bolalar zvenoli kolonna, doira va boshqalarga saflanadilar, bu keyingi mashqlar uchun qulaydir.

Mashg`ulotning asosiy qismi qo`l, gavda va oyoq mushaklariga yaxshi yuklama beruvchi umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish uchun mo`ljallanadi. Shundan so`ng o`rtacha tezlikda yugurish o`tkaziladi. U yurish va bolalarning asosiy harakatlarni bajarish uchun qayta saflanish bilan tugallanadi. Bunda avval yoki yangi harakatlar, o`rtacha tezlikda yugurishdan so`ng esa sekin sur`atdagi yugurish bilan tugallanadigan tanish (takroriy) harakatlar beriladi. Bu qism oxirida musobaqali harakatli o`yin, estofeta o`yini yoki sport o`yini o`tkaziladi. Ular bolalarning yuqori harakat aktivligini ta`minlaydi.

Mashg`ulotning yakunlovchi qismida sekin sur`atdagi yugurishdan nafas olish mashqlarini bajargan holda yurishga o`tiladi

Jismoniy mashqlarni mashg'ulotlar uchun tanlash dastur asosida tuziladigan ish rejasi bo'yicha belgilanadi. Mashg'ulotlarni rejalashtirishda yil fasli o'tkazish sharoitini hisobga olish lozim.

Mashg'ulotlarda bolalarni uyushtirish usullari. Tarbiyachi bolalarni uyushtirishning frontal, grux, individual kabi turli usullaridan foydalanadi. Frontal usullardan foydalanilganda bolalarga barcha uchun bir xil tarzda, bir vaqtda bajariladigan mashqlar beriladi. Frontal usulni mashg'ulotning istalgan qismida, ayniqsa bolalarni yangi mashqlarga o'rgatishda yoki allaqachon tanish mashqlarni takomillashtirishda qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bu usul bolalarda harakat uyg'unligini tarbiyalashda, ularni barcha uchun barovar vazifalarni xal etishga birlashtirishda, tarbiyachining bolalar bilan bevosita aloqaga kirishishda, shuningdek mashg'ulotlarning motor zichligini oshirishda samaralidir.

Bolalar mashg'ulot detallarini o'rganish va aniqlash jarayonida navbati bilan harakat qiluvchi uncha katta bo'lmagan gruppaga bo'linishi mumkin. Bunda tarbiyachi mashqning bir yoki ikki guruhga tomonidan bajarilishini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo'ladi, qolgan bolalar esa o'z o'rtoqlari harakatlarini kuzatadilar va tarbiyachini tinglaydilar.

Bundan tashqari mashqlarni potok usulida bajarishdan ham foydalaniladi, bunda barcha bolalar aynan bir mashqni navbatma-navbat, birin-ketin, to'xtovsiz potok usulida bajaradilar. Mashqlarni keng ko'lamda takrorlash uchun ularni bajarish ikki va uch potokda tashkil etilishi mumkin. Jismoniy mashqlarni poton usulida bajarish usulini katta va tayyorlov guruh bolalariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Katta va tayyorlov guruhlarda gruppaviy usuldan foydalaniladi. U mashg'ulotda tarbiyachining bolalarni o'rgatish jarayoni va bolalarning avval orttirgan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish bilan qo'shib olib borilgan hollarda qo'llaniladi. Bunda bolalarning bir gruppasi tarbiyachi raxbarligida biror-bir xarakterga o'rgatiladi ikkinchi guruh bolalari (yoki ikkita katta bo'lmagan guruh) esa bu vaqtda boshqa mashq turini mashq qiladilar (takroriy). O'zlariga avvaldan tanish biroq turli mashqlarni (to'p o'yini, tirishib chiqish, muvozanat saqlash va boshqalar (shuningdek ijodiy topshiriqlarni bajaradigan ikki yoki uch guruh bolalar bo'lishi mumkin. Mashg'ulot jarayonida har bir bola o'ziga berilgan topshiriqlarni tarbiyachi nazorati ostida mustaqil bajarayotganida yakka yondashish usulidan foydalanish mumkin. Hamma uchun umumiy bo'lgan mashqlar detallarini aniqlashtirish maqsadida mashq tarbiyachi chaqirig'iga ko'ra yakka tarzda bajariladi. Bunday usul tarbiyachining alohida e'tiborini bolalarni yaxshi uyushtirishni barchani faol kuzatishga jalb etish va topshiriqlar bajarishning to'g'riligini tahlil qilishni, mashqlarni tarbiyachi chaqirig'iga ko'ra qayta bajarishga tayyor turishni talab etadi

Mashg'ulotda bolalar faoliyatini to'g'ri almashtirib turish umumiy zichligini ta'minlaydi. Mashg'ulotning umumiy zichligi pedagogik jihatdan o'zini oqlagan

vaqtning mashg'ulot davomiyligiga nisbati bilan belgilanadi. Bolalarning tushuntirishlar, ko'rsatmalar, og'zaki instruksiyalarni idrok etishi, tarbiyachi namoyish etgan jismoniy mashqlarni bajarish usullarini tushuntirib berishi jismoniy mashqlarni bajarishi va dam olishi pedagogik jihatdan oqlangan hisoblanadi

Kun tartibida jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish ishlari. Ertalabki gimnastika. Ertalabki gimnastika bolaning oila, yasli bolalar bog'chasidagi kundalik rejimining majburiy qismidir. Uning kattalar rahbarligida o'tkazib turilishi bolalar asta-sekin yoqimli mushak sezgisi, ijobiy emotsiyalar xushchaqchaqlik kayfiyatini o'yg'otadigan jismoniy mashqlarga nisbatan ko'nikishni tarbiyalaydi. Ertalabki gimnastikaning ahamiyati rang-barang: u organizmning hayot faoliyatini yaxshilaydi, uyqudan so'ng nerv tizimini harakatga keltiradi, bedorlikka o'tish vaqtini qisqartiradi, ijobiy hislar o'yg'otadi. Uyqudan so'ng maxsus tanlangan jismoniy mashqlardan iborat ertalabki gimnastika bolani butun organizmini asta-sekin faoliyat holatiga jalb etadi. Jismoniy mashqlarni bajarish bosh miya tizimi faolligini kuchaytiradi. Ko'rish, eshitish, tayanch harakat, teri kabi barcha retseptorlardan bosh miyaga keladigan butun impulslar oqimi nerv tizimi ish qobiliyatini va organizmining xayot faoliyatini tiklaydi. Ertalabki gimnastika to'g'ri qad-qomatni tarbiyalashga ta'sir etib, nafas olishni chuqurlashtiradi, qon aylanishini kuchaytiradi, modda almashishiga yordam beradi. Ertalabki gimnastika bolalarda diqqatni, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatining oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg'ularini uyg'otadi. Bolalarning jismoniy mashqlarni ochiq havoda yoki darcha derazalari ochiq xonada suv muolajalari (artinish, suv qo'yish, dush) bilan o'tkazishlari juda sog'lomlashtiruvchi samara beradi, nerv tizimining umumiy holati va funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi, uni mustahkamlaydi va chiniqtiradi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining muqobillashuviga yordam beradi, almashinish reaksiyalarini yaxshilaydi, shamollash va yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitet hosil qiladi, bolalarda tetiklik, yengillik, quvonch sezgilarini o'yg'otadi.

Bolalar organizmini chiniqtirish maqsadida suv harorati asta-sekin pasaytirib boriladi, bunda shifokor ko'rsatmasi asosida har bir bolaga yakka yondashishga rioya qilinadi.

Ertalabki gimnastikani o'tkazish uchun avval o'rganilgan mashqlar ichidan tanlanib, mashqlar majmuasi tuziladi.

Mashqlarni quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. yelka kamari mushaklarining rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi, yelka bo`g`imlari, ko`krak qafasi harakatchanligini rivojlantirishga, umurtqa pog`onasini rostdashga xizmat qiluvchi mashqlar;
2. orqa mushagi va umurtqa pog`onasi egiluvchanligini rivojlantirish va mustahkamlashga mo`ljallangan, ichki organlarga massaj kabi ta'sir etuvchi, oyoq bo`g`imlarini rivojlantiruvchi mashqlar;
3. qorin va oyoq mushaklarini rivojlantirishga mo`ljallangan mashqlar.

Mashqlar majmuasini tuzishda har bir yosh guruhining yosh va yakka xususiyatini hisobga olish lozim.

Ertalabki gimnastika birinchi kichik guruhdan boshlab joriy etiladi. Ertalabki gimnastikada harakatlarga o`rgatilmaydi, shuning uchun tarbiyachi mashqni oldindan tushuntirishi va namoyish qilishi kerak emas. Kichik va o`rta guruhlarda yilning birinchi yarmida tarbiyachi bolalarga mashqni o`zi bilan birga bajarishni taklif etadi.

O`rta guruhning ikkinchi yarmi va katta va tayyorlov guruhlarida u mashqlarni nomini qisqagina aytadi, dastlabki holat uchun buyruq beradi. Mashq boshlashdan oldin va u tugagach, katta guruh bolalari asosiy tik holatda (tovonlarni juftlashtirib, oyoq uchlarini kerib) turadilar. Kichik va o`rta guruhlarda bolalar oyoqlarni parallel holda biroz kerib turadilar, bu yassi tovonlikni oldini oladi. Ertalabki gimnastika so`ngidagi sur`atni sekinlatib yurish, turgan holatida oyoqlarini biroz qutarib qadam tashlash, nafas olish mashqlarini bajarish bilan tugallanadi. Bu bola yurak pulsini normal xolga keltiradi.

Jismoniy daqiqalar. Jismoniy daqiqalar (qisqa muddatli jismoniy mashqlar) o`rta, katta va tayyorlovchi guruhlarida mashg`ulotlar o`rtasidagi tanaffusda, shuningdek dars jarayonining o`zida o`tkaziladi.

Jismoniy daqiqaning ahamiyati bola faloliyati va xolatini harakat faolligi orqali almashtirishdan iborat bo`lib, u charchoqni yozadi, bolaning emotsional ijobiy holatini tiklaydi.

Agar bola mashg`ulot jarayonida nisbatan harakatsiz turib qolsa toliqish yuzaga keladi. Toliqish bir xil ish, shuningdek mashg`ulot yuklamasini buzilishi tufayli kuchayadi, bu bolalarning e`tiborini susaytiradi. Bu bosh miya po`stlog`ida rivojlanadigan tormozlanish va bolaning o`quv materialini o`zlashtirish qobiliyatining susayishi bilan izohlanadi. U chalg`iy boshlaydi, diqqat faolligi, idroki susayadi. Bu belgilarning barchasi faoliyatni o`zgartirish zarurligini ko`rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hatto 6 yoshli bolalar ham 20 daqiqagina nisbatan harakatsiz va diqqatni jamlab tura olar ekanlar; shu muddatdan so`ng ular

toliqish tufayli bilimlarni yaxshi o'zlashtirish va ko'nikmalarni egallashga qodir bo'la olmaydilar.

Jismoniy mashqlarni bajarish mushak ishini faolashtiradi, bu o'z navbatida qon aylanishini kuchaytiradi va oqibatda yurak ishining, nafas olishning intensivligini oshiradi, miyaning qon bilan ta'minlanishini faollashtiradi. Bularning hammasi birgalikda bola psixikasi emotsional – ijobiy holatning shakllanishiga, diqqatning, aqliy faoliyat va umumiy jismoniy holatning oshishiga ta'sir qiladi. Charchoq yo'qoladi, bola dam oladi va yana ishtiyoq bilan shug'ullana boshlaydi.

Jismoniy daqiqalar tarkibiga 10-15 marta sakrash, 10-12 marta cho'qqayib o'tirish yoki turgan joyida yugurish (30-40 sekund) kiradi. Jismoniy daqiqalari o'z ichiga yelka kamari va qo'llarga mo'ljallangan 2-3 ta mashq, tortilish, egilish va gavdani burish mashqlarini oladi. Jismoniy daqiqalar 2-3 daqiqa davom etadi.

Ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etish. Ertalabki badantarbiya mashqlarining sog'lomlashtiruvchi turlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarbiyalanuvchilari ertalabki badan tarbiya mashqlarini o'z ichiga oladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarining bu turlari shug'ullanuvchilarni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazish, salomatligini mustahkamlash va harakat funksiyalarini takomillashtirish maqsadida qo'llaniladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarida sport turlari. Bu guruhga sport ertalabki badantarbiya mashqlari, badiiy ertalabki badantarbiya mashqlari kiradi. Bu turlar sport yo'nalishiga ega bo'lib, sport turlari sifatida targ'ib etiladi. Bulardan maqsad, mashqlarni ijro etish texnikasida yuksak kamolotga erishish, yuksak sport mahoratini ko'rsatish, hamda har yoqlama yuksak jismoniy tayyorgarlik asosida ertalabki badantarbiyamashqlari ko'p murakkab mashqlarini bajara bilishga erishishdan iborat. Ertalabki badan tarbiya mashqlarining amaliy turlari.

Ertalabki badantarbiya - amaliy mashqlarning bir ko'rinishidir, ertalabki badantarbiya yanada tezroq va to'la ravishda bolaning sog'lig'ini tiklash uchun qo'llaniladi, yana jismoniy sifatlarni rivojlantirishda, chidamlilikda qo'llaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ertalabki badantarbiya mashqlarining asosiy shakllari.

Ertalabki badantarbiya mashg'ulotdan oldin o'tkaziladi. Uning ahamyati: organizmni chiniqish jarayoniga tayyorlash. Ertalabki badantarbiya 7-15 daqiqa davom etadi. Badantarbiya mashqlari 5-7 ta mashg'ulotlardai iborat. Eng kup og'irlik mashg'ulotlarning o'rtasida o'tkaziladi. Bolalar bog'chalari guruhlarida ertalabki mashqlar sog'lomlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Kun tartibining ajralmas qismi bo'lgan holda u har bir bola uchun majburiydir. Har kuni uyg'ongach (5-7 daqiqadan so'ng) maxsus tanlangan 7-12 jismoniy mashqlar 10-15 daqiqa davomida organizm faoliyatini faollashtiradi, tananing to'g'ri o'sishidagi ko'nikmalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, 18yassi oyoqlikdan ogohlantiradi. Ertalabki

mashqlarda ishtirok etish bolalarda foydali bo'lgan har kuni bajariladigan estalabki jismoniy mashqlarni bajarishni ta'minlaydi.

Aqliy va jismoniy mehnatning ishlab chiqaruvchanlik darajasi birmuncha pasaygan bo'ladi. Ertalabki jismoniy mashg'ulotlarning ahamiyati markaziy nerv sistemasiga kuchli analizatorlarning retseptorlarining signallari oqimi kelib tushadi, ayniksa proporsiya-retseptorlardan, bu markaziy nerv tizimining tez ko'zg'alishiga va mehnatga yarokliligi me'yorini qayta tiklaydi. Ertalabki mashqlar teri retseptorlarining sovuqqa va suv bilan bo'ladigan ta'sirlari birgalikda o'tkazilsa, nerv sistemasining qo'zg'alish jarayoni tezroq yo'lga qo'yiladi. Tashqi muhitdagi ayrim kuzatuvchilarni ta'sirlari (suv jarayonlari, toza havo va quyoshning ta'siri) nerv tizimining ko'zg'alishi bilan bir qatorda organizmning chiniqishiga yordam beradi.

Badantarbiya mashqlarning harakteristikasi. Safda turib bajariladigan mashqlar bu qiyin bo'lmagan harakatlantiruvchi mashqlardir. Umumrivojlantiruvchi mashq (ertalabki badantarbiya mashqlari xamma turlarida keng foydalaniladi. Bu unchalik qiyin bo'lmagan harakatiga keltiruvchi mashq), ya'ni har xil muskullar guruxini jismoniy layoqatini yanada chuqurlashtirish, elementlar, harakatga keltiruvchi ko'nikmani qo'lga kiritish, predmetlar bilan ishlash, umumiy jismoniy tayyorgarlikii rivojlantirish maqsadida bajariladi. Qo'shimcha mashqni va ko'nikmani atrof-muxit bilan bir-biriga aktiv ta'sir etuvchi badantarbiya vositadir. Erkin mashq bu ertalabki badantarbiya mashqlarining bir turi bo'lib chidamlilikni oshirishga rivojlantirishga yunaltirish.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishi ma'sul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini ta'minlydi, maktabgacha yoshdagi bolalar otalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida "Bolajon" tayanch dasturi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun maktabgacha ta'lim konsepsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida ishlar olib boriladi. Shuningdek maktabgacha tarbiya muassasalarida o'quv jarayonini samarali olib borishda olimlarning o'rni alohida ekanligini qayd qilish joiz Nuraddinova M.M.dotsent, K.M. Mahkamjonov professor, dotsent M.Sh.Rasulova, TDPU dotsentlari Sh.Toshpo'latova, Sh.Xasanova, G.Sharinova, p.f.n. M.Tajiyevalarning hissalarini alohida qayd etishga arziydi. ismoniy mashqlarni bajarishda ehtiyot choralarini ta'minlash va jarohat olishning oldini olish.Yilning turli fasllarida jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi. Ilk yoshdagi bolalar bilan va yosh jihatdan aralash gruppalarda jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi. Tarbiyachining jismoniy mashg'ulotlarini baholash. Bilimlarini o'zlashtirib olishi, jismoniy mashqlarni to'g'ri va tez bajarishi ustidan nazorat qilish. Bolalarning mashg'ulotgacha va

mashg'ulotdan keyingi ahvoli va hatti-harakatini kuzatish. Jismoniy mashg'ulotlarini o'tkazishni tahlil qilishga doir savollar.

Turli yosh guruhlarda jismoniy tarbiya ish formalaridan jismoniy tarbiya mashg'ulotini va kundalik hayotda olib boriladigan jismoniy mashqlarni mustaqil olib borishni talab qilish. Amaliyotda jismoniy tarbiya mashg'ulotini mustaqil bajarish va tahlil qilish. O'quvchilarga dastur bo'yicha turli yosh guruhlarga mashg'ulot konspektini berish

Sport elementi o'yinlari harakatli o'yin turkumiga kirishi, bolalarni har tomonlama tarbiyalashdagi ahamiyati. Sport elementi o'yinlari tarkibiga asosiy harakat mashqlarini kirishi va bu o'yinni o'ynash orqali fazoda mo'ljal olishga, ko'z bilan chamalash malakalarini rivojlantirish uslubidan foydalaniladi.

Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o'rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va sovuq olishini oldini olish.

Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o'rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va issiq olishini oldini olish. Kichik guruhlarda asosiy harakatlar yurish, oyoq uchida yurish, tavonda yurish, qo'l ushlab yurish, ikki chiziq orasida yurish, bosmasdan yurish. Skameykadan sakrash, uni ustida muvozanat saqlab yurib sakrash, irg'itish va emaklash, bu mashg'ulotlar oyma-oy taqsimlanib estafeta o'yinlar, harakatli o'yinlar bilan birgalikda olib borilishi zarur.

Ertalabki badantarbiya tuzilishi. Jismoniy mashqlarni tanlash . Jismoniy qo'llanmalari (bayram, tayoqcha, halqacha boshqalar..)dan foydalanish. Komplekslar tuzish. komplekslar o'tkazish davomiyligi va ularni almashtirib turish.

O'quvchilarni ertalabki badan-tarbiyani to'g'ri tashkil qilishini, uning tuzilishi, jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash, jismoniy qo'llanmalardan foydalanish. Komplekslar o'tkazish davomiyligi ularni almashtirib turish.

Bolalarni charchash holatini yo'qotish va ularning ishchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida rasm, loy va plastilindan buyumlar yasash, sanoq, nutqni o'stirish va boshqa mashg'ulotlar proessida jismoniy daqiqalarni o'tkazish zarurligi.

Kichik va o'rta guruhlarda ertalabki badantarbiyani ahamiyati va o'tkazish uslubi.

Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar bog'chasida ertalabki badan-tarbiyani o'rni va o'tkazish uslubi.

Kichik va o'rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o'tkazish yo'llarini tahlil qilish.

Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar bog'chasida ertalabki badan-tarbiyani o'rni va o'tkazish uslubi.

Kichik va o'rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o'tkazish yo'llarini tahlil qilish. Kichik va o'rta guruhlarda ertalabki badan tarbiyani dastur asosida plan konspektini tuzish va

o'tkazishga o'rgatish. O'quvchilar o'tkazgan ertalabki badan tarbiyani kuzatish va tahlil qilish.

Jismoniy tarbiyaga doir istiqbol reja va oylik rejalarini ma'lum bir davrga mo'ljallangan jismoniy qo'llanmalarini tanlash va taqsimlash. Bolalarni kun mobaynida jismoniy mashqlarni bajarishini kuzatish va bolalarni bog'chaga qatnashini hisobga olish.

Bolalarning o'sishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi ilk bor olamni atrofdagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va xissiyotlari rivojlanishi kuzatiladi. Hayotning har bir davri , rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Kichik va o'rta guruh bolalarga harakatlarning shakllanishiga yordam berish, gavdani tik tutishga o'rgatish. Bolalarni mustaqil o'ynayotgan paytlarida harakatlari faolligini barqarorlashuviga yordam berish.

Jismoniy mashqlar bilan amalga oshiriladigan chiniqtirish tadbirlar.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida bolalarni chiniqtirish maqsadida havo vannalari, suv muolajalari (artinish, suv quyish, dush, cho`milish) va quyosh vannalaridan foydalaniladi.

Tabiiy omillardan mujassam holda foydalanish bolalarda tashqi muhitning turli noxush ta'siriga nam (havo, yomg'ir, shamol, qizish) nisbatan chidamlilikni hosil qiladi.

Chiniqtirish tadbirlari jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilganda juda samarali bo'ladi: faol mushak ishi issiqlik regulyatsiyasining takomillashuv jarayoniga va bu bilan organizmning tashqi muhitga moslashuviga yordam beradi. Chiniqish jarayoni xilma-xil, u bir tomondan shifokor tavsiyasiga ko`ra maxsus tadbirlar (havo, suv, quyosh vannalari)ni o`z ichiga oladi, ikkinchi tomondan kun tartibida belgilangan sharoitning (xonani muntazam shamollatib turish, darchalarning ochiq turishi, bolalar yengil kiyim-bosh va poyabzali, sayrning belgilangan muddatiga va bolalar harakat faolligi tartibiga rioya qilish, derazalari ochiq ayvonda uxlash). Bularning hammasi organizmning to'laqonli chiniqishini ta'minlaydi, unda yoqimli o`zgarishlar paydo qiladi (nerv tizimining holati va vazifasini modda almashinishi jarayonini, qon tarkibini yaxshilaydi, nafas olishni chuqurlashtiradi, psixikaning hissiy – ijobiy holatini vujudga keltiradi) bola xatti-harakatini bu sharoitga moslashtiradi.

Chiniqish jarayoni xilma-xil, u bir tomondan shifokor tavsiyasiga ko`ra maxsus tadbirlar (havo, suv, quyosh vannalari)ni o`z ichiga oladi, ikkinchi tomondan kun tartibida belgilangan sharoitning (xonani muntazam shamollatib turish, darchalarning ochiq turishi, bolalar yengil kiyim-bosh va poyabzali, sayrning belgilangan muddatiga va bolalar harakat faolligi tartibiga rioya qilish, derazalari ochiq ayvonda uxlash). Bularning hammasi organizmning to'laqonli chiniqishini ta'minlaydi, unda yoqimli o`zgarishlar paydo qiladi (nerv tizimining

holati va vazifasini modda almashinishi jarayonini, qon tarkibini yaxshilaydi, nafas olishni chuqurlashtiradi, psixikaning hissiy – ijobiy holatini vujudga keltiradi) bola xatti-harakatini bu sharoitga moslashtiradi

«Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi barcha yosh guruhlarda bir yoshdan boshlab chiniqtirish tadbirlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Dasturda chiniqtirish turlari, ularning o‘tkazish vaqti, qancha davom etishi belgilangan, shifokor tavsiyasiga ko‘ra bolalarga yakka holda yondashish kerakligi ko‘rsatilgan.

Havo vannalari – bolalar harakat faoliyati vaqtida havoni terining yalang‘och qismiga bevosita ta‘sir etishini ta‘minlaydi. Bunda havo vannasining eng maqsadga muvofiq va tabiiy ko‘rinishi ochiq havoda hamda deraza darchalari ochiq xonalarda o‘tkaziladigan ertalabki badantarbiyadir.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va ertalabki gimnastika havo vannasi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni xonada o‘tkazishda havo harorati asta-sekin har 2-3 kunda kamaytirib boriladi, bolalar ham shunga qarab yengilroq kiyintiriladi. Bu ish shifokor ko‘rsatmasiga ko‘ra, bolalar sog‘lig‘ining ahvoli va ularning har biriga yakka yondashgan holda amalga oshiriladi.

Bola havo vannalarini avval xonada, keyin ko‘chada oladi. Havo vannalari sovuq (10-20 S), befarq (23-30s) va issiq (30s dan yuqori) bo‘ladi. Bola sovuq havoga asta-sekin o‘rgatiladi. Dastlab bolalar ishtonchada 15-20 daqiqa havo vannasini xonada qabul qiladilar. Havo vannasi olina boshlangandan 10-15 kun o‘tgach, bolani ko‘chaga yengil kiyintirib chiqarish mumkin.

Suv tadbirlari artinish, belidan suv quyish, dush, cho‘milish (basseyn, daryo, ko‘l, dengizda) kabi muolajalardan iborat. Shifokorning bolalarning uziga xos xususiyatlari va sog‘lig‘ini hisobga olib bergan tavsiyasi bu muolajalarni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Suv muolajalarida bolaning faol bo‘lishi maqsadga muvofiq va zurrudir.

Oyoq, qo‘l uchlaridan markazga qarab massaj harakatlaridan foydalanib bolalar suvi siqilgan ho‘l qo‘lqoplar yordamida o‘zlari harakat qilishga o‘rganadilar. Doira yoki yarim doira bo‘lib, turgan holda ular bir vaqtda ko‘krak, yelka va qo‘llarni ishqalab artadilar, shundan so‘ng o‘girilib qo‘lqoplarini orqada turgan bolalarga beradilar va ularning har biri o‘rtog‘ining orqasini ishqalaydi. Shunday qilib, bola artinish jarayonida harakatda bo‘ladi, sovuq qotmaydi va tarbiyachi rahbarligida zarur hayotiy ko‘nikmaga o‘rganadi.

Oyoq, qo‘l uchlaridan markazga qarab massaj harakatlaridan foydalanib bolalar suvi siqilgan ho‘l qo‘lqoplar yordamida o‘zlari harakat qilishga o‘rganadilar. Doira yoki yarim doira bo‘lib, turgan holda ular bir vaqtda ko‘krak, yelka va qo‘llarni ishqalab artadilar, shundan so‘ng o‘girilib qo‘lqoplarini orqada turgan bolalarga beradilar va ularning har biri o‘rtog‘ining orqasini ishqalaydi. Shunday qilib, bola artinish jarayonida harakatda bo‘ladi, sovuq qotmaydi va tarbiyachi rahbarligida zarur hayotiy ko‘nikmaga o‘rganadi.

Boshdan suv quyish o`zining organizmga ko`rsatadigan ta'siriga ko`ra oldinga tadbirlardan birmuncha kuchliroqdir. Suv oqimi badanni tozalaydi, mushaklar tonusini oshiradi, ular ishini faollashtiradi, nerv tizimini qo`zg`atadi, tetiklik holatini yuzaga keltiradi. Bola oqayotgan suvga orqasi, ko`kragi, biqini, qorni, qo`llarini tutib aylanadi. Bundan tashqari u suv oqimiga ko`ra harakat qilib, badaniga suv sochib ishqalashi mumkin. Muolajadan so`ng barcha bolalar badanlarini tarbiyachi kuzatuvida yaxshilab artadilar.

Tayyorlov guruhlarida ertalabki gimnastikadan so`ng belgacha suv quyishdan foydalanish mumkin. Bolalar mustaqil yuvinadilar, bunda bo`yin, ko`krak, yelka va qo`llarini suv bilan chiniqish muolajalari quyidagi turlarga bo`linadi: sovuq (suv harorati 20s), salqin (20-30s), befarq (34-35s), iliq (36-40s), issiq (40s dan yuqori).

Biroq bu muolajaning samaradorligiga qaramay undan juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish, bolalarni unga asta-sekin o`rgatish – dushdan oldin artinish va suvning haroratini asta-sekin pasaytirib borish lozim.

Chiniqtirish maqsadidagi cho`milish dasturda o`rta, katta va tayyorlov guruhlar uchun tavsiya etiladi. Suvga o`rgatishni 1,5-2 yoshdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Suvi sayoz joyda yurish, tosh terish, shishirilgan o`yinchoqlar bilan o`ynash, suv sachratish kichkintoylarga o`zlari uchun yangi bo`lgan suv muhitini o`zlashtirishda yordam beradi, axloqiy hislarni uyg`otadi, jasurlikni tarbiyalaydi.

Cho`milish yozda, kun issiq paytda, havo harorati 20-25s, suv harorati kamida 20-25s paytida boshlash, ikki haftadan keyin havo harorati 18-20s, suvning 15-16s bo`lganda cho`milish mumkin.

Cho`milish joyini sinchiklab tekshirish, 3-4 bolaning kattalarning hushyor kuzatuvida bir vaqtda cho`milish, shifokorning barcha ko`rsatmalariga rioya qilish – bu muolajalarni o`tkazishning majburiy shartidir. Cho`milish muddatini har bir yosh guruhi uchun bolalar muassasasi shifokori belgilaydi. Bunda metereologik sharoit suv va havo temperaturasi, shamol, quyoshli yoki bulutli havo va barcha bolalar organizmining chiniqqanlik darajasi hisobga olinadi.

Quyosh vannalari. Quyosh bola organizmiga yaxshi ta'sir ko`rsatib, uning umumiy holatini mustahkamlaydi, almashinish jarayonlarini yaxshilaydi. Ayniqsa bakteritsid (bakteriyalarning rivojlanishini to`xtatadigan), antiraxit (nerv tizimining faoliyatini yaxshilaydigan, modda almashinish jarayonini kuchaytiradigan, suyak mushak tizimini mustahkamlaydigan), eritem (qon oqimini ko`chaytiradigan va terini qizartirib, badanning qorayishiga olib keladigan) ta'sirga ega bo`lgan ultrabinafsha nurlari juda foydalidir.

Dastlab quyoshda ko`pi bilan 5-6 daqiqa toblanish lozim. Bu muddat har kuni 5-6 daqiqa oshira boriladi va nihoyat 1 soatga yetkaziladi.

Bola oftobda boshiga sochiq yopib yoki panama kiyib yotishi, har 2-2,5 daqiqada qorindan yonboshga, so`ng orqasiga, keyin boshqa yonboshiga

ag'darilib turishi lozim. Quyosh vannasidan so'ng soyada 15-20 daqiqa dam olish, ustdan suv quyish, suv havzasida 5-10 daqiqa choqmilish mumkin.

Oftobda ertalab soat 8 dan 11 gacha va kunduzi soat 16 dan 18 gacha toblanish foydalidir. Bu paytda quyoshning ultrabinafsha nurlari ko'p bo'lib, bu nur raxitning oldini oladi. Infraqizil nurlari esa tanani qizdirib yuborib, zarar keltirishi mumkin.

Quyosh vannasidan me'yorida foydalanmaslik tufayli bolalarga salbiy holatlar (qo'zg'alish va uyquning buzilishi, tomirlarning keskin kengayishi, qon tarkibining yomonlashuvi va boshqalar) yuz berishi mumkin. Shuning uchun bolalar muassasalarida quyosh vannalari faqat shifokor tavsiyasiga ko'ra, bolalarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkazilishi zarur. Bolalarni muntazam holda chiniqtirish ilk yoshdan boshlanishi lozim, shundagina bolalarda chiniqish ko'nikmalarini tarbiyalash mumkindir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bulgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Ta'lim sifatining yuqori darajada bulishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'yicha mutaxassislarining turlicha qarashlari mavjud. Jumladan, bilim oluvchilarning saviyasi, pedagoglarning bilimi va mahorati, ularning kompetentligi va kreativligi, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, jarayon monitoringining to'g'ri tashkil etilishi, natijalarning tahlili va shu kabi ko'pgina omillarni aytish mumkin. Mazkur omillar har bir oliy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasining o'quv va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq qismlarida albatta o'z aksini topadi. Ayniqsa, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida bo'lishiga erishish, real mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirilganligi, onlayn ta'limni amalga oshirishga sharoitlar yaratish, ilmiy faoliyatga yoshlardagi ehtiyojni kuchaytirish, oliy malakali ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, kasbiy ta'limga yo'naltirish kabilarga bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Har bir bulajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetishi va uning amaliyotda ta'lim muassasalari innovatsion jarayonlariga ko'shilishdagi ahamiyatini anglab etishi hamda yaratish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini qurish va eng muhimi, yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o'quv jarayonida talabalar mustakil fikrlay o'lsalar, ijodiy ishlay o'lsalar, izlansalar, tahlil eta o'lsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, ukituvchi ularning

bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu o'qitish jarayonning asosi hisoblanadi. Har bir o'quv mashg'uloti mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi ta'lim texnologiyasi - bu yakka tartibdagi jarayon bulib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim texnologiyasi - ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini loyihalashtirishni o'z ichiga oladi. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarning qisqacha tahlili. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim texnologiyalari va pedagog ma,oratiga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik, kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talabalar faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

U.Tolipov va M.Usmonboevalarning fikriga ko'ra, interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bulib, ta'lim mazmunini tarkibiy kislmlari hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanishga majbur etishi:
- talabani ukuv jarayonida bilimga bulgan kizikishlarini doimiy ravishda bulishini ta'minlashi:
- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi:
- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning¹ ta'kidlashiga ko'ra, ta'lim texnologiyalarning xislati shundaki, unga qo'yilgan maqsadga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi o'quv jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liq.

O'quv jarayonini loyihalashtirish quyidagi uch bosqichdan iborat:

- o'quv maqsadlari va natijalarini belgilash;
- natijalar asosida nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonining texnologik xaritasi (dars ishlanmasi xaritasi)ni ishlab chiqish.

B.X.Xodjaevning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, maqsadini, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Professor M.Ochilovning ta'kidlashicha, o'quv maqsadi - bu muayyan ta'lim jarayonini yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, ya'ni xosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bulgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlari va xulqini belgilaydi. O'quv maqsadi va natijalarni belgilashda aniq ulchanadigan, real amalga oshiriladigan, erishish mumkin bo'lgan imkoniyat inobatga olinadi.

O'quv-tarbiya jarayonida bilim berishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta'lim tajribalaridan maqsadli foydalanish – ta'limning sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o'rinli foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi.

Ta'limni rivojlantirishda pedagogik jamoa va o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini shakllantirish – ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining talab darajasida bo'lishi, mazmunan boyitishni ta'minlaydi. Xususan, ta'lim tizimining boshlang'ich sinflarida o'qitish jarayoni texnik vositalar, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'rganish, ta'lim jarayoniga moslashtirish – bugungi kun talabidir. Bu esa o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi, shuningdek o'rgatishda kam kuch, kam vaqt sarflab, o'qitish vositalaridan samarali foydalanishga yo'l ochadi. Ma'lumki, an'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi o'quvchiga asosan axborot beruvchi manba hisoblanadi, ya'ni bilim olishda: axborotlarni uzatish va qayta ishlanmagan holatda o'quvchidan qabul qilib olish kuzatilgan. Ya'ni dars jarayonida olingan bilim faollashuv pog'onasiga ko'tarilmagan. Zamonaviy o'qitish sharoitida esa kafolatlangan o'quv maqsadlariga erishish jarayoni oldindan loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv yuzakilikka emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Umuman olganda boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayoniga texnologik yondashuv avvalo fanlararo integratsiyani ta'minlash, bolalarni ortiqcha qiyinchiliklardan ozod etish, vaqtdan unumli foydalanish, sinfda va sinfdan tashqari vaqtlarda bolalar orasida tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, erkin fikrlash, ijodiy izlanish tizimini yaratish kabi qator ishlarni amalga oshirishdan iboratdir. Bu borada albatta o'qituvchining mahorati, kreativ yondashuvi, kompetensiyasi

muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bunga to'rt yo'l bilan erishiladi: umumiy maqsaddan aniq maqsadlarni ajratib olish; muntazam izlanish, o'z faoliyatini tahlil qilish, qiyoslash va faoliyatni tanqidiy baholash; ilg'or ish tajribalarni o'rganish, o'z sharoiti va imkoniyatidan kelib chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish va takomillashtirib borish; xorijiy pedagogik tajribalarni ijodiy o'rganish; olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda keng tadqiq etish. Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohotlarning markazida o'quvchini ta'lim jarayonining sub'ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta o'quv-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv asosida erishiladi. Texnologik yondashuvning ustuvor jihatlari quyidagilardan iborat: o'quvchilarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va ilg'or g'oyalar paydo bo'ladi. Rang-baranglik fikr va g'oyalar yakkayu-yagona javob mavjudligi haqidagi tasavvur bartaraf qilingan chog'dagina yuzaga keladi; o'quvchining fikrlash jarayonini qadrlanishi. Bunda o'quvchilar o'z tengdoshlarining fikrlarini ham hurmat qilmog'i lozim; erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanish. O'qitish jarayonida qo'rqmay tavakkal qiluvchi o'quvchilarni rag'batlantirib turilishi; o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni talab qiladigan mashg'ulotlardan foydalanish; biror masalada fikr almashishlaridan oldin vaqt va imkoniyat berilishi; belgilangan vazifa va topshiriqlarni bajarish jarayonida bir-birlariga yordam berishlariga sharoit yaratilishi va hokazo. Xulosa sifatida aytish joizki, jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Jamiyat o'qituvchining qo'liga yosh avlodni, ya'ni o'z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi, zamonaviy bilimlari va yondashuvlari muhim omillardan sanaladi.

Aqliy hujum. Maktabgacha ta'limda qanday pedagogik texnologiyalar qo'llanilayapti?

Hozirgi kunda maktabgacha ta'limda M.Montessori sistemasi va IMEN texnologiya deb tan olingandir. Bu pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda hozirgi kunda bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyalari – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, o'yinli texnologiyalar, ta'limning individuallashtirish texnologiyasi, interfaol ta'lim (bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar), muammoli ta'lim, loyihali ta'lim texnologiyalari maktabgacha ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Bu pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bolalar yoshiga, ularning individual xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Masalan, bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyalari.

"Bolani qo'llab-quvvatlash" deganda nimani tushunasiz? Bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyasi har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlariga mos keluvchi usullar va vositalarni izlab topishga harakat qilishdir. Buning uchun psixodiagnostika usullaridan foydalaniladi, bolalar faoliyatini turlicha

tashkillaydilar, har xil o'qitish vositalarini qo'llaydilar, ta'lim mazmuniga o'zgartirishlar kiritadilar. Shaxsni qo'llash texnologiyalari o'zini eng to'la ifodasini chet elda gumanistik psixologiya yo'nalishidagi izlanishlarda topgan. K.Rodjers agar pedagog quyidagilarni qo'llasa, u guruhda shaxsni individual rivojlanishi uchun kerakli muhitni yarata oladi deb ta'kidlaydi:

- pedagog butun ta'lim jarayonida bolalarga bo'lgan ishonchini namoyish etib borishi zarur;
- pedagog guruh va shaxsan har bir tarbiyalanuvchi oldida turgan maqsad va vazifalarni aniqlashga yordam berishi kerak;
- ta'lim jarayonini tashkillashda pedagog bolani ichki motivatsiyasidan kelib chiqishi kerak;
- pedagog bolalar uchun turli —tuman tajriba manbasi bo'lib, bolalar keragicha unga murojaat qilishi nazarda tutiladi;
- bu sifatda u hamma bolaga bir xil yondashishi kerak;
- pedagog guruhdagi emotsional muhitni his etib va qabul qilish malakasini oshirib borishi lozim;
- pedagog guruhdagi o'zaro fikr almashinuvini faol ishtirokchisi bo'lishi kerak;
- u o'z hissiyotlarini ochiq namoyish etadi.

- pedagog o'z — o'zini va o'z imkoniyatlarini yaxshi bilishi kerak;

«**BBB**» **usuli.** O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

«**FSMU**» **usuli.** O'tilgan mavzuni umumlashtirish.

Pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishimiz va ulardan amaliyotda maromiga yetkazib qo'llay olishimiz juda muhim.

Masalan, bolalar individual psixologik xususiyatlariga ko'ra har xil bo'ladi, lekin ta'lim-tarbiya bitta dastur asosida olib boriladi, bitta dastur asosida olib borilar ekan deb, hamma boladan bir xil natijani talab qilishimiz to'g'ri emas, qaysidir bola ba'zi narsalarni oldinroq o'rgansa, ba'zilar keyinroq o'rganadi, kimdir amaliy bajarib tez o'rgansa, kimdir boshqaning bajarganini ko'rib tez o'rganib oladi. Shu sababli bolalar bilan ishlayotganimizda ularga individual tarzda munosabatda bo'lishimiz, har bir bolaning yutug'ini ko'ra olishimiz va rag'batlantirishimiz, ularning yanada kuchli ishtiyoq bilan o'z ustida ishlashiga turtki bo'ladi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi, uning ta'riflari va metodikadan farqi
Pedagogik texnologiyalarning turlari

Bilardim	Bildim 128	Bilmoqchiman
-----------------	----------------------	---------------------

--	--	--

Pedagogik texnologiyalarda didaktik o'yinlar texnologiyalari bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular bolalar shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtiroklarida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funktsional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ldi. Natijada, oldingi asrning 60-yillari boshidan AQShda so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi-aqliy hujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalari banki deb ham nomlangan. U muammolarni qo'yidagicha yechishga asoslanadi;

-muammoli vaziyat yaratish;

-g'oyalarni shakllantirish;

-eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash.

Guruh ishtirokchilariga muammoni aniqlash va uni echish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning belgilaydi. Bunda pedagogning mahorati hamda o'quvchilarning tayyorgarliklari qanchalik yuqori ekanligi asosiy omil hisoblanadi.

Didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy mashg'ulot shakllari:

Ishchanlik o'yini darsi- mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida bolalarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin mashg'uloti - mashg'ulot mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda bolalarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va mashg'ulot jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulot – mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali mashg'ulot mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter mashg'uloti - tegishli mashg'ulot turi bo'yicha mashg'ulot mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Yarmarka mashg'uloti – mashg'ulot mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan bolalarning o'zaro muloqot asosida guruhga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan mashg'ulot.

Integral (integratsiyalashgan) mashg'ulot - bir nechta mashg'ulot turlariga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan mashg'ulot bo'lib, bolalarning turli mashg'ulot turlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolliklarini ta'minlaydi.

«Mo'jizalar maydoni» mashg'uloti – bolalar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va

g'oliblarni rag'batlantirish orqali bolalarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik uyinlarini tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik uyin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim. Bundan tashqari har bir didaktik uyin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to'g'ri belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va mashg'ulotning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi. Didaktik uyin turlarini tanlash mezonlari:

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha-yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, guruh jamoasi, raqobatdosh komandalar va ommaviy o'yinlar

-vaqt me'yori bo'yicha-mashg'ulot, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar.

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan to'g'ri, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni qo'yidagi turlarga ajratish mumkin

-kotselyariya tovarlari-turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skotch, ruchka, qalam, chizg'ich, elim va boshqalar.

-texnika,-proektor, mikrofon, kompyuter, televizor;

Maktabgacha ta'limda har bir bola ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda bolalar o'z mashg'ulot turlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi mashg'ulotni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasini tayyorlashlari va uning asosida metod birlashma majlisida shu mashg'ulotni bayon qilib berishlari va tegishli muhokamalar o'tkazib borishlari tavsiya qilinadi.

“Doira atrofida”

Boshlovchi bolalarni atrofiga chorlaydi. “Kelinglar bolalar doira bo'lib o'tiramiz. Hammamiz bir-birimizga qarab o'tirishimiz nihoyatda yaxshi to'g'rimi? Endi hammamiz navbat bilan gapirmasdan, jilmayib, bir-birimiz bilan bosh qimirlatib ko'zimiz yordamida salomlashib chiqamiz.”

“Men va boshqalar”

Bu o'yinda guruh doira shaklida o'tiradi va har bir ishtirokchi o'z ismining bosh harfiga bitta ijobiy sifat tuzadi. Masalan: birinchi ishtirokchi o'z ismi va

sifatni aytadi – Gulnoza go’zal; 2-ishtirokchi o’zidan oldingi va o’zining ismi va sifatini aytadi – Gulnoza go’zal; Malika muloyim, 3-ishtirokchi o’zidan oldingilarning va o’zining ismi va sifatini aytadi – Gulnoza go’zal, Malika muloyim, Maftuna maftunkor. O’yin shu tariqa davom etadi va oxirgi ishtirokchi hammanikini aytib so’ng o’zinikini aytadi.

Agarda ishtirokchisifatni topishda qiynalsa, tarbiyachi bolalardan yordam berishini taklif etadi. Bu trening xotirani mustahkamlaydi, guruhdagi psixologik muhitni to’g’ri yo’lga qo’yishga yordam beradi. Bolalarning lug’ati ijobiy so’zlar bilan boyidi.

Eslatma: bu o’yin davomida bolalarning soni 10 tadan oshmasligi lozim.

“Klaster” o’yini

Maqsad: Klaster usulida transport turlarini guruhlash, ba’zi belgilariga qarab umumlashtira olish, e’tiborli bo’lish.

Kerakli jihozlar: Turli transportlarning alohida – alohida rasmlar.

O’yinning borishi: Bolalarga turli xildagi transportlarning alohida-alohida rasmlari to’plami beriladi. Bolalar transportlarni qayerda harakat qilishlariga qarab guruhlari chiqadilar – yerda yuradigan, osmonda uchadigan, suvda suzadigan.

“Nimaning bolasi?” o’yini

Maqsad: bolalarni hayvonot olami bilan yaqindan tanishtirish, ularning so’z boyligini oshirish.

Kerakli jihozlar: Ot, toychoq, echki, uloqcha, qo’y, qo’zichoq, mushuk, mushukcha, tuya, bo’taloq.

O’yinning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, hayvonlarning bolalariga onasini topishga yordam beramiz.

Qo’zichoq nimaning bolasi? (qo’yning bolasi)

Toychoq (otning bolasi)

Uloqcha (echkining bolasi)

Mushukcha (mushukning bolasi)

Bo’taloq ... (tuyaning bolasi)

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko’tarishga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo’llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu

bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin?

degan savoliga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni «O'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin» degan fikrga olib keladi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv- tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv- tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv- tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul

qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi
Mavzu yuzasidan test savollari

Ta'lim maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistema lashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. U jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga madaniy-gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular mada niy-axloqiy qoidalarni o'zlashtirib oladilar. Bolalarda o'quv faoliyatlari asoslari ta'lim jarayonida hosil qilinadi, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi yo'li — bolalarning bilim, malaka, ko'nikmalarni katta talar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi orqali egallab borishidir.

Ikkinchi yo'li — maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir. Bolalarga ta'lim berish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi:

Ko'rgazmali	Og'zaki	Amaliy	O'yin metodlari
Kuzatish	Tushuntirish	Mashq	Didaktik o'yinlar
Ko'rsatish	Hikoya qilish	Mustaqil ish	Harakatli o'yinlar
TVdan foydalanish	So'zlab berish	Oddiy tajriba	Mashqli o'yinlar
	O'qib berish		Inssenirovkalar
	Suhbat		

Kuzatish metodi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, asosan, yangi bilim berishda qo'llaniladi. Kuzatish — bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Bu usul ma'lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Namoyish etish metodi. Bu metodda tarbiyachi bolalarga narsaning o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Kuzatish so'z bilan qo'shib olib boriladi. Bu asosan bevosita kuzatib, ko'rib bo'lmaydigan narsalar bilan tanishtirishda qo'llaniladi. Masalan, hayvonlar, o'simliklar hayoti bilan tanishtirish.

Texnikaviy vositalardan foydalanish. MTTda ta'lim jarayonini qiziqarliroq o'tkazishni ta'minlaydi. Tevarak-atrof bilan tanish tirish imkoniyatini kengaytiradi. Texnikaviy vositalardan tarbiyachi katta va tayyorlov guruhlarida foydalanadi. Kichik guruhlardan boshlab bolalarga hikoyalarga ishlangan suratlar ko'rsatiladi. Bu buyum va narsalarni izchillik bilan idrok etish imkonini beradi va sinchkovlik hislarini o'stiradi.

Hikoya qilib berish metodida materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilinadi. o'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib beriladi. Bu bolalarga ta'lim berishda va ularning aqliy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hikoya qilib berish metodi mustaqil metod sifatida qo'llaniladi.

Suhbat metodi. Suhbat MTT didaktikasida muhim o'rinni egallaydi. Tarbiyachi bolalar bilim va amaliy tajribalariga suyanib, savollardan foydalangan holda ularni yangi bilimlarni egallashiga, mustahkamlashiga harakat qiladi. «Suhbat 3—4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4—5 yoshli bolalar bilan ham suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkazilmaydi. Bu yoshda kuzatish qisqa suhbat bilan qo'shib olib boriladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot tarzida o'tkazilishi mumkin»¹.

Amaliy metod. Bu metod tarbiyachiga bolalarning turli-tuman amaliy faoliyatlarini tashkil etishga, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishga yordam beradi. Bu metod orqali bola buyumlarning o'ziga tanish bo'lmagan xususiyatlarini bilib oladi. Tarbiyachi amaliy mashg'ulotlarda bolalarning oldiga vazifa qo'yib, bolalardan mashq qilishni talab etadi. Shular orqali bola bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladi.

O'yin metodi didaktik vazifani tushunarliroq, ta'limni qiziqarli qilib tashkil etishga yordam beradi. O'yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o'yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Kichikintoylar o'ynaydigan sujetli o'yinlarning asosiy mazmuni — buyumlar bilan bajari ladigan xilma-xil harakatlarni tasvirlashdir. Bunday o'yinlar jarayonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar bajarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o'zlashtirib oladilar. Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro'y beradi.

Bolaning rivojlanishiga qarab, ularning ijodiy o'yinlari tobora rejali xususiyat kasb etadi: bolalar o'yinning mazmuni haqida, o'yinchoqlardan foydalanish va h.k.lar to'g'risida kelishib oladilar. Shu yo'l bilan o'yin davomida

bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tafakkurning rejalashtiruvchi vazifasi tarkib topadi. Bolaning aqliy tarbiyasida ijodiy o'yinlar bilan bir qatorda didaktik o'yinlar ham katta o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar tayyor mazmunga va aniq qoidalarga ega. Juda ko'p xalq o'yinlari avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Pedagoglar tomonidan ham ko'pgina o'yinlar ishlab chiqilgan. Didaktik o'yinlar deb nomlanishining o'zi ham bu o'yinlarning maqsadi bolalarni aqliy rivojlantirishdan iboratligini bildiradi. Binobarin, ular aqliy tarbiya vositasi, deb qaraladi.

Nazorat savollari:

1. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlar qanday olib boriladi?
2. Kun tartibidagi jismoniy sog'lomlashtirish ishlari qanday olib boriladi?
3. Ertalabki gimnastika, harakatli o'yinlar va sayr paytidagi jismoniy mashqlari qanday olib boriladi?
4. Jismoniy daqiqalar, kunduzgi uyqudan so'nggi jismoniy mashqlar qanday olib boriladi?
5. Chiniqtirish tadbirlari qanday olib boriladi?
6. Faol dam olish: bolalar turizmi, jismoniy dam olishlari, jismoniy tarbiya bayramlari, salomatlik kunlari, ta'tillar qanday olib boriladi?
7. Bolalarning mustaqil harakat faoliyati qanday olib boriladi?

Asosiy adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. SH.M, Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T 2016
5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
6. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma T., 2001

7. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.
8. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbita berishning zamonaviy tendensiyalari. T.; O'ZPFITI 2015
9. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.:BMT bolalar jamg'armasi (YUNISEF), 2018
10. Xujayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B "Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" Cho'lpon nashriyoti Toshkent 2011 y
11. Abdullayev A,Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institute, 2005 yil-300 b.
12. Liviyskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent 1995 yil- 500 b.
13. Xujayev F, Raxmonqulov K.D., Nigmanov B.B "Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi" TDPU nashriyoti Toshkent 2008 y

Axborot manbalari

14. [www. tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
15. [www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
16. [www. Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
17. [www. edu.Uz](http://www.edu.Uz)
18. http://player.myshared.ru/116/1441122/slides/slide_14.jpg

7-mavzu: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari

Reja:

- 1.Muammoli ta'lim vazifalari
- 2.Muammoli ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyalardan foydalanish.

4. Multimediya soʻzining maʼnosi va kelib chiqish tarixi. Maktabgacha taʼlimda multimediyalardan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: muammo, muammoli taʼlim, muammoli taʼlim texnologiyalari, muammoli vaziyat, multimediya, multimediya vositalari, animatsion va video maʼlumotlar.

Rivojlantiruvchi taʼlim texnologiyasining asosiy boʻgʻini muammoli taʼlim yoʻnalishi sanaladi.

Muammo - grekcha soʻz boʻlib, keng maʼnoda oʻrganish, hal qilishni talab qila digan murakkab nazariy yoki amaliy savoldir; fanda - har qanday hodisalarni, obʼyektlarni, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi pozitsiyalar koʻrinishida ishlaydigan va uni hal etish uchun etarli nazariyani talab qiladigan qarama-qarshi vaziyat;

Hayotda muammo odamlar tushunadigan tarzda shakllantirilgan: "Men nimani bilaman, qanday ekanligini bilmayman", yaʼni nimaga erishish kerakligi maʼlum, ammo buni qanday amalga oshirish nomaʼlum .

Muammoli taʼlim – taʼlim jarayonini olib borishda oʻquvchilar oldiga yechish uchun muammoni qoʻyish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashgʻulot davomida uning yechimini topish. Muammo oʻqituvchi tomonidan yoki oʻquvchilar tomonidan qoʻyilishi mumkin.

Muammoli taʼlim texnologiyalari – oʻquvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli taʼlim texnologiyasining asosi – insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli taʼlim oʻquvchi larning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- Oʻqituvchi oʻquvchilarga dars mavzusi bilan bogʻliq ziddiyatli holatni tushuntirish va uni yechish yoʻlini topishni taklif qilish;
- Bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qilish;
- Hal etish uchun yetarli boʻlmagan yoki ortiqcha maʼlumotlar boʻlgan yoki savolning qoʻyilishi notoʻgʻri boʻlgan masalalarni taklif etish.

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- Oʻqituvchi muammoni qoʻyadi va oʻzi yechadi;
- Oʻqituvchi muammoni qoʻyadi va uning yechimini oʻquvchilar bilan birgalikda topadi;
- Oʻquvchilarning oʻzlari muammoni qoʻyadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qoʻllaniladigan usullar:

- Muammoni turli nuqtai nazardan oʻrganish, tahlil qilish;
- Solishtirish, umumlashtirish;
- Dalillarni aniqlash va qoʻllash;

- Vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- O'quvchilarning o'zlari aniq savollar qo'yishi va boshqalar.

Muammoli ta'lim bosqichlari: 1. Muammoli vaziyat hosil qilish. 2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish. 3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olingan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoni hal etish bosqichlari:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqlarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riligini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riligini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi

Muammoli ta'limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog D.Dyui 1894 yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60 yillarida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur- muammoli vaziyatdan boshlanadi"- degan g'oya yotadi.

Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol, mustaqil faoliyati natijasida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

Muammoli o'qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar o'quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar beriladi.

Bunda:

- nostandart masalalarni tuzish bo'yicha;
- shakllantirilmagan savol bilan;
- ortiqcha ma'lumotlar bilan;
- o'zining amaliy kuzatuvlari asosida mustaqil umumlashtirish;
- yo'riqnomalardan foydalanmasdan qandaydir ob'ekt mohiyatini bayon etish;

- olingan natijalarni qo'llash chegaralarini va darajalarini aniqlash;
- hodisaning namoyon bo'lish mexanizmini aniqlash;
- «bir lahzada» topish kabi topshiriqlarni berish mumkin.

Muammoli vaziyatlarda yechimga kelishning algoritmi quyidagi tartibda amalga oshiriladi Muammoni qo'yish, ma'lumotlar fondini to'plash, qayta ishlash, yechim modelini aniqlash, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va ularni tanlangan yechim modelida aks ettirish, yangi ma'lumotlar va yechim modeli o'rtasidagi zidlikni aniqlash, zidlikni yechimini topish, yangi yechim modelini yaratishdan iboratdir.

An'naviy pedagogik usudagi bilimlardan muamoga qarab bolalarda mustaqil bilim va malakalar hosil bo'lmaydi, chunki ularga tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga o'rgatilgan bo'lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so'ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» Fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a'lo darajada namoyon bo'ladi va rivojlanadi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli ta'lim va uning o'ziga xosliklari.

Bugungi kunda muammoli o'qitish deganda mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan bolalarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida bolalar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs sub'ekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir

Muammoli o'qitish o'qitishning eng samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyon qiladi. Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziat yaratadi, bolani uni yechishga yo'naltiradi, yechimni ishlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish pedagogik

mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib tabaqalashtirilga va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. Talabalarga mashq uchun beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi. O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, bolalar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Muammoli o'qitishda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo'ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma'lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo'lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo'ladi, «gap nimada?» degan savol tug'iladi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, sub'ekt-ob'ekt-sub'ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli ta'limning mohiyati va vazifalari

Muammoli ta'lim oluvchilar faoliyatini nazariy va amaliy muammolarni va ushbu muammoli vaziyatlar kuch orqali yaratilgan muammoli topshiriqlarni hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan holda tashkil etish usulidir.

Muammoli ta'lim ta'lim oluvchilarning bahslari, mushohadalarida amalga oshiriluvchi analiz-sintez faoliyatiga asoslanadi. Bu ta'limning tadqiqotchilik turidir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, ¹⁴¹unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala

bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muamoli o'qitishning o'ziga xos jihatlari majudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas quyidagicha izohlaydi.

B.Aysmontas bo'yicha muammoli ta'limning yutuq va kamchiliklari:

Yutuqlari	Kamchiliklari
1.Bilimlarni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta'lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi	1.Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanishda boshqa ta'lim tiplariga qaraganda kam darajada qo'llaniladi
2.Talabaning shaxsiy motivatsiyalari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantiradi	2.Boshqa ta'lim turlariga qaraganda bir xil hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun ko'p vaqt talab etiladi
3.Talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi	
4.Talabalarning dialektik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi, ular tomo-nidan o'rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi	

Muammoli o'qitishning mohiyati shundaki, u bolaga tanish ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi

Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

Muammoli ta'limning birinchi darajasi – o'qituvchi tomonidan muammo yaratiladi va o'qituvchi tomonidan yechimlar ishlab chiqiladi, talabalar bu holda muammoli ta'lim jarayonida faoliyat yuritishga o'rganadilar.

Muammoli ta'limning ikkinchi darajasida – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

Muammoli ta'limning uchinchi darajasida – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan

mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta'limning uchinchi darajasida – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta'limning to'rtinchi darajasida - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda talabalar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Muammoli vaziyatlar mazmuniga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

1. Maqsad noma'lum – uni aniqlash kerak.
2. Faoliyat ob'ekti noma'lum – uni aniqlash kerak.
3. Faoliyat usuli noma'lum – uni aniqlash kerak.
4. Faoliyatni bajarish shartlari noma'lum – uni aniqlash kerak.

O'quv jarayonida o'qituvchi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun ularni tashkil etish texnologiyasi bilan tanish bo'lishi kerak. Albatta bu vazifa mavzuning xarakteridan kelib chiqqan holda bajariladi.

Muammoli vaziyatlarni quyidagi turlari bor:

1. Kutilmagan favqulodda – hayratlanarli vaziyat.
2. Nizo vaziyati.
3. Faraz qilish vaziyati
4. Inkor qilish vaziyati
5. Nomutanosiblik vaziyati, (amaliy va nazariy bilimlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi yoki eski bilimlarning yangi bilimlarga to'g'ri kelmasligi)
6. Tanlash vaziyati.
7. Izlanuvchi va tadqiqot ishlari o'tkazish ham muammoli vaziyatlaridan bo'lib hisoblanadi.
8. Muammoli ta'limni qo'llash mahorati

Muammoli ta'lim bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. U talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bu esa bugungi axborotlar oqimi davri uchun o'ta muhim. Fikrlash refleksi, ijodkorlikni va qiziqishni rivojlantiradi. O'zlashtirilgan bilimlarni puxta bo'lishiga yordam beradi. Bolalarni faollashtiradi va maktabga tayyorgarlikni mustahkamlaydi, ammo bu ta'limning bir muncha chegaralanganlik tomonlari ham yo'q deb bo'lmaydi. Muammoli ta'limni tashkil etish va o'tkazish bir muncha ko'proq vaqt talab etadi. Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan holda tashkil etib bo'lmaydi. Bolalar ⁴³soni chegaralanadi. O'qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba'zi passiv bolalar chetda qolib ketadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasi mohiyati va maqsadi

Muammoli o'qitish texnologiya-si mohiyatini o'qituvchi tomonidan talim oluvchilarni o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini xal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi.

Maqsadi – nafaqat ilmiy bilishning natijalarini sinchliklab tahlil qilish, o'rganishdan iborat bo'lmay, tinglovchining bu natijalarini olish jarayonini o'rganishdan, bilish faoliyatini va uning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Muammoli vaziyat belgilari:

1. Talim oluvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi	2. Vazifalarni bajarish uchun talim oluvchiga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini xal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi
--	--

«Muammoli vaziyat» metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Muammoli ta'limni qo'llash texnologiyasi

Muammoli ta'lim murakkabligiga ko'ra turli darajada bo'lishi, ya'ni tashkil etilishi mumkin. Bu talabalarning tayyorgarlik darajasiga, bilim darajasiga va fikrlash qobiliyatining rivojlanganlik darajasiga bog'liq holda tanlanadi.

Muammoli ta'limning **birinchi darajasi** – o'qituvchi tomonidan muammo yaratiladi va o'qituvchi tomonidan yechimlar ishlab chiqiladi, talabalar bu holda muammoli ta'lim jarayonida faoliyat yuritishga o'rganadilar.

Muammoli ta'limning **ikkinchi darajasida** – o'qituvchi tomonidan muammo vujudga keltiriladi va talabalar tomonidan yechiladi. Bu holda talabalar muammoni yechish usulini kuzatadilar va passiv holatda bo'ladilar. Ular muammoni yechish malakasi bilan tanishadilar.

Muammoli ta'limning **uchinchi darajasida** – talaba tomonidan muammoli vaziyat tashkil etiladi va muammo o'rtaga tashlanadi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda yechim topiladi. Bunda talabalar faol ishtirok etadilar va ularda mustaqil va ijodiy fikrlash refleksi rivojlanadi.

Muammoli ta'limning **to'rtinchi darajasida** - muammoli vaziyatni ham, muammoning yechimini ham talabalar o'zlari tashkil qiladilar. Ular mavzudagi mavjud muammoni ko'ra olishga va uning yechimini mustaqil ravishda topa olishga o'rganadilar. Bu muammoli ta'limning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Chunki talabalar ijodiy fikrlashga o'rganadilar. Bu holda talabalar o'ta faol holatda bo'ladilar. O'qituvchi esa kuzatuvchi va ba'zan yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadilar.

Multimediya atamasining lug'aviy ma'nosi (multim-mediyr) ikkita so'z yig'indisidan iborat bo'lib multi-ko'p, media-muhit ma'nosini anglatadi. Atama miy va o'quv adabiyotlarida "ko'p vositalilik", "multimedia muhiti", "ko'p qatlamli muhit". "ma'lumot tashuvchi vosita" kabi talqin qilinadi.

Multimediya vositalari – bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi avzalliklariga ega Berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor; Ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi; Ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish; Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumdirdir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib

qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ortadi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTTlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Kuzatishlar shuni ko'satadiki, 80-90% bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tas'virdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Ushbu maqolada mazkur masalalarga oydinlik kiritildi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Multimediya vositalari yordamida axborotlarnimatnli, tasvirli, tovushli va animatsiyali ko'rinishda namoyish etish mumkin. Multimediya vositalari animatsiyali, audio va video ma'lumotlardan tarkib topadi. Multimedia vositalari bu:

-nutqli axborotni kiritish-chiqarish qurilmalari (mikrofon, kuchaytirgichlar, tovush kolonkalari);

-Animatsion va videoma'lumotlarni kiritish va chiqarish qurilmalari (videokameralar, videoprojektor va ekranlar ba)

Audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari

Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarning katta hajmi va ularni o'zlashtirishning yuqori tezligi bilan bog'liq, ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning so'ngi texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamgaruvchilarning yangi namunalarni yaratishning boshlanishi bo'ladi. Masalan, 650 Mb sig'imli va 150 kb/s hisoblash tezligidagi

CD-ROM optik kompakt diski shu jumladandir. Multimedia uchun zamonaviy CD-ROM texnologiyalar taqdimnomasi ilk marta 1987 yili Sietldagi konferensiyada bo'lib o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'laqonli multimedaning paydo bo'lishi boshlanishi deb hisoblanadi.

Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compact Disk Interactive - interaktiv videodisklar) bo'ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video-murvatni boshqarish yo'li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi. Bu texnologiyani Philips Electronics firmasi ishlab chiqadi va u Sony, IBM va Microware firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Hozirgi kunda har bir kishining ish faoliyatida doimiy ravishda multimedidan foydalanish ehtiyoji mavjud. Multimedia vositalari zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining ajralmas qismi bo'lib, hayotimizning bir bo'lagiga aylangan. Multimedia texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim sifatini hamda ta'lim oluvchining o'zlashtirish samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. Multimedia texnologiyalari makro va mikroolam jarayonlarini modellashtirish va ularni tasavvur qilish, unutilmas daqiqalarni yozib olish, ko'ngilochar materiallarni tayyorlash imkonini beradi hamda insonlarning dam olishi va hordiq chiqarishga zamin yaratadi

Hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimini raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslari va o'quvchilar uchun mo'ljallangan maxsus multimedia dasturlari, elektron platformalar buning yaqqol dalilidir. Ammo ta'limning birinchi bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim tizimi nisbatan ancha orqada qolgan. O'zbekistonda ushbu muammoning sabablaridan biri sifatida o'zbek tilidagi maktabgacha yoshdagi bolalarga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarining juda kamligini va MTT lari axborot kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanmaganligini keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabr PQ-4884 sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor

vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022 yil 1 yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595 sonli qonunining 53-moddasida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish-ishlab shiqarish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilangan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar S.L.Novoselova, I.Yu.Pashiliti, G.P.Petko, Xanter va M.IJumayevlarning fikrlariga ko'ra ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati maqsadga muvofiqligini, balki bolaning intellekti va shaxsiyatini rivojlantirishda alohida o'rin tutganligini va bugungi kunda multimedia o'qitish vositalaridan foydalanish maktabgacha ta'lim tizimidagi ko'plab uslubiy yangiliklarni ishonchli isbotlamoqda. Ularning fikriga qo'shilib shuni aytmoqchimanki multimedia maxsulotlari bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi, fikrlash doirasi va intellektual salohiyatini o'stiradi va mustaqil bilim olishiga imkoniyat yaratadi.

Ilmiy izlanishlarim natijasida men o'z tadqiqot ishimda asosiy e'tiborni maktabgacha ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llash va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muasasasining Davlat o'quv dasturi talablari asosida "Elementar matematika" mashg'ulotlarini o'qitishga mo'ljallangan elektron ta'lim resursini yaratishga qaratdik va ilmiy izlanishlar olib bordik. 2020-yilda "Maktabgacha ta'limda matematika mashg'ulotini o'qitishga mo'ljallangan amaliy dastur" nomli elektron ta'lim resursini yaratildi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan mualliflik guvoxnomasi olindi. 2021-yilda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi, "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" asosida shakllantirilgan elementar matematika mashg'ulotlar to'plamining kompyuter dasturi yaratildi dasturda to'liq kichik guruh, o'rta guruh, katta guruh, tayyorlov guru bolalariga mo'ljallangan elementar matematika mashg'ulotlarining to'plamini qamrab oladi. Dasturda har bir mashg'ulotga mo'ljallangan multimediali o'quv video roliklar va mavzuni mustahkamlashga oid rivojlantiruvchi kompyuter o'yinlari to'plami joylashtirilgan.

Dasturning asosiy qismi Adobe Flash Player dasturida yaratildi, animatsion video roliklar an Animator, Camtaziya Studio, Format Factory, diktofon dasturlarida foydalanib yaratildi, kompyuter o'yinlar tizimini yaratishda Action Script dasturlash tilidan foydalanildi.

Ta'lim materialining tushunarli bo'lish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o'rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va

namoyish etilishi asosida amalga oshiriladi. Dasturchi elektron ta'lim resursini tayyorlashda ta'lim berish jarayonida o'quv materialining bolaga tushunarli bo'lish tamoyiliga alohida e'tibor berishi lozim. Tanlangan o'quv materiali murakkab bo'lmasligi, osondan qiyinga qarab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi inobatga olingan.

Dasturda bolalarning yosh davrlari ajratilgan bo'lib, har bir yosh davri bo'yicha mavzular "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida alohida joylashtirilgan. Har bir mavzu bo'yicha ma'lumot beruvchi animatsion video roliklar yaratilgan va yosh davriga mos ravishda platformaga joylashtirilgan, har bir mavzuni mustahkamlashga doir 15 ga yaqin interfaol kompyuter o'yinlari kiritilgan.

Elektron platforma orqali bilim berishning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki har bir video rolik orqali mashg'ulot mavzularimultfilmlar orqali bola tilida yoritiladi, bu orqali bolaning bilim olishga ishtiyoqi ortadi.

Kompyuter o'yinlari orqali bolalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarishda xato javobni belgilasada unga kompyuter tanbeh bermaydi, do'stlari orasida izza qilmaydi natijada bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Qolaversa bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ham ushbu elektron platformadan o'rni beqiyosdir. Zamonaviy kompyuterli animatsion, mukammal dasturiy vositalardan foydalanish, uchinchi relesans bolasining zamon talablariga mos ravishda bilim olishiga, mustaqil fikrining shakllanishiga, tafakkur doirasining ortishiga, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishiga, aqliy salohiyatning yuksalishiga xizmat qiluvchi zamonaviy vosita hisoblanadi.

Multimediya vositalari asosidagi maktabgacha bolalarga ta'lim-tarbiya berish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyatlari bor;
- ta'lim-tarbiya olishning yangi sohalari bilanyaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta'lim-tarbiya olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;
- olingan bilimlar kishi xotirasda uzoq muddat saqlanib kerak bo'lgan amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

MTTlarida multimediali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri - bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida "Sichqoncha" yordamida turli ta'lim o'yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga

o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar "Sichqoncha"dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

MTT tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimni baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o'yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari shart.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr-axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishadi. MTTlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'satadiki, 80-90 % bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tas'virdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Ushbu maqolada mazkur masalalarga oydinlik kiritildi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida multimedia maxsulotlarini qo'llash natijalari bo'yicha 2019-2021-yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazgan tajriba-sinov natijalari asosida shunga amin bo'ldimki, raqamli texnologiyalar ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida mashg'ulotlarni tashkiletishda zarur vosita deb hisoblayman. Bunday sharoitda shaxsni shakllantirish avvalgi an'anaviy usullardan tubdan farq qiladi, bu globallashtayotgan axborot makonida maktabgacha ta'lim tizimining sifat jihatidan yangi modelini ishlab chiqishni, hozirgi sharoit uchun zarur bo'lgan va ularga mos keladigan mutlaqo yangi usullarini o'zida jamlagan metodik ishlarni shakllantirishni talab qiladi. Nima bo'lganida ham, zamonaviy pedagogikada raqamli texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish maktabgacha

yoshidagi bolalarning yutuqlarini kafolatlaydi va keyinchalik yuqori sinflarda muvaffaqiyatli o'qishini kafolatlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, ularning aqliy rivojlanish salohiyatini dunyo tendentsiyalari darajasiga ko'tarish davr talabidir.

Nazorat savollari:

1. Muammoli o`qitish deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli o`qitishning zarur shartlari nimalardan iborat?
3. Muammoli o`qitishning osiy belgilari nimalardan iborat?
4. Muammoli o`qitish texnologiyasi darajalari qanday?
5. Muammoli o`qitish texnologiyasining qanday bosqichlari mavjud?
6. Multimediya so`zining ma`nosini tushuntiring
7. Multimediya va uning kelib chiqish tarixini bayon qiling.
8. Maktabgacha ta`limda multimediyalardan qanday foydalaniladi?
9. Multimediya vositalari asosidagi maktabgacha bolalarga ta`lim-tarbiya berish qanday afzalliklarga ega?

Asosiy adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo`stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.

Qo`shimcha adabiyotlar

4. SH.M, Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T 2016
5. SH.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T:, 2016.
6. O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi O`zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
7. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo`llanma T:, 2001
8. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T:. "Aloqachi", 2007 y.
9. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta`lim-tarbita berishning zamonaviy tendentsiyalari. T:, O`ZPFITI 2015

10. Djanpensova, B.Xolmuratova,. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. T., “Innovatsiya-Ziyo”, 2020
11. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T.:BMT bolalar jamg‘armasi (YUNISEF), 2018
12. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk agentligi”.-T.:2020-yil. (elektron darslik).
13. F.R.Qodirova “Nutq o‘stirish metodikasi” O‘UM T.; 2012 y (elektron)
14. Xujayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nashriyoti Toshkent 2011 y
15. Abdullayev A,Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil-300 b.
16. Liviyskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent 1995 yil- 500 b.
17. Xujayev F, Raxmonqulov K.D., Nigmanov B.B “Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” TDPU nashriyoti Toshkent 2008 y

Axborot manbalari

18. www.tdpu.uz
19. www.pedagog.uz
20. www.Ziyonet.Uz
21. www.edu.Uz

8-mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyati

Reja:

1. Bolalar dizayni konsepsiyasining mohiyati va bolalar dizayni texnologiyasi.
2. Kichik yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.
3. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar.

Tayanch tushunchalar: dizayn, bolalar dizayni, faoliyat dizayni

Baxt ko'p qirrali, lekin rang tuyg'usi, yaratish istagi, go'zallik yaratish istagi yo'qolsa, baxtli bo'lish mumkin emas. maktabgacha yoshdagi bolalik- ezgulik va go'zallik daraxtini yetishtirish uchun unumdor davr. Bolalar ishtiyoq bilan kuylaydi va raqsga tushadi, haykaltarosh va rasm chizadi, musiqa va ertaklar bastalaydi, xalq hunarmandchiligi bilan shug'ullanadi. Ijodkorlik bolaga atrofdagi dunyodagi go'zallik va yaxshilikni ko'rishni o'rganishga yordam beradi, bolaning hayotini yanada boy, to'liq, quvonchli qiladi. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalarga mehr-oqibat, sabr-toqat, boshqalarga yordam berish istagini qanday o'rgatish kerak? Qanday qilib unga ota-bobolarining intellektual boyligini etkazish kerak? Bu qobiliyatni – farzandingiz bilan bir tilda – san'at tilida gaplasha olish qobiliyatini qanday yo'qotmaslik kerak?

L.S. Vygotskiy shunday degan edi: "Ijod faqat buyuk ijod qilgan daholarga xos emas. San'at asarlari, ijod, inson tasavvur qilgan, birlashtirgan, yangi narsalarni yaratgan joyda mavjud bo'ladi. L.S. Vygotskiyning bayonotlariga asoslanib, Bolalar dizayni katta salohiyat va rivojlanish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi ijodkorlik, fantaziya va tasavvur. Bolalar dizayni bolaning shaxsini, uning individualligini ochib berishga, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan, erkin, kattalar tomonidan bosimsiz, bolaning o'zini namoyon qilishi, o'zini o'zi rivojlantirishi, hamkorlik qilishi va birgalikda ijod qilishi, faqat insonparvarlik usullari va texnikasi, taqiqlarsiz va kategorik murojaatlarsiz .

Dizayn san'atining dastlabki qadamlari shunchalik soddaki, ular boladan ko'p kuch talab qilmaydi. U materiya olamini kashf etishdan zavqlanadi. Asta-sekin tajriba keladi, ko'nikma shakllanadi va u katta, murakkab ishni o'zi osonlikcha yakunlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq uyg'unlikni shakllantirishga ehtiyoj bor rivojlangan shaxs. O'rganadigan, himoya qiladigan va rivojlanadigan shaxsiyat ma'naviy meros bizning xalqimiz. Bularning barchasi doimiy ahamiyatga ega: go'zallikni ko'rgan va qadrlashni bilgan odam uni saqlaydi va oshiradi, bunday odamlar axloqsiz harakatlarga qodir emas. Shuning uchun bizda bolalar bog'chasi Dizayn darslari - katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati shunchalik dolzarbdir.

Bizning bog'imiz besh yildan beri dizayn bilan tanishish orqali Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ustida ishlamoqda. Qidiruvda noan'anaviy usullar va texnologiyalar, biz dasturlardan foydalanamiz: I. Lykova "Rangli palmalar", "Manbalar", Davydova G.N., Panteleeva G., I. Lykova tomonidan qo'llanmalar, "Rangli dunyo" amaliy jurnali. Dizayn faoliyati bilan tanishish bo'yicha ishda yangi yondashuvlarni ochamiz. Ular bolaning rivojlanishini kuchaytirishga qaratilgan. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni loyihalash faoliyati bilan tanishtirishning dastlabki jarayonini yaxshi asosda quramiz hissiy asos. Hayratlanish, hayrat, san'at bilan tanishishdan xursand bo'lish bolalarda uyg'otilishi kerak bo'lgan tuyg'ulardir. Bolalar bilan ishlashda oldimizga

qo'ygan asosiy maqsad - bolalarni voqelikni kuzatishga jalb qilish, eng muhimini rivojlantirish badiiy ijodkorlik ko'nikmalar, dunyoni rassomning ko'zlari bilan ko'rish, kuzatuvchanlik va e'tiborni shakllantirish, fikrlash erkinligini ta'minlash - bolaga ochiq. badiiy vositalar- uning dunyoga qarashi. Biz muzeylarga tashrif buyuramiz, taqdim etilgan eksponatlar bilan tanishamiz, o'rmonga, bog'ga, shaharga sayohat qilamiz, teatrga, ko'rgazmalarga tashrif buyuramiz, atrofimizdagi dunyoni kuzatamiz, bola uning barcha rang-barangligini kashf etadi, bu kashfiyotdan quvonch oladi va o'z imkoniyatlarini amalga oshiradi. uning qarashlarining timsolidir. Dizayn - bu faoliyat maxsus turdagi turli xil ijod turlarini birlashtirgan badiiy faoliyat: chizish, modellashtirish, qo'llash, dizayn, badiiy ish. Bolalikda badiiy g'oyalar barqaror bo'lib, bola har qanday "rassom", "haykaltarosh", "dizayner" rolini o'z zimmasiga olishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ziyorat qilish uchun mashhur va suyuqli qahramonlar keladi, bolalar rassomlar, haykaltaroshlar hayoti va ijodi bilan tanishadilar, suhbatlar, hikoyalar, fantastik hikoyalar o'tkazadilar, musiqiy va she'riy obrazlardan foydalanadilar. Atamalar, tushunchalar va psixologik yangilik sifatida o'zlashtirilganligini tekshirish uchun biz o'yinlarni o'tkazamiz: "Yosh dizayner", "Kostyumni bezash", "Interyer haqida o'ylash", "Buyumlarni almashtirish", "Quvnoq rang", "San'at" Salon" va boshqalar. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni dizaynda qo'llaniladigan turli xil yangi usullar va texnologiyalar bilan tanishtiramiz: "Scrapebooking", "Remake", "Decoupage", "Sandography". Biz kiyimni modellashtirish qobiliyatini o'rgatamiz, shu bilan birga estetik did, badiiy dunyoqarash, kiyim dizaynini tushunish, ijodiy jarayon, kiyim modellarini yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallash. Bolalar haqida bilim oladilar nazariy asoslar kostyum dizayni; qonuniyatlar haqida vizual idrok kostyumda. Biz arxitektura-badiiy dizayn va ob'ektlarni tartibga solish-bezaklar bilan modellashtirish bilan tanishamiz turli materiallar.

Biz bolalarni tushuntirish, mulohaza yuritish, solishtirish, to'liq javob berishga o'rgatamiz, bolalarimiz nima qilganini, qanday qilganini va natijada nima bo'lganini aytib berishdan xursand. Atrofimizdagi narsalar dunyosi juda xilma-xildir. Bizga uzoq vaqt xizmat qiladigan narsalar bor va keraksiz bo'lib qolganlar ham bor. Ular chiqindilar deb ataladi. Bu va turli xil plastik butilkalar, qopqoqlar, tiqinlar, qutilar shokoladli tuxum, yogurt idishlari, tugmalar, boncuklar, simlar va yana ko'p narsalar, biz kattalar ko'pincha ularni imkon qadar tezroq olib tashlashga va axlat qutisiga tashlashga harakat qilamiz. Ammo, agar siz ularda g'ayrioddiy narsalarni ko'rishga harakat qilsangiz, hatto keraksiz narsalar ham ikkinchi hayotga ega bo'ladi. Siz shunchaki orzu qilishingiz, tasavvuringizni yoqishingiz, buni bolalarimizga o'rgatishingiz kerak. Tabiiy materialning xilma-xilligi (konuslar, boshloqlar, shoxlar, urug'lar, o'tlar va boshqalar) va ishlov berish qulayligi uni maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda keng qo'llash imkonini beradi.



Dizayn - bu faoliyat maxsus turdagi turli xil ijod turlarini birlashtirgan badiiy faoliyat: chizish, modellashtirish, qo'llash, dizayn, badiiy ish. Bolalar ijodini kuzatib, bolaning o'z "boyiligiga" (toshlar, boncuklar, mato parchalari, tugmalar va boshqalar) qanchalik ahamiyat berishini ko'rish mumkin. Bizning fikrimizcha, bu keraksiz narsalar - axlat, axlat, lekin bolalar qo'lida ular haqiqiy "zargarlik" ga aylanadi - munchoq uzoqdan kelgan marvariddir. moviy dengiz, yamoq - malika libosi, o'rash - tropik kelebek. Aynan mana shu g'ayrioddiy narsalarni ko'rish qobiliyatidan biz bolalar dizayn darslarida foydalanamiz. Bog'da go'zallik burchagi (bolalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchilar yoki ota-onalar bilan birgalikda yaratilgan hunarmandchilik), bolalar asarlarining doimiy ko'rgazmasi, ijodiy burchaklar, rasmlar reproduksiyalari, san'at haqidagi kitoblar mavjud. Biz bolalarni turli tadbirlar, ularning xususiyatlari va tarixi bilan tanishtiramiz. O'qituvchilar, bolalar va ota-onalar uyushmasi qo'shma ish ijod dunyosi bilan tanishish ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash masalalarida pedagogik tayyorgarligini oshirishga imkon beradi, oila va bolalar bog'chasi o'rtasidagi hamkorlik shakllarini kengaytirishga yordam beradi. Bizning bog'imizda "Master klasslar", "Ota-onalar-dizayner" o'tkaziladi, ular "Teatr niqobi", "Kandlar mavsumi" loyihalarida ishtirok etadilar. bilan chiqindi materialdan kostyumlar yasagan katta muvaffaqiyat "Bu dunyo naqadar go'zal" taqdimoti, turli materiallardan tayyorlangan qo'l san'atlari, kompozitsiyalar, bolalar va ota-onalar ishtirokida "Miss-2009", hududlarda "Rangli gulzor" bezaklari bo'lib o'tdi. Talabalarning ota-onalari bizga yordam berishdi. yangi texnologiyalarni o'zlashtirishda ko'p. Ular bunga qiziqishadi va bo'sh vaqt guruhga keling va bizga yordam bering. Ota-onalar turli xil materiallarni tayyorlaydilar. Kiritilgan ijodiy loyihalar bog'imizda o'tkaziladi. Ular bolalar bilan o'rmon va parkga boradilar, tomosha qilishadi tabiiy hodisalar. Ular olingan bilim va ko'nikmalarni uyda ob'ektlar tasvirida mustahkamlaydi. Ular bola bilan "qiyin" texnikalarni ishlab chiqishadi. Ota-onalar yordamisiz natijaga erishmagan bo'lardik.

Ijodiy faoliyat jarayonida kichkina usta ko'plab kashfiyotlar qiladi, shaxsiy yutuqlarga erishadi. Ob'ektiv ravishda u mutlaqo yangi, noma'lum narsalarni yaratmasa ham, uning ishining natijasi sub'ektivdir, chunki bu jarayonning o'zi bola uchun uning ustuvorligi yotadi. Natija birinchi va juda muhim qadamdir bolalar ijodiyoti. O'z qo'llaringiz bilan mahsulotlar yaratish universal ta'lim vositasi bo'lib, bir tomonlama intellektual faoliyatni muvozanatlashtira oladi. kichkina odam uni har tomonlama rivojlantirish. Dizayn faoliyatidagi mashg'ulotlar bolalarning ongiga, irodasiga, his-tuyg'ulariga ta'sir qilish, ularni ijodiy o'zini namoyon qilishga undash uchun mo'ljallangan. Ular psixologik muammoni ham hal qilishadi - farzandlarimiz hissiy qulaylik holatiga ega bo'lsin, bolalik quvonchini his etsin. Bu mavzu bugungi kunda dolzarbdir, shuning uchun bolalar bog'chasida bolalar bilan ishlashimiz shiori - his qilish, o'rganish, yaratish! O'qituvchilarni taklif qilamiz maktabgacha ta'lim Tyumen viloyati, YNAO va KhMAO-Yugra o'zlarining nashrlari uslubiy material: - Pedagogik tajriba, mualliflik huquqi dasturlari, o'quv qurollari, darslar uchun taqdimotlar, elektron o'yinlar; - Shaxsiy ishlab chiqilgan eslatmalar va skriptlar ta'lim faoliyati, loyihalar, master-klasslar (shu jumladan video), oilalar va o'qituvchilar bilan ishlash shakllari. Nima uchun biz bilan nashr qilish foydali? Psixologlar insonda tug'ma qobiliyatlarning o'zi emas, balki ularni rivojlantirish qobiliyati ekanligini isbotladilar. Shuning uchun bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning asosiy g'oyalari har bir bolaning qobiliyatini rivojlantirish va amalga oshirish uchun sharoit yaratish, bolaning individual va ijodiy o'sishiga yordam berish, psixologik qulaylik muhitini ta'minlashdir.

Bolalar dizayni - yangi badiiy samarali faoliyat, bu eng keng doiradagi dizayn fikrlash deb tushuniladi. Dizaynda nafaqat g'oyaning rivojlanishi, balki bolaning rivojlanishiga hissa qo'shadigan natijani rejalashtirish ham muhimdir. Ushbu faoliyatning ta'lim jarayoniga joriy etilishi zamonaviy dunyoda odamlarning madaniy ehtiyojlari, bolalarning imkoniyatlari, shuningdek, dastur mazmunini amalga oshirishning eng muhim asosi sifatida e'lon qilingan maktabgacha ta'lim kontsepsiyasining ortishi bilan bog'liq. bolalar faoliyatining rivojlanayotgan sub'ekt muhiti - bolaning jismoniy va ma'naviy rivojlanishining mazmunini funktsional ravishda modellashtiradigan moddiy ob'ektlar tizimi sifatida. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasasida "Origins" maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirishning asosiy dasturini amalga oshirish katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy bezak faoliyati, dizayn madaniyati asoslari bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bolalar bilan dizayn faoliyatining asoslari bilan shug'ullanar ekanman, men maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy didni, o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini shakllantirishga harakat qilaman. ichki dunyo turli materiallar va tasvir texnikasi, dizayn madaniyati elementlaridan foydalanish;

go'zal, uyg'un asarlar yaratish istagi. Bolalar bog'chasi amaliyotida kontseptsiyalarning mazmuni ko'pincha chalkashib ketadi: "grafik faoliyat" (to'qimachilik bilan), "ijodiy dizayn" va "bolalar dizayni" ning haqiqiy faoliyati. Tabiiyki, bu cheklovlar shartli, lekin ayni paytda quyidagilarni ta'kidlash kerak: badiiy va didaktik mashg'ulotlardan so'ng bolalar mahsulotlari papkalar va qutilarga solinadi va keyin talab qilinmaydi - bu bolalar dizayni emas. Shunday qilib, bolalar ko'rgazmasi (interyer, dekor va ko'ngilochar bayramlar uchun liboslar (masalan, ularning ishtirokida yaratilgan) bolalar dizayni ob'ektlari bo'lishi mumkin (dekorativ va dizayn faoliyati). Shu bilan birga, professional dizayn bolalar dizayni bilan umumiy xususiyatlarga ega, ya'ni vizual faoliyat va dizayn. Bular: ijodiy mahsulotning o'ziga xosligi va o'ziga xosligi; sensorli standartlar tizimi bilan tanishish, modulli dizayn printsiplari asoslari; rejani bajarishning birgalikdagi alohida tabiati; mavzu va fazoviy-dekorativ xarakterga ega loyiha faoliyati; shunga o'xshash materiallar va texnikalardan foydalanish; professional va "bolalar" san'atining badiiyligini baholashga umumiy yondashuv; o'z-o'zini ta'minlash bolalar ijodiy mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi (dizaynarni eksklyuziv izlash).

Dizayn san'ati hayotga faol kirib bormoqda. Agar "bolalar uchun dizayn" tendentsiyalardan biri bo'lsa kasbiy faoliyat rassom-dizaynerlar, keyin "bolalar dizayni" bilan bog'liq dekorativ faoliyat bolaning o'zi uni o'rab turgan ob'ekt-fazoviy muhitni yaxshilash bo'yicha. Bolalar atrofdagi o'zlariga yoqadigan yoki yoqtirmaydigan ob'ektlarga e'tibor berishadi, ularning rangi, shakli, o'lchami, nisbatlarining xilma-xilligiga e'tibor berishadi. Ular o'simliklar va minerallarni to'plashlari, qog'oz, matolar va foydalanishlari mumkin sintetik materiallar, hayotingizni bezash uchun ulardan aranjirovkalar (guldestalar, gerbariyalar, gulchambarlar) va majoziy kompozitsiyalar yarating. Badiiy va rolli o'yinlar bolalarni qo'g'irchoqlar uchun shkaf (ko'ylaklar, shlyapalar, poyabzallar), tomoshalar uchun dekoratsiya, o'yin-kulgi va bayramona ertaklarni qidirishga undaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar xarakterli kostyumlar, kiyim-kechak va tashqi ko'rinish tengdoshlari va kattalar, toza va oqilona kiyingan taqlid. Kiyim va xulq-atvoriga qarab, ular odamlarning yoshi va kasbi, didi va turmush tarzini baholay oladilar. Bu yoshda bola qo'g'irchoq xonalarining jihozlarini nafaqat mo'ljallangan maqsadlari uchun (yashash xonasi, oshxona-ovqat xonasi, yotoqxonasi) tanlashi mumkin. Xonalarning (uyda, bolalar bog'chasida) bezaklarini kuzatish va baholashda bolalar o'zlari uchun mavjud bo'lgan estetik birlik tamoyillarini (xizmat, mebel to'plami, dekor ansambli) va bezakning badiiy tasvirini o'tkazadilar. o'z amaliyoti qo'g'irchoq o'yinining ichki qismini yaratish. Bolalar uzoq vaqt davomida yaratilgan ko'p qirrali me'moriy va badiiy kompozitsiyalarni ("Sehrli shaharcha", "Qor malikasi saroyi", "Mo'jizalar mamlakati", "Uch ayiq", "Rus uyi" va boshqalar) yaratishda ishtirok etishlari

1-Mavzu rejasi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari

Mavzu rejasi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirishning texnologiyalari
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari

Mashg'ulot maqsadi:

1. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fanining maqsad va vazifalari o'rganish
2. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishga oid nazariy ishlarni tadqiq qilish
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatda *maktabgacha ta'limga oid me'yoriy hujjatlarining ahmiyatini o'rganish.*

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatni *rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish*.

Mashg'ulotning vazifasi: Bolalarning jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish, ularning salomatligini muhofaza qilish, bolalarning erkin fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, har tamonlama barkamol bo'lib yetishishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

1- Topshiriq: FSMU texnologiyasi

Savol	Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish qanday ahamiyatga ega ?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

2-topshiriq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish ga oid nazariy ishlarni klaster metodi yordamida tushuntiring.

3-topshiriq. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari tahlili boyicha taqdimot tayyorlang.

Pedagogik vazifalar:

- Mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- darsliklar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- axborotlarni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

O'quv mashg'ulotida foydalanilgan ta'lim metodlari: klaster, taqdimot metodlari

Mashg'ulot jihozi: ma'ruza matni, mashg'ulot ishlanmasi, ko'rgazmali jadvallar, tarqatma materiallar, test savollar va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish bu?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirishning texnologiyalari?
3. MTT da ta'lim va tarbiya berish mazmuni.
4. MTT da ta'lim va tarbiya metodlari bu?

Asosiy adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. SH.M, Mirziyoyev, “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T 2016
5. SH.M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T:, 2016.
6. SH.M. Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi” T.: 2016 y.
7. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
8. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. Toshkent 2010 Cho‘lpon nashriyoti.
9. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma T:, 2001
10. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T:. ”Aloqachi”, 2007 y.

Axborot manbalari

11. [www. tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
12. [www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www. Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
14. www. edu.Uz

Mudiraning ta’lim-tarbiya jarayonlariga rahbarlik qilishining asosiy yo’nalishlari:

- 1) har bir guruhdagi ta’lim-tarbiya ishlari reja asosida tashkil etilishini nazorat qilish, tarbiyachining ish hujjatlarini, jumladan, guruhning ta’lim-tarbiya ishlari rejasi, diagnostika daftari, amalga oshirilgan ishlar hisobotini o’rganish va tahlil etish;
- 2) guruh xonalarining jihozlanishi, ularning tegishli o’quv qo‘llanmalari, ko’rgazmali vositalar, o’yinchoqlar bilan ta’minlanishini nazorat etish.

MTMdagi ta’lim-tarbiya jarayonlari tarkibiga:

- mashg‘ulotlar (o’quv faoliyati);
- o’yin faoliyati;
- mehnat faoliyati;
- sayr va ekskusiyalar kiradi.

O’quv faoliyatini tashkil etilishini nazorat qilish:

Tarbiyachining mashg‘ulotdagi tashkiliy faoliyati:

- mashg‘ulot konspektining ahamiyatligi;

- ko'rgazmali qurollar bilan jihozlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligi;
- mashg'ulotni tashkil etishga qo'yiladigan psixologik va gigienik talablarning bajarilishi;
- vaqtdan foydalanishning samaradorligi;
- butun mashg'ulot. Uning qism va bosqichlarining davomiyligi.
- didaktik printsiplarga amal qilishi;
- bolalarning o'zlashtirish darajasi bo'yicha tabaqalashtirishga e'tibor qaratishi;
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida belgilangan mazmunning bajarilish darajasi (didaktik maqsadga erishish);
- mashg'ulotda foydalanilayotgan metodlarning optimalligi;
- mashg'ulot mantig'ining bolalar yoshi va rivojlanish darajasiga muvofiqligi;
- ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash darajasi. Pedagogning mashg'ulotdagi tarbiyaviy faoliyati:
- mashg'ulotning g'oyaviy yo'nalganligi;
- bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari qay darajadahal etilganligi;
- mashg'ulotni bolalarga estetik ta'sir darajasini, boshqa tarbiyaviy imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash asosida analiz qilish. Mashg'ulotlarda pedagogning shaxsga oid sifatlarining namoyon bo'lishi:
- tarbiyachining nutqi (tempi, diktsiyasi, emotsionalligi, ifodaliligi);
- pedagogning madaniyati, odobi, bolalarga nisbatan tutgan pozitsiyasi;
- mashg'ulotlarda gurug'ga pedagogik rahbarlik uslubi (avtoritar, demokratik, liberal);
- pedagogning mashg'ulotlardagi tashqi ko'rinishi.

O'yin faoliyatini nazorat qilish. O'yin faoliyati uchun sharoitlarning ta'minlanganligi:

- ✓ o'yin uchun vaqt miqdorining etarliligi;
- ✓ o'yin faoliyatini kengaytirish uchun joyning, zarur o'yinchoq va qo'llanmalarning mavjudligi va xonada ularni to'g'ri joylashtirilishi; bolalarni taassurotlar bilan boyitish va ularning yaxshi kayfiyatleri. O'yin faoliyatiga rahbarlik qilish metodikasi:
- ✓ bolalarning emotsional-ijobiy holatlarini qo'llab-quvvatlash va yaxshilashga yo'llangan metodlar va usullar;
- ✓ o'yin ishtirokchilarining faolligini ta'minlash;
- ✓ faoliyatning bir turidan boshqasiga o'z vaqtida o'tish, bunga qanday metod va usullar bilan erishiladi;
- ✓ o'yin faoliyatini uzaytirish va murakkablashtirish;
- ✓ ijobiy o'zaro munosabatlar va boshqa axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

Mehnat faoliyatini nazorat qilish:

- rejada bolalar mehnatining barcha turlari aks etganmi (maishiy-xo'jalik mehnati, qo'l mehnati, tabiatdagi mehnat);
- mehnat jarayonlari qaysi rejim¹⁹⁷ vaqtlariga rejalashtirilgan (nonushtagacha, mashg'ulotlarda, sayrda, kechki vaqtlarda);

- tarbiyaviy masalalar rejada qanday aks ettirilgan (mehnatsevarlik, mas'uliyat, o'zaro yordam...);
- mehnat faoliyatiga rahbarlik usullarining rejalashtirilishi;
- bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish metodlarining xilma-xilligi;
- mehnat rejasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi talablariga muvofiqligi; ota-onalar bilan ishlash.

MTTda mudira faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

1. MTTda ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.
2. Pedagogik hujjatlarni yuritish.
3. Yosh tarbiyachilarga metodik yordam ko'rsatish.
4. Ta'lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni nazorat qilish.
5. Bolalar hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llanilishini ta'minlash.
6. O'quv faoliyatini kuzatish va tahlil qilish.
7. Pedagogik Kengash, seminar va konsultatsiyalarni tashkil etish.
8. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirish.
9. Bolalar bog'chasi, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yish.
10. Metodik kabinetni jihozlash va uning faoliyatini yo'lga qo'yish.

Rejalashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishni uning barcha bo'linmalarida rejali, muntazam va samarali ishlashini ta'minlovchi muhim funksiyasidir. O'zbekistonda ta'lim tizimining isloh qilinishi davlat talablari, dasturlari, rejalashtirishlarni fan-texnika taraqqiyotining talablari, bolalarning xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab etadi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashishni hamda butun pedagoglar jamoasining intilishlarini koordinatsiyalashni ta'minlovchi rejalashtirishning yagona talablarini ishlab chiqish zarur va mumkin.

Rejalashtirishdan oldin MTTdagi ta'lim-tarbiyaviy ishlar holati har tomonlama va chuqur tahlil qilinadi. Uning yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi, yaqin kelajak uchun dolzarb vazifalar belgilanadi. MTT ishini aniq rejalashtirish jamoaga asosiy vazifalarni doimo diqqat markazida tutish imkonini beradi.

I. Guruh tarbiyachisining ish hujjatlari:

1. Bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning kalendar rejasi (1-2 haftalik).
2. Maxsus chiniqtiruvchi tadbirlarni hisobga olish.
3. Guruh ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari.
4. Ota-onalar va bolalar haqidagi ma'lumotlar.
5. Bolalarning davomat tabeli.

II. Musiqa rahbarining ish hujjatlari:

1. Bolalar bilan haftalik ishning kalendar rejasi.
2. Bo'sh vaqt va ko'ngil ochishlarning kvartal rejasi.
3. Tarbiyachilar bilan ishlash haftalik rejasi.

Guruhlardagi ishlarni rejalashtirishning asosi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'lib, unda tarbiyachi¹⁹⁸ ishining vazifa va mazmuni ikki bo'limda:

bolalar hayotini tashkil qilish va ularni tarbiyalash hamda mashg'ulotlarda o'qitishda berilgan.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga oid Davlat talablari asosida hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

Dastur tarkibiga **Bolaning kompetensiyalari** bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi¹.

O'quv-tarbiyaviy faoliyat ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o'quv rejasiga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi².

O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O'quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

- yillik mavzuviy;
- haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadi. Faoliyat turini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohaları bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi.

¹ Dasturga 2-ilova

² Dasturga 3-ilova

Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. SHuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

Yillik mavzuviy reja.

Yillik mavzuviy rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zining yillik mavzuviy rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuviy reja maktabgacha ta'lim muassasasining Pedagogika kengashida tasdiqlanadi³.

Haftalik reja

Haftalik reja yillik mavzuviy rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi⁴. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik guruhda * katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog'ga borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja – bu tarbiyachining ish jurnali va mashg'ulotlar konspekti.

Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- titul varag'i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;
- ertalabki badantarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo'lgan ta'lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;
- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

⁴ Dasturga 3-ilova

⁴ Dasturga 4-ilova

Mashg'ulotlar konspektlarida maqsadlar, faoliyatning qisqacha ta'rifi, zaruriy jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy xarakterga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o'zgartirilishi mumkin.

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'z-o'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. SHu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, **bola rivojlanishini kuzatib borish** pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim faoliyatini rejalashtirish ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi. Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O'zbekiston Respublikasining ilk va maktab yoshidagi bolalar rivojlanishiga oid Davlat talablarida aks ettirilgan sohalar va soha ostilari hamda kutilayotgan natijalar olingan (malaka va ko'nikmalar).

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:

maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim; muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Tarbiyachilar shu yo'nalishlarga asoslanib:

- bolalarda xulq-atvor va madaniy gigenik malakalarni tarbiyalash ishini rejalashtirish;
- bolalar o'yinlariga rahbarlikni rejalashtirish;
- mehnat faoliyatini rejalashtirish;
- mashg'ulotlarda o'qitishni rejalashtirish;
- ertalabki soatni rejalashtirish;
- sayrni rejalashtirish;
- kunning ikkinchi yarmini rejalashtirishni amalga oshiradilar.

Shuningdek, dasturda turli yosh guruhlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning yillik jadvali berilgan. Tarbiyachi ana shu jadval asosida o'z ishini rejalashtiradi.

Savol	Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida bugungi kunda ta'lim va tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega ?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

**4-topshiriqni bajarish texnologiyasi:
“Ikki qismli kundalik” metodi**

MTT da bolalarni rivojlanish sohalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish. rivojlanish sohalari.	Izohlar (ta'rifi, mazmuni va boshqa ma'lumotlar)
1.	
2.	

MTT da mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rni va ahamiyati .

	Maqsadi	Vazifalari
Davlat talablari		

Qisqa ma'ruza

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Talabani dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

Talaba talabani bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

Pedagog va talabani hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tuqilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llaybilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slasyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar. V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova **innovatsion jarayon tuzulmasining** uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathjari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(alदानish) — zamonaviylashtirish;
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalantirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va himmatini keng yoyadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

- Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

- Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'psub'ekli (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - ta'biya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada eng bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik **aksiologiya** ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ananov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoh ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z hatti-harakati.

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayri odatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N. V. Vishnekova).

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash.

Shu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsifiyadigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrning ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya.)

M.N.Gnatko kreativlikni kishining ijodiy imkoniyati, sotsial — ijodiy faollikni namoyon qila olish qobiliyati bilan shartlangan kishi individlarining qandaydir maxsus xislati deb qaraydi.

Ijod tushunchasini belgilashda u jarayon — natija tavsifidan, kreativlikni belgilashda esa sub'ekt — shartlilik tavsifidan foydalanadi.

Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi V.A.Kan-Kalik, Ya.A.Ponomarev, S.Yu.Stepanov, T.V.Frolov va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan.

D.B. Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilab berilgan. Bunday birlik sifatida muallif intellektual faollikni ko'rsatadi hamda uning uchta bosqichini ajratadi:

- shaxsning bu bosqichiga, unga tashqaridan berilgan vazifalarni tashabbusiz qabul qilish xarakterlidir;
- intellektual faollikning evristik bosqichi. Bu bosqichda o'z faoliyati tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish davom etadi, yangilik ochish oqilona hal qilishga imkoniyat beradigan ayrim vazifalar qiyoslanadi;
- intellektual faollikning kreativ bosqichi. Bu bosqichda qo'lga kiritilgan empirik qonunlar kelgusi tadqiqotlar uchun maqsad bo'lib qoladi.
- rag'batlantiruvchi, samarali va evristik bosqichga qoloq (ekstensiv) aqliy faoliyat, kreativ bosqichga intellektual faoliyat xosdir.

N.M. Gnatko kreativlik mexanizmlarini quyidagi bo'limlarga bo'lib o'rganishni taklif etadi:

- potensial kreativlik;
- faoliyatdagi kreativlik.

Potensial kreativlik N.M Gnatkoning fikricha, muayyan tashqi sharoitlarda faol kreativlikka aylanishga nazariy tayyor shaklda namoyon bo'ladigan individium ning potensial joylashishini anglatuvchi kreativ faoliyatdir. Potensial kreativlik ijodning zaruriy sub'ektiv shartidir.

Faoliyatdagi kreativlik -

faoliyatning biror turida ijodiy faollik ko'rsatuvchining bevosita tayyorgarligini ta'minlaydigan faoliyatning u yoki bu turi tavsifli potensial kreativ individiumning individual tavsiflari aloqalarini yuzaga keltiradi. Faol kreativlik ijodning eng muhim sub/ektiv shartidir (N.M.Gnatko).

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, potensial kreativlik, amalga oshirish mumkin bo'lgan kreativlikdir. Uni faoliyatdagi kreativlikka o'tkazish muayyan faoliyat turini tashuvchi (sub'ekt) tomonidan uning o'zlashtirilishida tub o'zgartirishlar qilish orqali amalga oshadi.

V.A. Slastenin, N.M.Gnatkoning potensial kreativlikni muntazam faoliyatdagi kreativlikka tahlid qilish asosida o'zgartirib borish haqidagi qarashlariga qo'shilgan holda uni to'ldirib, kreativlik tahlid qilish, nusxa olish yo'li bilan rivojlanadi hamda tahlid qilish asosidagi ijod, haqiqiy ijodga olib keladi, deb hisoblaydilar.

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin: birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina

ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda esa o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyaadir.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyaasi.

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqilaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) subektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni, deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: «Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

V.A.Lefevr ta'kidlagan ediki, inson o'zining hatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo'lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning hatti-harakatlarini o'rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

M.V.Klarin ijodiy tafakkur xususiyatlarini refleksiya bilan boqlaydi. Bunday o'zaro aloqalarda refleksiya o'zida xulosa chiqarish, umumlashtirish, analogiya, qiyoslash va baholash hamda muammolarni eslash, eng olish va hal qilishlarni birlashtiradi.

V.A.Petrovskiy refleksiya faoliyati tahlilida uning ikki turini farqlaydi:

- retrospektiv;
- prospektiv.

V.A.Petrovskiyning aniqlashicha, retrospektiv refleksiya bu «sodir etilgan fa oliyat tarixining retrospektiv tiklanish shaklidagi refleksiyaasidir».

Prospektiv refleksiya - bu faoliyatning amalga oshishiga bo'lgan talabning hukm surish dinamikasi.

S.Yu. Stepanov, I.N. Semenov ishlarida intellektual va shaxsiy refleksiyalar farqlanadi. V.V.Davidov o'z tadqiqotlarida formal va mazmun refleksiyasini asoslab berdi. I.S.Ladenko analitik va sintetik refleksiyani farqlaydi.

Demak, o'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi motivasion, kreativ, texnologik va reflektiv komponentlardan iboratdir.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me'yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - *innovatsion pedagogikani* maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar g'arbiy evropa va AQSHda 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A. Slastenin, A.I.Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan, X.Bamet, Dj. Basset, D. Gamilton, N.Gross, R. Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Keng ma'noda qaraganda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish - bu pedagogik innovatsiyadir. Pedagogik innovatika pedagogik yangiliklarni baholash, uni pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirilishiga erishish, nig'oyat pedagogik yangiliklarni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Pedagogik neologiya - yangilik haqidagi ta'limot bo'lib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi va umumlashtiriladi.

Pedagogik aksiologiya - isbot talab qilmaydigan ta'limot manosini ifodalab, bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi.

Pedagogik praksologiya - amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot bo'lib, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklar amaliyotda qo'llaniladi.

Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati, oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir.

Shu jihatdan ushbu mavzyda oliy maktab o'qituvchisi innovatsion faoliyatining shakllanish konsepsiyasi, innovatsiyaning ijtimoiy-madaniy va hayot-faoliyati aspektlari haqida bahs yuritiladi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng hamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usularini echishni aniqlashga qaratilganidir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar, an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- (o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish).

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi.
- bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;
- mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashqurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiradi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

V.A.Slastenin o'tkazgan tadqiqotlar o'qituvchining innovatsion faoliyatga kasbiy tayyorgarligini aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ular quyidagi tavsiflardan iborat:

- mo'ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqiyatini bashorat qilish;
- kelgusida qayta ishlash maqsadida yangilikning o'zidagi va uni tatbiq qilishdagi kamchiliklarni aniqlash;
- yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorlarini tanlab olish, ularning eng ahamiyatli va pishqlik darajasini aniqlash;

- yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish;
- yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsiya qobiliyatiga baho berish.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivasion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;
- kreativlik. Bu — hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;
- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy
- bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;
- o'qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat surati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qatiyatlilik, o'ziga ishonch; ma'suliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;
- shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;
- innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;
- innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;
- kasbiy refleksiya bo'lgan qobiliyat.

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng hamrovli qiziqish va mashhullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;
- yangicha harakat qila olishga o'rgatish.
- Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlarni tashkil etish tamoyillari. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quyidagilar.

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Pedagogik o'yinlar

1. O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga — «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- (o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mavnun) — ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlaiga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, taibiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya,

optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatni motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan boglanadi.

4. Didaktik o'yinlarni turlari (psixotexnik, rolli). Rolli va ishbilarmon o'yinlar.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan.

Amaliy vazifa va muammolarni echishdagi talabalarning umumiy faoliyatini tashkil etishning samarali shakli tadbirkorlik o'yinlaridir. Ma'lumki, tadbirkorlik o'yinlari talabalarning kollektiv faoliyatini tashkil etishni bildiradi. Bu jarayonda uning bo'lg'usi kasbiy faoliyatining ashyoviy va ijtimoiy mazmuni yaratiladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining pedagogik samaradorligi natijasi ko'p jihatlardan o'yinning ssenariysini ishlab chiqish va uning tayyorlanish sifati bilan belgilanadi. Tadbirkorlik o'yinlari talabani amaliy tayyorlashning pedagogik vazifalari tizimini echishga qaratilgan bo'lishi lozim. Bularga birinchi navbatda: real kasbiy faoliyat sharoitida qo'llanadigan amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish; amaliy vaziyatlar va shunga mos harakat usullarini ishlab chiqishni tahlil qiladigan fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish guruh (jamo) faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlaydigan qobiliyatlarni shakllantirish taalluqlidir.

O'yinning mazmuni va tuzilmasi shunday shakllanishi va shunday ruzilishi kerakki, unda shunga mos malaka va qobiliyatlar har bir ishtirokchida butun o'yin

davomida shakllansin. O'yinning pedagogik vazifalari ssenariyda aniq aks etishi shart.

O'quv vaziyatini modellashtirish bo'yicha tadbirkorlik o'yinlarini tayyorlashda murakkab amaliy vazifalarni (muammolarni) echishga qaratilgan kasbiy faoliyat mazmuni tanlanadi. Bunda mos vazifalarni tahlil qilib chiqish, uni echishda ishtirok etadigan rahbarlar va ijrochilarni, ularning vazifalari, o'zaro munosabatlari tartibi, vazifani samarali echishning ibtidosi bosqichlari va me'yorlari, unga kerak bo'ladigan texnik vositalar, me'yoriy, ehtiyoj (spravochnik), metodik va boshqa manbalarni aniqlash zarur.

Oliy maktab amaliyotida **tadbirkorlik o'yinlariga** alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan. Tadbirkorlik o'yinlari mashqur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperinlarning isllilarida nazariy asoslangan. Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitasion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A. Verbiskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir suniy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbiskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni talabanibir etakchi faoliyatini (o'quv)dan boshqa(kasbiy) tipgafaoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv material mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'zinning ta'limiy va larbiyaviy samaradorligi yigindisi;

- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o'z hatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

A.S. va G.F. Arbenevlar tadqiqotlarida tadbirkorlik o'yini mutaxassisning evristik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlaridan bin sifatida baholanadi.

Atyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'i nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi. Bunda o'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;
- o'qitishning muammoliligi;
- metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligi.

Tashkiliy o'yin aslida tobora takomillashib boruvchi o'qitishni ta'minlashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to'liq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya'ni qandaydir vaziyat yechimiga bo'lgan yondashuvdan topilgan yechimning umumlashtirilgan bahosiga o'tiladi.

A.A. Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarini qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yinning asosiy syujet mavzusi bo'yicha o'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi.
- amaliy guruhlarning ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- o'yin jarayoni va ishtirokchilar hatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- yechimni tashkil etish bosqichi.

Ya.S. Ginzburg va N.M. Koryak o'yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqilaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo'lmaslik xarakteri;
- belgisizlik (mavhumlik), tarqlanuvchanlik xususiyati

Tadbirkorlik o'yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;
- rollarni taqsimlash;
- o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;

- nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

I.Olloyorov tadbirkorlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq boyigan, aniq belgilangan didaktik funktsiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik o'yinlarining didaktik funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;
- o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;
- talabalar o'quv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib berishi.

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshiriqi shaklida qo'yish:

- bo'lg'usi tadbirkorlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;
- muammoli vaziyatni anglab etish;
- talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish;

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan va avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- talabalarning o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;
- bajarilishi lozim bo'lgan ish to'grisida talabalarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;
- olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish.

3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

- ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;
- avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;
- rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosidagi reja bo'yicha ishlarni bajarish:

- yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
- o'z hatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish.
- qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish
- belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;
- yakuniy natijalarni tekshirib ko'rish va taxlil qilish.

7. Talabalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8. Talabalarning tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9. Talabalarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tuqilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan stsenariy bo'yicha talabalarning tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi hamda o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o'yinlaridan yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:

Imitatsion o'yinlar.

Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin.

Stsenariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeyiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning hulqi, hatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va ular bilan muloqot o'rnatishga o'rgatishdir.

Psixodrama va sosiodrama. Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari texnologiyasi.

Bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z ichiga oladi. U stsenariyni yozib chiqish, vaziyat va ob'ektlarni shartli belgilar asosida tasvirlashdan boshlanadi. Stsenariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayotgan muammoning tavsifi, qo'yilgan vazifani asoslash, o'yinning rejasi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifti o'z ichiga oladi.

O'yinga kirishish. Bu bosqichda ish rejimi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash asoslanadi.

O'tkazish bosqichi. U o'yin jarayonidir. O'yin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

Tahlil bosqichi. O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi. O'zaro fikr almashinib bo'lingach, talabalar o'z hatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

Shunday qilib, tadbirkorlik va evristik o'yinlar bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy-ijodiy tajribalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Oliy maktab muammolarining tadqiqotchilari quyidagi tadbirkorlik va evristik o'yin turlarini farqilaydilar:

1. Mutaxassislar orasida o'z vazifalarini, dasturlar va rollarini ta'lim qilish asosidagi tadbirkorlik va evristik o'yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:

- kelgusida ishlash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarni va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo'lgan «vazifa tadqiqotchilari»;
- ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi «faallashtiruvchilar»;
- ilmiy muammoning yechimiga yordam beradigan yo'llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi «g'oyalar ishlab chiquvchi» talabalar;

- g'oyalarning tugilishiga va ulaming boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan «rezonator» (tarqatuvchi), talabalar;
- muammoni echishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan «nazoratchi» talabalar.

Bunday o'yinlarni muayyan ob'ektda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Rahbarlar va o'qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo'yadilar. Masalan, agar o'yin konstruktorlik byurosining tuzilmasini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, quyidagilar belgilanadi:

- «KB boshligi»;
- «Bosh konstruktor»;
- «Ixtirochi»;
- «Opponent»;
- «chizmakash»;
- «tekshiruvchi»;
- «maslaqatchi»;
- «nazoratchi» va b.

Shundan so'ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- har birining egallaydigan vazifalari va hatti-harakatlari bahosi bo'yicha yo'riqnoma;
- o'yin jarayonining asosiy davriyligi bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.
- O'yin jarayonida tortishish, musobaqalashish (bahs-munozara yuritish), ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur.

O'yin o'tkazish chohida «buyurtmachi» rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirlarning bajarilish sifatiga va bu tadbirlarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhning hamda alohida talabalarining rol ijro etishi bahosi chiqariladi.

Bunday o'yinlarni tashkil etish bo'lg'usi mutaxassis qobiliyatini diagnostika qilishni taqozo qiladi. Shu maqsadda talabalarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi. Chunki har bir talaba u yoki bu rolda o'z imkoniyatlarini sinab ko'ra olsin, ya'ni «oddiy»dan «KB boshlig'i» darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilsin.

2. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va rol o'yinlari.

Masalan, «*Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'ruza, munozara*» tarzidagi o'yin.

Bu o'yindagi asosiy rollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Boshlovchilar» - o'qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassisi;

«Peshqadamlar» - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo'yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

«Bezakchilar» - peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko'rgazmali tasavur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o'yin ishtirokchilari.

«Assistentlar» peshqadamlar yordamchilari bo'lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko'rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o'yin ishtirokchilari.

«Rasmiy opponentlar» - peshqadamlarning maruzasi va boshqa materiallar bo'yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

«Norasmiy opponentlar» - muammo bo'yicha guruh bo'lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar - o'yin ishtirokchilari;

«Chalg'ituvchilar» - korxonalar yoki ilmiy muassasada qo'shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o'yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo'ladigan savollar qo'yishi lozim bo'lgan o'yin ishtirokchilari. Korxonalar yoki ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalari bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

«Registratorlar» - munozaralarni yozib oluvchi o'yin ishtirokchilari;

«Ekspertlar» - ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va yechimning guruh bo'lib qabul qilinishi bo'yicha obektiv baho beruvchi o'yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxonalar va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o'yinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- bo'lgusi mutaxassisni axborotlar almashishga o'rgatish;
- ularda o'z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g'oyalari kirib bora olish, guruh bo'lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

O'yin-munozaralar bo'lg'usi mutaxassisda ilmiy-ishlab chiqarish muammosini bilish va echishga, mustaqil fikrlashga, obektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi hamda muammolarni qo'yish, uni muhokama qilish, ularni echishda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin- munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslar tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Bahs muammoni muhokama qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati (raqibi)ning fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyasini o'rnatadi.

Bahs munozara borishining turli variantlari mavjud:

*Evristik yondashuv*da tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u, sog'lom aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga oqdirib oladi.

*Mantiqiy yondashuv*dagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil-isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar.

So'fiyona yondashuv. Unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin.

Avtoritar yondashuv. Unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalanib, o'z nuqtai nazarini o'tkazishi mumkin.

Tanqidiy yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi.

Dogmatik yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

Pragmatik yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchungina bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi.

Bahsni o'tkazishda quyidagi qoidalarga ahamiyat berish lozim:

- opponentning o'z fikrini asoslovchi so'zini tinglab, kuzatib borishi;
- opponentini so'zlashdan to'xtatib qo'yishga shoshilmasligi;
- mayda-chuyda detallarga e'tibor qaratmasligi, eng muhimini ko'rishga, tushunishga harakat qilishi;
- kuchsiz ctrinlar, dalil-isbotlar, misollarni topish va tahlil qilish;
- opponentini o'zidan kuchli deb hisoblamaslik;
- o'ziga haddan tashqari bino qo'yish va ishonishga ruju bermaslik;
- Qo'rqish raqib oldida mag'lubiyat ekanligini esda tutish.

Rollarga bo'lib ijro etiladigan o'yinlar. Bu usulni bir fan, bir tsiklga kiruvchi fanlar yoki bir auditoriyada dars beruvchi turli fan o'qituvchilari amalga oshirishlari mumkin. O'qituvchilarning o'yinlarda o'z ixtiyorlari bilan qiziqib ishtirok etishlari bu usulning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Ishtirokchilar soni 4-6 kishidan iborat bo'lishi etarli. O'qituvchilar talabalar qiyofasiga kirib, ularning idroki, reaksiyasi va ular dars davomida duchor bo'ladigan qiyinichiliklarni anglatuvchi harakatlarni bajaradilar. O'yin natijalari asosida o'qituvchilar faoliyati ham modellanadi.

3. Imitatsion-rollarga bo'lib modellash. Bu usulda 4-6 kishidan iborat o'qituvchilar guruhi talabalar qiyofasiga kiradilar hamda o'qituvchi ular bilan aniq o'quv maqsadlari va mezoniy yo'nalgan testlar bo'yicha mashg'ulot o'tkazadi. Talabalarning fikrlashdagi harakat modellari yaratiladi va ular alohida

kartochkalarga yoziladi. O'qituvchi qiyofasini bajaruvchi o'yin ishtirokchilarining o'z hatti-harakati, fikrlashining borishi bo'yicha bergan ma'lumotlarni saralab kartochkalarga yozib boradi. Shuningdek, kartochkaga o'z hatti-harakatlarini ham yozib boradi.

So'ngra o'qituvchi va «talabalar» faoliyatining umumiy manzarasi va har bir ishtirokchi fikrlashining borish sxemasi chizmakashlik varaqiga tushirilib, darsning o'ziga xos sxema-diagrammasi yaratiladi.

Bu usul alternativ (turli variantli) rejalarni sinab ko'rishda, ularga tegishli tuzatishlar kiritishda qo'llaniladi va bu bilan haqiqiy o'quv jarayonini ixchamlashtirib, uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

5. Didaktik o'yinlarni vazifalari (egallangan bilimlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni egallash, kasbiy tayyorgarlik).

Namuna «Bahsda g'olib kelish san'ati» (P.I. Pidkasistoy tomonidan ishlab chiqilgan) o'yini.

Bu o'yin 2,3 soatga mo'ljallangan.

O'yinning maqsadi — talabalarning bahs-munozara olib borish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash.

Munozara — bahsning muammolari. Bahs-munozaraga olib ciqiladigan muammo talabalar uchun dolzarb va qiziqarli bo'lishi kerak.

Namuna tariqasida quyidagi savollarni qo'yish mumkin:

- 1.Mening ijodiy, raqobatbardoshlik shaxsiyatim g'oyasi qanday?
- 2.Shaxsning ijodiy, ziyolilik, raqobatbardoshlik xususiyati nimalarda ko'rinadi?
- 3.Shaxsning mustaqil rivojlanish jarayonini men qanday tasavvur qilaman.
- 4.Bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida o'zimni qanday unga bahshida qilaman.

O'yin ishtirokchilarining rollari va vazifalari.

Boshlovchi — o'qituvchi o'yinning ma'nosi, asosiy bosqichlari va ishtirokchilarning vazifalarini aytib beradi.

Ikki raqobatbardosh 7-10 kishidan iborat guruhlar yuqoridagi savollar bo'yicha munozaraga kirishadilar.

Boshlovchi - o'qituvchi o'yinni lozim topgan oqimga yo'llab turadi, uning a'zolari faolligini ta'minlab turadi, munozaraning to'g'riligini kuzatadi, unga yakun yasaydi.

Ekspert — talabalar munozara ishtirokchilariga baho beradi, guruhga va uning a'zolariga quyidagi me'yorlarga asoslangan holda baho qo'yadi:

a) ifodaning mantiqiyliigi va asoslanganligi; b) nutq madaniyati, notiqlik san'ati usullarini egallaganligi; v)xulosalarning isbotliligi; g) bahs usullaridan rang-barang va samarali foydalanishi; d) savollar g'o'ya olishi.

O'yin bosqichlari:

Birinchi bosqich tashkiliy bosqichdir. Unda raqobatga kirishuvchi jamoalar va ekspertlar guruhi shaldlantiriladi. O'qituvchi o'yinning maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi.

Ikkinchi bosqich o'yinjarayonidir. O'yin davomida jamoalar tashabbusni qo'lga olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o'ylash va topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchi bosqich o'yinga yakun yasashdir. Bu bosqichda ekspertlarning har biriga o'z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o'z baholarining me'yorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlari natijalarini asoslab beradilar.

Ekspertlar vazifasi:

jamoaning g'alabasini asoslash: a) o'yin ishtirokchilaridan eng xushmuomala; b) eng aqlli; v) eng obro'li; g) eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O'yin yakunida o'qituvchi o'yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o'qituvchi o'yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg'u berishi lozim. Shuningdek, istiqbolda e'tibor berilishi kerak bo'lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqilab berishi kerak.

Maktabgacha ta'lim mutaxassislari ta'lim tizimida innovatsion g'oyalarni yaratish va joriy etish zamonaviy bolalar bog'chasini rivojlantirish uchun zaruriy shartdir degan fikrga kelishib olishadi. Moliyalashtirish yuzasidan davlat muassasalari "Maktabgacha tarbiyachiga pul ketayotganda" innovatsion tashkiliy echimlarining kundalik tartibida kiradigan innovatsion tashkiliy echimlarning kunlik tartibiga kiritilishi institutning obro'sini sezilarli darajada oshiradi va rivojlanishning keyingi yo'nalishlarini belgilab beradi. O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish Psixofizik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, maktabgacha tarbiyachilar tomonidan har doim ijobiy seziladi, ular faoliyatni osongina o'zgartiradilar. O'z navbatida, tashabbus pedagogik kompozitsiya Ota-ona jamoatchiligi, bolalar bog'chasini o'quvchilarning oilalari bilan o'zaro ta'siri mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, shuningdek, muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shtatlardagi innovatsion texnologiyalar nafaqat mumkin, balki ehtiyoj ham. Biroq, buni yodda tutish kerak pedagogik texnologiyalarMaktabgacha bolalarning o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin, bir nechta qat'iy talablar berildi. Bularga quyidagilar kiradi:

- Kontseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi.
- Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismlari bo'lishi kerak - o'zaro bog'liq.

- Ishlov berish - pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunish kerak.
- Reprodikuvchanlik - bu talabga nisbatan qo'llaniladigan o'qituvchi shaxsidan qat'i nazar, texnologiyani teng darajada samarali bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshi - bu bolaning atrofida dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega. Yurish boshlaganida, bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Turli narsalarni yig'ish, ularni o'rganish, mavzudan kelib chiqqan tovushlarni tinglash, bu ob'ektning qaysi fazilatleri va xususiyatlari borligini biladi. Ushbu davrda bolaning ingl. -figurativ va ingl. Effektiv fikrlash shakllari yaratilgan. 5-6 yoshligida bola, shimgich kabi, barcha ma'lumotlarni so'radi. Olimlar ushbu yoshlik davrida bolaning bu ma'lumotni esga olishini, bundan keyin u hayotda hech qachon eslamasligini isbotladi. Bola ufqlarini kengaytira oladigan har qanday narsaga qiziqish uyg'otadigan davrdir va bu uning atrofidagi dunyoni qo'llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi yoshlar xotirjamlik hissi bilan ajralib turadi. Ularning kichik sabablarga ko'ra ziddiyatlari va kuchli affektiv epizootiyalari yo'q. Biroq, bu bolaning hissiy hayotining to'yinganligi pasayadi degani emas. Axir, preschooler kuni juda ko'p his-tuyg'ularga to'lib ketadi, shuning uchun kechqurun bola charchagan va to'liq charchash uchun keladi. Bu davrda hissiy jarayonlarning tuzilishi ham o'zgaradi. Ilgari motorli va vegetativ reaksiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarda saqlanib qolgan emotsional jarayonlarga kiritilgan, ammo hissiyotlarning tashqi ifodasi yanada cheklangan shaklga ega bo'ladi. Maktab o'quvchilari nafaqat bugungi kunda qilayotgan ishidan, balki kelajakda nima qilishidan ham xafa bo'lib, xursand bo'lishadi. Presedrga tegishli bo'lgan har bir narsa - rasm, o'yin, qolib tuzish, onaga yordam berish, uy ishlarini bajarish - yorqin hissiy rangga ega bo'lishi kerak, aks holda narsalar tezda yiqilay yoki umuman bo'lmaydi. Chunki bu yoshdagi bola unga qiziq bo'lmagan ishni bajarolmaydi. Bu asrda, maktabgacha tarbiyachilarning boshqalarga va o'zlariga bo'lgan munosabati muhim ko'rsatkichdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha kamchiliklarini tanqid qilishadi, tengdoshlariga shaxsiy xususiyatlar beriladi, bolalar va kattalar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, kattalar va kattalar o'rtasidagi munosabatni qayd qiladi. Biroq, ota-onalar bolalarga misol bo'la oladi. Shuning uchun, ota-onalar bolaga ijobiy ma'lumotni kiritish, shaxsiy yoki intellektual ma'lumot bo'lsin, u bolaga qo'rquv, xavotir va haqoratni keltirmasliklari kerak.

Bolani 6-7 yoshga yetganda, u kelajakda o'zini namoyon qilish uchun hozirgi paytda amalga oshirish uchun o'zini o'tmishda eslab qoladi. Shu jihatdan ham ushbu bosqich bola hayotining deyarli 70 foizini tashkil qiladi. Ya'ni shu

yoshlar oralig'ida bola atrofidagi olamdan hayoti davomidagi yarimdan ko'p informatsiyani oladi. Yapon iqtiboslarida aytilganidek, bu yoshda bolaga podshohdek munosabatda bo'li sh kerak. Chunki ushbu bosqich bola psixologiyasi uchun muhim voqealarga boy bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha talim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha talim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha talim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha talim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha talim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha talim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar "Maktabgacha talim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari -O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'assischilar tomonidan belgilanadi.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag'lari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv-ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to'liq ma'lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatilgan.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida

bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati uchun yetarli sharoit yaratilmaganligi bois, binolar qarovsiz holga kelib, bo'shab yotganligi, ulardan samarali foydalanilmayotganligi tanqid qilinib, kelasi yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yettita yo'nalishdagi strategik vazifalar belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, yaqin o'tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi dominant pozitsiyani egallash maktabgacha ta'limda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llaniladi. O'qituvchilar, kompyuterlar savodxonligini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin va bu faqat taqdimotlar va o'qitish roliklarini namoyish etish bilan cheklanmaydi. Mahalliy rivojlanayotgan dasturlarning ulkan tanlov sharoitida ota-onalar yoshga to'liq javob beradigan narsalarni tanlash juda qiyin va ta'lim ehtiyojlari ta'minlanadi. Vakolatli fikrni olish bu masala faoliyat uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi yoshni rivojlantirish bolalar, oilaviy vakillarning oilaviy vakillari bilan samarali hamkorlikni barpo etish uchun zaruriy narsalarni yaratadilar, ota-onalarning nazarida o'qituvchining nufuzini oshiradi.

To'g'ri talaffuz, boy so'z boyligi, tinglash, muvofiq so'zlarni va intonatsiyani yig'ish - bularning barchasi nafaqat yuksak ma'naviy madaniyatga, aqlli va aqlli, bilimdon va aqlli kishilarga xosdir. Shunday emasmi, har bir ona bolasini ko'rishni orzu qiladimi? Shu bilan birga, bolaning muvaffaqiyatlaridan mamnun bo'lishini ta'minlash uchun, avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak, xususan, nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Sog'lom bolaning barcha fiziologik old sharoitlari bor, shuning uchun kelajakda uning nutqi aniq va tushunarli bo'lib, tushuntirish - aniq va izchil bo'ladi. Shunga qaramay, nutq tug'ma qobiliyat emas, balki boshqa mahorat va qobiliyatlarga parallel ravishda shakllanadi. Va ona tilini muvoffaqiyatli o'tish uchun, kichkina odam sevgi va g'amxo'rlikda o'sishi kerak va uning ijtimoiy muhiti munosib bo'lishi kerak.

Asosan, bolalar o'z ota-onalarini o'rganadilar va unga taqlid qilishadi, ular tezda yangi so'zlarni yodlashadi, so'zlarini sinonimlar, sifatlar va navbatlar bilan boyitadilar. Shu sababli, onalar va ota-onalarga:

- og'zaki so'zlar va jumalarni diqqat bilan kuzatib boring;
- Bolangiz bilan doimo bog'laning;
- nutq paytida suhbatdoshga qarash odatini rivojlantirish, bolaning til va lablar harakatlarini kuzatishi uchun;

- chaqaloqning gorizontini kengaytiradigan, noma'lum faktlarga va hodisalarga tanish bo'lgan hikoyalarni o'qing. Aytgancha, ertaklar nafaqat nutqning rivojlanishiga, balki xayollarga ham hissa qo'shadi. Vaqt o'tishi bilan asosiy belgilar bolaning hayoliy do'stlari bo'ladi va eshitadigan hikoyalar o'yinning skriptidir.

Shuningdek, ushbu jarayonda tengdoshlar bilan muloqotning ta'sirini inkor etmaslik kerak. Albatta, ko'cha yoki do'stlar eshitgan so'zlar, har doim, lug'atda madaniy shaxsning borligiga huquqli shaxslarga murojaat qilmaydi. Lekin nima qilish kerak, lekin bu bolaga shunday deyish noto'g'ri ekanini tushuntirish uchun yaxshi imkoniyat.

Har bir inson bu o'yinni biladi - bu bolalarni tarbiyalashning asosiy va eng samarali usullaridan biridir. Shuning uchun ko'plab oilalar va bolalar bog'chalarida so'z boyligini boyitishga, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqning so'zma-so'z va so'zlashuvini rivojlantirishga, eshitish alomatini yaxshilashga, maxsus o'yin tadbirlarini o'tkazishga imkon beradi. Misol uchun, sevimli bolalaringizning o'yinlari "Ajoyib qop" hisoblanadi. O'yinning mohiyati shundaki, bolalar o'yinchoqlarning yoshiga qarab, har bir narsani sumkadan bilib olishlari, ta'riflashlari yoki hikoya qilishlari kerak.

Asosiy adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. SH.M, Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T 2016
5. SH.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T:, 2016.
6. SH.M. Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi" T.: 2016 y.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
8. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Toshkent 2010 Cho'lpon nashriyoti.
9. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma T:, 2001
10. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.

Axborot manbalari

11. www. tdpu.uz
12. www. pedagog.uz
13. www. Ziyonet.Uz
14. www. edu.Uz

3-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .

Mavzu rejasi:

1. Kichik guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish
2. Katta qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.
3. Kichik guruhlarda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .
4. Katta guruhlarda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish

Seminar mashg'ulotning maqsadi: Maktab bilan MTT o'rtasidagi tarbiyaning barcha ko'rinishlari bo'yicha uzviy bog'liqlik mehnat tarbiyasining mazmunini murakkablashtirishga, uni ijtimoiy foydali tomonga qaratishga, bolalarning mehnatdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tashkil eta bilishga, axloqiy munosabatlarning ongli tus olishiga olib keladi. Mehnat faoliyati yanada tarkib topa boradi. Maktabdagi hamma o'quv-tarbiyaviy jarayonlar bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni rivojlantirish bo'yicha izchillik asosida olib borish.

TOPSHIRIQLAR:

1. Kichik guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish
2. O'rta guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.
3. Katta guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish
4. Maktabga tayyorlov guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish

1-topshiriqni bajarish texnologiyasi:

Kichik guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish

FSMU texnologiyasi

Savol	Kichik guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	


2-topshiriqni bajarish texnologiyasi;

“Klaster metodi ” orqali O'rta guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish tushunchalarini yozing

3-topshiriqni bajarish texnologiyasi:

1-o'quv topshiriq

Romashka usuli: Katta guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirishga ta'riflarini yozib chiqing.



Seminar mashg'ulotning maqsadi: Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil

bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga etishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladishi va boshqalarni dars davomida tahlil qilish.

TOPSHIRIQLAR:

1. Kichik guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .
2. O'rta guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .
3. Katta guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .

Tayyorlov guruhida syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish

1-topshiriqni bajarish texnologiyasi:

**1-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi**

Savol	Kichik guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish?
F-fikringizni bayon eting	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
U- fikringizni umumlashtiring	

b)

2-o'quv topshiriq

«BBB » texnologiyasi

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va ta'limda grafik organayzerlardan foydalanishning ahamiyati nimadan iborat? savoli orqali muammo hal qilinadi

«B.B.B» O'rta guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalash

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman

3-o'quv topshiriq

“Klaster metodi” orqali Katta guruhda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirishni yoriting

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
2. O‘Tolipov, D.Ro‘ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019.
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.
4. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obsh red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.
5. O‘. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va O‘zbek tilining izohli lug‘ati “K” harfi 46-bet 19 amaliyot. - T.: Fan, 2005

4- Seminar mashg‘ulot. Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini loyihalashtirish.

Mavzu rejasi:

- 1.Turli yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogikfaoliyatni loyihalashtirish
- 2.Turli yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogikfaoliyatni loyihalashtirish metodlari va usullari.
3. Turli yoshdagi bolalar guruhida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini loyihalashtirish.

Rejadan tashqari tekshirish - tizimida maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lgan vazirliklar va idoralar yoki ularning tegishli hududiy bo‘linmalari bilan kelishilgan holda tasdiqlangan tekshirishlar reja-jadvalida belgilanmagan holda o‘tkaziladigan tekshirish;

Nazorat tartibida tekshirish - maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ilgarigi tekshirishda ko‘rsatilgan qonun buzilishlarini bartaraf etishi ustidan tekshirishga vakolatli organlar tomonidan amalga oshiradigan tekshirish.

Ta’lim dasturi– MTT Davlat o‘quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta’lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat.

Dastur – muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta‘lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydilar.

Dasturning majburiy qismi - barcha beshta ta‘lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni ko‘zda tutadi. _

Dasturning maqsadli bo‘limi –tushuntirish xati hamda dastur o‘zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o‘z ichiga oladigan bo‘lim;

Dasturning mazmunli bo‘limi –dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlovchi bo‘lim;

Dasturning tashkiliy bo‘limi –dasturning moddiy-texnik ta‘minoti ta‘rifini, ta‘lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta‘minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o‘z ichiga oluvchi bo‘lim.

Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlarini majmuidir.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Qonun – mamlakat miqyosida oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjat. Qonun O‘zbekistonda mamlakatning oliy vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Qonunlar umumxalq ovozi – referendum yo‘li bilan muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar shaklida qabul qilinadi. Uning aniq jarayon va tartiblari belgilangan.

Qonun - Huquqning shakli bo'lib, davlatning oliy vakillik organi tomonidan qabul qilinadigan oliy yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy hujjatdir

Huquq - adolat va erkinlikka asoslangan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, davlat tomonidan o'rnatilgan, kishilarning yurish-turish qoidalari yig'indisidir

Normativ-huquqiy hujjat – umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir

Farmon - Birqator mamlakatlarda davlat boshlig'ining normativ akti. O'zbekistonda Prezident farmoni.

Ixtisos – inson tomonidan hayotning muayyan sohasi bo'yicha maxsus tayyorgarlik yo'li bilan hosil qilingan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar majmui.

Ishlab chiqarish – Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini va moddiy texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash – uzluksiz ta'limning bir turi bo'lib, mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga, ularni zamon talablariga javob bera oladigan darajaga etkazishga qaratilgan ta'lim jarayoni.

Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'limning bolalarni aqliy, ma'naviy, jismoniy rivojlantirish va maktabga tayyorlashga yo'naltirilgan dastlabki bo'g'ini.

Ta'lim tizimi – turli daraja va yo'nalishdagi o'zaro aloqador uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim.

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

Xalq ta'limi – mamlakatda tarbiyaviy, o'quv va madaniy-ma'rifiy muassasa va tadbirlar tizimi hamda ularni boshqarish organlari.

Xalq ta'limi tizimi - muayyan mamlakatning ichki va tashqi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalari.

Davlat-xususiy sheriklik — xususiy investitsiyalarni jalb qilish, resurslarni birlashtirish va xavf-xatarlarni taqsimlash maqsadida davlat sherigi va xususiy sherikning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan maktabgacha ta'lim sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi;

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida bitim (keyingi o'rinlarda matnda bitim deb yuritiladi) — tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasini ijro etishning boshqa shartlarini belgilab beradigan davlat sherigi va xususiy sherik o'rtasida tuzilgan yozma shartnoma;

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim tomonlari (keyingi o'rinlarda matnda tomonlar deb yuritiladi) — davlat sherigi va xususiy sherik;

Davlat sherigi — O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim vazirligi (keyingi o'rinlarda matnda Vazirlik deb yuritiladi);

Xususiy sherik — bitim tuzgan yoki bitim tuzish istagini bildirgan yuridik yoxud jismoniy shaxs. Davlat tashkilotlari xususiy sheriklar bo'la olmaydi, shuningdek xususiy sheriklar tarafida ishtirok eta olmaydi;

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim ob'ekti (keyingi o'rinlarda matnda ob'ekt deb yuritiladi) — bitim bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan er uchastkalari, bo'sh turgan binolar, shu jumladan ishlamaydigan va but qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshqa ob'ektlar;

But qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari — rejadagi quvvatining 50 foizi ham but qilinmagan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

Davlat-xususiy sheriklik loyihasi — muhim davlat, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy-texnik ahamiyatga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasidagi investitsiyaviy, innovatsion, infratuzilmaviy va boshqa tadbirlar majmui;

Filantropik faoliyat — jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga mol-mulkni, shu jumladan pul mablag'larini beg'araz (bepul) o'tkazish, bepul tarzda ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqacha ko'mak berish bo'yicha ixtiyoriy faoliyati;

Ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar — kam ta'minlangan oilalar, oila a'zolari nogiron bo'lgan oilalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, bolaning ota-onasi kvotalar bo'yicha mintaqalarga taqsimlangan ijtimoiy soha xodimlari bo'lgan oilalar;

Konsessiya (konsession bitim) — muayyan muddatga tuzilgan bitim, unga ko'ra davlat konsessionerga qurilish ishlarini amalga oshirish uchun er uchastkalariga, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasini qayta qurish va jihozlash uchun binolarga egalik qilish (tasarruf etish huquqsiz) va ulardan foydalanish huquqini

beradi, konsession faoliyat natijasida konsessioner ega bo'lgan mahsulot va daromadlar konsession bitimda belgilangan hajmda va shartlarda uning mulki hisoblanadi;

Otaliq — otaliqqa olingan maktabgacha ta'lim muassasasiga jismoniy yoki yuridik shaxs (otaliq) tomonidan iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, ta'lim yoki boshqa beg'araz tizimli yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat.

Kasbiy mahorat va loyihalashtirish – boshqaruvda strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, muassasaning umumiy faoliyatini loyihalashtirish, innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdir.

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarlar va professor-o'qituvchilarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiliklariga, ilg'or tajribalarga tayanishi hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalar faoliyatini boshqarishidir.

Loyiha - aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

Loyihalash - boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Ta'lim jarayonini loyihalash - alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

O'qitish va o'qish strategiyasi - belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda

qo' llanilishini ko' zda tutadi.
Darsning turini tanlash - o' qituvchining mahoratiga ko' ra darsning didaktik maqsadi, o' quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi - dars ishlanmasining asosiy o' zagini tashkil etadi.
U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo' lishi mumkin.
Darsning texnologik xaritasi xususida ma' ruzaning keyingi o' rinlarida alohida to' xtalib o' tiladi.

Texnologik xarita (pedagogikada) - pedagogik (ta' lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma' lum ob' ektga texnik xizmat ko' rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma' lumotlar, ko' rsatmalarni o' z ichiga olgan hujjat.

Model - real, haqiqatda mavjud bo' lgan ob' ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o' xshagan nusxasi.

Modellashtirish - hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to' la yorituvchi modelni yaratish

O' quv loyihaviy faoliyat - o' quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yo' lida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi

Shaxsga yo' naltirilgan ta' lim - bu tabiiy tizim hisoblanib, o' quvchining noyob shaxsiy rivojlanishi, uning o' ziga hos qobiliyatlarini va psixologik yo' nalishlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Pedagogyk texnologiya ta' lim - tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

Pedagogyk texnologiya - yunaltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya' ni, u shaxsni

rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.
Pedagogik texnologiya – shaxsiylik xususiyatiga ega boʻlib, muayyan texnologiyalarni taʼlim – tarbiya jarayonida qoʻllashga nisbatan yagona, qatʼiy, meʼyoriy (standart) talablar qoʻyilmaydi.

Taʼlim jarayonni loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Kasbiy faoliyatning belgilari – ixtisoslashtirish, mehnat faoliyatining mohiyati va mazmuni, boshqaruv obʼekti, maqsadga erishish uchun zarur boʻlgan oʻziga xos vositalar, tushunchalar, boshqaruv faoliyatining natijasi, asosiy faoliyat uchun sarflangan vaqt, ish oʻrnining koʻlami va joyi.

Kasbiy qobiliyat – bu rahbarlar va professor-oʻqituvchilarda intellektual, kasbiy malaka va koʻnikma, chidamlilik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, oʻz fikrini yaxshi bayon eta olishi – notiqlik, ishonтира olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, tarbiyaviy munosabatlarda faollik hamda pedagogik taʼsir koʻrsatish, boshqaruvchilik va liderlik xususiyatlarining shakllanganligi.

Kelishuv – professor-oʻqituvchilar va boshqa mutaxassislarning taʼlim muassasasida faoliyat koʻrsatishi uchun maʼlum muddatga tuzilgan shartnoma, boshqa tashkilotlar va oʻquv yurtlari bilan ilmiy-amaliy hamkorlik yoʻnalishlari boʻyicha oldindan shartnoma tuzish tizimi.

Qobiliyat – insonning bilim, koʻnikma va malakalarini orttirish xususiyatlariga bogʻliq boʻlib, mazkur xususiyatlar bilim, koʻnikma va malakalarga taalluqli boʻlmaydi, yaʼni qobiliyatlar bilim, malaka va koʻnikmalarning oʻzida koʻrinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon boʻladi. Qobiliyat insonlarni sifat jihatidan bir-biridan farqlaydigan individual-psixologik xususiyatlardir. Qobiliyatlar insonlarning aniq bir faoliyatidan tashqarida mavjud boʻlmaydi, balki ularning tarkib topishi taʼlim va tarbiya jarayonida sodir boʻladi.

Kollegiallik – pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish hamda subʼektlar faoliyatida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va turli muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda subʼektlarning (oʻquchi-talaba) hamkorligini yoʻlga qoʻyish va birgalikda boshqarish.

Kommunikativlik qobiliyati – bu samimiy muloqotda boʻlishga, muloqotini toʻgʻri tashkil etishga, oʻquvchi talabalar bilan doʻstona muloqot oʻrnatish uchun

to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan qobiliyatdir.

Kommunikatsiya – bu pedagogik jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro axborot almashuvi bo'lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'ziga xos murakkab tizim hisoblanadi va ta'lim muassasasi rahbarlari va professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiralayotgan barcha ishlar axborotlarning samarali almashishini talab qiladi, shuning uchun u o'zining funksional darajasi bilan tavsiflanadi va boshqaruv madaniyatining tashkiliy sifatini belgilaydi. Ta'lim muassasasi kommunikatsiyasi bu o'ziga xos murakkab va ko'p bosqichli tizim bo'lib, nafaqat ta'lim muassasasi ichidagi, balki uning tashqarisidagi axborot almashuvini ham qamrab oladi.

Konstruktiv ixtiloflar – ixtiyoriy muassasa hayotining muhim muammolari va unga qarashlar kurashi, fikrlar xilma-xilligidan iborat bo'lib, turg'unlik va qotib qolishning oldini olishga, rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qilishga, jamoaning maqsad sari ilgarilab borishiga, yangi an'ana va qadriyatlar shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Har qanday ixtilof asosida tomonlar o'rtasida avvalgi munosabatlarni inkor qilishga harakatlar yotganligi uchun yangi munosabatlar va yangi sharoitlar yaratishga olib kelishi mumkin.

Ko'nikma – belgilangan maqsadga muvofiq ravishda harakat usullarini tanlash va amalga oshirish uchun mavjud bilimlar va malakalardan foydalanish.

Liberal rahbarlik – murosasozlik (ko'ngilchanlik)ka asoslangan rahbarlik uslubi. Liberal (erkin ish yuritish) rahbarlik uslubi professor o'qituvchilarning o'quvchi-talabalarga topshiriq va maslahatlarni tavgiyalar ko'rinishida berishi, o'quvchi-talabalarning ishiga kamroq aralashishi bilan tavsiflanadi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

D. Xolmatov _____

**“MAKTABGACHA TA’LIMDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI
LOYIHALASHTIRISH”**

fanidan

ISHCHI O’QUV DASTUR

2023/2024-o’quv yili sirtqi ta’lim shakli, 4-kurs

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta’lim yo`nalishi:	5111800– Maktabgacha ta’lim (sirtqi)

Namangan – 2023

FANNING TAQVIM-MAVZU REJASI

Fan/modul MTPJLM3004	kodi-	O'quv yili- 2023-2024	Semestr-7	ECTS-Kreditlar 4
Fan/modul turi-majburiy		Ta'lim turi-kunduzgi Ta'lim tili-o'zbek tili		Haftadagi dars soatlari: 4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
	Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish	32	88	120

I.1.Fanni o'rganishning zaruriyati.

- 2. Fanning maqsadi** – talabalarga pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish, faoliyat turlari, ularni tashkil etish va o'tkazish, shu bilan birga MTTlarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni loyihalashtirish va va ularni tashkil etish yo'llarida ijodiy ravishda faoliyat ko'rsatishlarida fanni o'rganish orqali egallab borish.

Fanning vazifasi - talabalarga maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish fanining ilmiy-pedagogik asoslarini bilishi, maktabgacha ta'limdagi pedagogik faoliyat turlari va o'ziga xosligini o'rganish; mashg'ulotlarni loyihalashtirish, rejalashtirish. Loyihalashtirish jarayonida bolalarda ko'nikma malakalari rivojlanishining o'ziga xosligi, pedagogik faoliyatni loyihalashtirish metodlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mashg'ulotlar jarayonida interaktiv metodlar orqali ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va tashkil qilish metodikasi yordamida ularni rivojlanganlik darajasini aniqlash kabi vazifalarni bajaradi.

I.2. Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi , ketma - ketligi

“Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish” fani o'zining taraqqiyot bosqichlaridagi turli xil qarashlari bilan birgalikda barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy fanlar bilan aloqador, xususan, bu fanning ilmiy-nazariy asoslari falsafa, odobnoma, pedagogika, pedagogika tarixi, etnopedagogika, ijtimoiy pedagogika, umumiy psixologiya kabi fanlar bilan bevosita bog'liq.

Fanning maktabgacha ta'lim sohasidagi o'rni

Bo'lajak tarbiyachi o'z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak, shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha meyoriy xujjatlarni jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, 'Ozbekiston respublikasi Konstitutsiyasi, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti”, «Ilk qadam» tayanch dasturini, Maktabgacha ta'lim²⁷⁷ga qo'yilgan Davlat talablari kabi me'yoriy

hujjatlarni puxta egallagan bo'lishi lozimdir. «Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish» fani talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlash bilan birga ularda yuksak kasbiy faoliyat malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish” fanida matnlarni tahlil qilishda interaktiv texnologiyalar qo'llaniladi va internet yangiliklaridan olingan axborotlardan foydalaniladi. Shuningdek, fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning yangi ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron darsliklardan foydalaniladi. “Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish” fanini o'rganish davomida mashg'ulotlar paytida axborot (taqdimot, multimediya texnologiyalari) va ta'limning zamonaviy texnologiyalari hamda interfaol metodlar qo'llaniladi.

Fanni o'qitishning natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar).

Fanni o'zlashirish natijasida talaba quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'ladi:

- motivatsion-kognitiv – bilish faoliyatiga yo'nalganlik, o'quv-bilish faoliyatining anglanganligi, ijodiylik, nostandart vaziyatlardagi xulq-atvor, o'quv vazifalarini hal etishdagi mustaqillik, pedagogik kasbini egallashga qiziqish va intilishlarga ega bo'lish;
- informatsion – axborotlar ustida ishlash, axborot xurujlaridan himoyalanih, axborot iste'moli madaniyatini egallash;
- kommunikativ – lingvistik savodxonlik, adabiy va ilmiy uslub qoidalarini o'zlashtirish, verbal va noverbal nutq ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'zaro fikr almashish, voqelikni tahlil etishda erkin muloqotga kirishish, pedagogik voqelikka o'zining xolisona munosabatini bildirish;
- g'oyaviy-mafkuraviy – 278milliy g'oyaning mazmun-mohiyatidan xabardorlik, dunyoning mafkuraviy manzarasini anglash, g'oyaviy

immunitetga egalik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalanish, milliy g'oyaning shaxsiy va ijtimoiy mohiyatini anglash, milliy g'oyaning pedagogik faoliyatdagi o'rnini aniqlashtirish;

- fuqarolikka doir – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, milliy-madaniy meros, xalqning o'tmishi, buguni va istiqbolini uyg'unlikda tahlil etish, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish, mahalla hayoti va o'z-o'zini boshqarish institutlari, ijtimoiy harakatlar tomonidan o'tkazilayotgan loyihalarda faollik ko'rsatish;

- ma'naviy-axloqiy – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish va amal qilish, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirish va pedagogik faoliyatning bosh mezoniga aylantirish, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish, ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishga tayyorgarlik;

- akmeologik – o'ziga va uni o'rab turgan atrof-muhitga ishonch, o'z xohish-istaklari va ehtiyojlarini to'liq anglash, bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollarni aniqlash, refleksiya, identifikatsiya, interiorizatsiyaga, o'zining qarashlari, e'tiqodi va ustanovkalarini o'zgartirishga qobiliyatlilik;

- aksiologik – pedagogik voqelikni aksiologik baholash, pedagogik hodisalarni qadriyat sifatida anglash, pedagogik jarayondan zavqlanish, lazzatlanish, mas'uliyat hissini sezish, o'z pedagogik pozitsiyasini anglash va ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlik.

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr	
			VII	VIII
1	Ma'ruza	16	16	
2	Amaliy mashg'ulot	-	-	
3	Seminar mashg'ulot	16	16	

4	Mustaqil ta'lim	88	88	
5	Kurs ishi	-	-	
6	Auditoriya soati	32	32	
7	Umumiy soat	120	120	

II.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Hafta	Soat	Mashg'ulot mazmuni
1	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>1-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Pedagogik faoliyat haqida tushuncha tushuncha. 2.Pedagogik faoliyat turlari. 3.Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
2	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>2-mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Loyihalashtirish texnologiyasi hamkorlikni ta'minlashning noyob vositasi. 2. Bolalarni pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda ijod qilishi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik faoliyatga yondashuvni amalga oshirish usuli 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik

		<p>texnologiyalar asosida loyihalash usullari.</p> <p>4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida tushuncha. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning bosqichlari.</p>
3	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>3-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Loyihaviy faoliyat texnologiyasining pedagogikadagi o'рни. Pedagogik faoliyatni loyihalashtirishning afzalligi. 2. Tarbiyachining faoliyat turlarini loyihalashtirishdagi kompetentligi. 3. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati va pedagogik faoliyatni loyihalashtirish turlari. 4. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishdalooyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.
4	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>4-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni hamda syujetli-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha ta'limda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olgan holda qurish-yasash faoliyatini loyihalashtirish. 2. Qurish-yasash faoliyati orqali matematik bilimni shakllantirish. 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markaz foliyati haqida tushuncha. 4. Syujet-rolli o'yinlar turlari va sahnalashtirishga rahbarlik

		qilish.
5	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>5-mavzu. Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Rivojlantiruvchi til va nutq markazi haqida tushuncha. Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy faoliyatini rivojlantirish nutqiy faoliyatini loyihalashtirish usullari. 2. Mashg'ulotdan tashqi vaqtlarda tasviriy faoliyat. 3. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish maqsad va vazifalari. 4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida loyihani amalga oshirish metodlari va usullari.
6	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>6-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari. Pedagogik texnologialarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiytlari.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. MTTning turli yosh guruhlarida jismoniy harakatlarni loyihalashtirish. 2. Mashg'ulotlar orasida chalg'ituvchi jismoniy harakatlarni rejalashtirish. 3. Pedagogik texnologialarning o'ziga xos xususiytlari. 4. Ta'lim jarayonida testlardan foydalanish.
7	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>7-mavzu: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari</p>

		<p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Muammoli ta'lim vazifalari 2. Muammoli ta'limni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyalardan foydalanish. 4. Multimediya so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi. <p>Maktabgacha ta'limda multimediyalardan foydalanish.</p>
8	2	<p>Mashg'ulot turi: ma'ruza</p> <p>8-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyati</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bolalar dizayni konsepsiyasining mohiyati va bolalar dizayni texnologiyasi. 2. Kichik yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. 3. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar.
7-semestr 16 soat		
III.Seminar mashg'ulotlar		
1	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>1-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish 2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirishning texnologiyalari 3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik

		texnologiyalar asosida loyihalash usullari
2	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>2-mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyati 2. MTTda tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari 3. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish 4. MTTlarda loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati
3	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>3-mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish .</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kichik guruhlarda qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish 2. Katta qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. 3. Kichik guruhlarda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish . 4. Katta guruhlarda syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish
4	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p style="text-align: center;">284</p> <p>4-mavzu: Rivojlantiruvchi til va nutq markazida</p>

		<p>pedagogikfaoliyatni loyihalashtirish. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <p>1.Turli yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogikfaoliyatni loyihalashtirish</p> <p>2.Turli yoshdagi bolalar guruhida rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogikfaoliyatni loyihalashtirish metodlari va usullari.</p> <p>3. Turli yoshdagi bolalar guruhida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish.</p> <p>4. Mustaqil tasviriy faoliyatni loyihalashtirish va rahbarlik qilish.</p>
5	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>5-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish texnologiyalari.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <p>1. Kichik guruhda bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish texnologiyalari.</p> <p>2. O'rta guruhda bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish texnologiyalari.</p> <p>3. Katta guruhda bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish texnologiyalari.</p> <p>4. Tayyorlov guruhda bolalarning jismoniy faoliyatini oshirish texnologiyalari</p>
6	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>6-mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyalardan foydalanish.</p> <p>Mavzu rejasi:</p>

		<p>1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari.</p> <p>2. Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari.</p> <p>3. Multimediya so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi.</p> <p>4. Maktabgacha ta'limda multimediyalardan foydalanish.</p>
7	2	<p>Mashg'ulot turi: seminar</p> <p>7-mavzu: Tayyorlov guruhlarida nutq, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodlari.</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <p>1. Tayyorlov guruhlarida nutq, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodlari</p> <p>2. Tayyorlov guruhlarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari</p>
8	2	<p>Mashg'ulot turi: amaliy</p> <p>8-mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalari</p> <p>Mavzu rejasi:</p> <p>1. Turli yosh guruhlaridagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalari.</p> <p>2. Tayyorlov guruhlarida ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga doir faoliyat turlarini loyihalashtirish.</p> <p>Asosiy adabiyotlar:</p>
7-semestrda 16 soat		
Jami: 32 soat		
IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar		

1	2	<p>Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirish</p> <p>TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish. Konspekt qilish.</p>
2	2	<p>Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining texnologiyalari</p> <p>TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.Konspekt qilish.</p>
3	4	<p>Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash usullari</p> <p>TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.</p>
4	4	<p>Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari</p> <p>TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar, internet ma'lumotlari orqali o'rganish.Taqdimot tayyorlash.</p>
5	4	<p>Mavzu: Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loyihalashtirish faoliyatining ahamiyati.</p> <p>TMI bajarish shakli: Internetdagi xorijiy davlat maktabgacha ta'lim maskanlaridagi tarbiyachilarning pedagogik va kasbiy mahoratlari aks ettirilgan video va ko'rsatuvlarni ko'rish, kerakli xulosalarni qayd etish.</p>
6	4	<p>Mavzu: Turli yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish.</p> <p>TMI bajarish shakli: Tarbiyachining qurilish va konstruksiyalash mashg'ulotlarini tashkil qilishdagi kompetentligiga doir maxsus adabiyotlarni o'rganish, muhim o'rinlarini qayd etish(konspekt qilish).</p>
7		<p>Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish.</p>

	4	TMI bajarish shakli: Syujet-rolli o'yinlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlarni o'rganish.
8	4	Mavzu: Rivojlantiruvchi til va nutq markazida pedagogik faoliyatni loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda til va nutq markazining ahamiyatini o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlardan o'qib-o'rganish va kuzatishlar asosida chiqargan mustaqil fikrini yozma bayon etish.
9	4	Mavzu: Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini loyihalashtirish . TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
10	4	Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish texnologiyalari. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
11	4	Mavzu: Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
12	4	Mavzu: Maktabgacha ta'limda muammoli ta'limni tashkil etish bosqichlari. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
13	4	Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyalardan foydalanish. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
14	4	Mavzu: Multimediya so'zining ma'nosi va kelib chiqish tarixi. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

		boyicha mavzuni o'rganish.
15	4	Mavzu: O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun qurilish va konstruksiyalash bo'yicha faoliyatlarni loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
16	4	Mavzu: O'rta va katta yoshdagi bolalar uchun syujet-rolli o'yinlarni loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
17	4	Mavzu: Tayyorlov guruhlarida o'yinlarni loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar boyicha mavzuni o'rganish.
18	4	Mavzu: Tayyorlov guruhlarida til va nutq markazidagi ish faoiyatini loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzuni o'rganish.
19	4	Mavzu: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatini loyihalashtirish. TMI bajarish shakli: Turli yosh guruhlar uchun tabiat bilan tanishtirish bo'yicha maxsus adabiyotlarni o'rganish, taqdimot tayorlash
20	4	Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy rivojlanish texnologiyalari. TMI bajarish shakli: Ma'ruza materiallarini o'rganish.
21	4	Mavzu: Tayyorlov guruhlarida nutq, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish metodlari TMI bajarish shakli: Ma'ruza materiallarini, maxsus adabiyotlarni o'rganish.

	22	4	<p>Mavzu: Tayyorlov guruhlarida o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish</p> <p>TMI bajarish shakli: Ma'ruza materiallarini, maxsus adabiyotlarni o'rganish.</p>
	23	4	<p>Mavzu: Tayyorlov guruhlarida ijtimoiy-hissiy(emotsional) rivojlanishiga doir faoliyat turlarini loyihalashtirish</p> <p>TMI bajarish shakli: Ma'ruza materiallarini, maxsus adabiyotlarni o'rganish. Tayyorlov guruhda bolalari uchun ijtimoiy-hissiy(emotsional) rivojlanishiga doir faoliyat ishlanmasini tuzish</p>
7-semestr 88 soat			
3.	<p>V. "Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish" fanining o'qitilish natijalari(shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - maktabgacha yoshdagi bolalarga pedagogik jarayonlarni loyihalashtirishning asoslarini; - maktabgacha ta'limda pedagogik faoliyati haqida tushuncha; - maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish nazariyasi va metodlari; - maktabgacha ta'limda pedagogik faoliyati turlari va o'ziga xosligi; -rivojlantirish markazlarida turli yosh guruhlar uchun pedagogik jarayonni loyihalashtirish; - maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish turlari, metod va usullari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; -maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va tashkil qilishni; - maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish turlari bilan tanishtirish usullari; -maktabgacha ta'limda rivojlantiruvchi markazlarda pedagogik 		

	<p>jarayonlarni tashkil qilishni;</p> <ul style="list-style-type: none"> - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish faoliyatining texnologiyalarining o'ziga xosligini o'zlashtiradi; -maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishmalakalariga ega bo'lishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatlarni loyihalashtirishga ega bo'lish; - "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidagi faoliyatlar turi va ularni loyihalashtirish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi; -rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari va loyihalashtirish metodlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.
<p>4.</p>	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
<p>5.</p>	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p>Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.</p> <p>Fan bo'yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – "a'lo", 4 – "yaxshi", 3 – "qoniqarli", 2 – "qoniqarsiz" baho mezonlarida</p>

amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013
3. F.R.Qodirova. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. SH.M, Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T 2016
5. SH.M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T:, 2016.
6. SH.M. Mirziyoyev. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi" T.: 2016 y.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.*
8. SH.Nurmatova, SH.T.Xasanova, D.E.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Toshkent 2010 Cho'lpon nashriyoti.
9. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma T:, 2001
10. O.Hasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T:. "Aloqachi", 2007 y.
11. D.R.Djurayeva Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbita berishning zamonaviy tendensiyalari. T:, O'ZPFITI 2015
12. Djanpensova, B.Xolmuratova,. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. T:, "Innovatsiya-Ziyo", 2020
13. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.:BMT bolalar jamg'armasi (YUNISEF), 2018
14. Bikbayeva.N.U., Ibragimova Z.I., Qosimova X.I. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" T. "O'qituvchi". 1995.
15. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk agentligi".- T.:2020-yil. (elektron darslik). 293

	<p>16. F.R.Qodirova “Nutq o‘stirish metodikasi” O‘UM T.; 2012 y (elektron)</p> <p>17. Xujayev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” Cho‘lpon nashriyoti Toshkent 2011 y</p> <p>18. Abdullayev A,Xonkeldiyev SH. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent, O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institute, 2005 yil-300 b.</p> <p>19. Liviyskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi. Toshkent 1995 yil- 500 b.</p> <p>20. Xujayev F, Raxmonqulov K.D., Nigmanov B.B “Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi” TDPU nashriyoti Toshkent 2008 y</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>21. www. tdpu.uz</p> <p>23. www. pedagog.uz</p> <p>24. www. Ziyonet.Uz</p> <p>25. www. edu.Uz</p>
7.	<p>Ishchi o‘quv dasturi Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasining 2023-yil, -avgustdagi -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti kengashining 2023-yil, -avgustdagi -sonli yig‘ilishida ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.</p> <p>- NamDU Kengashining 2023-yil, -avgustdagi -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul:</p> <p>1. D. Xomidova _____ Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi</p>

9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. N.Abdusamatova _____ Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, PhD</p> <p>2. Z.Qoraboyeva _____ Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi</p>
-----------	--

NamDU o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

X. Mirzaaxmedov

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim

fakulteti dekani

G'.Abdullayev

Maktabgacha ta'lim metodikasi

kafedrası mudiri

N.Abdusamatova

Tuzuvchi

D. Xomidova

O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASIKAFEDRASI

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK
JARAYONLARNI LOYIHALASHTIRISH
fanidan

KEYSLAR



Namangan 2022

Pedagogik mini keyslar namunalari

1-vaziyat. Feruza ismli qiz bola 6 yoshda. U 3 yoshidan xoreografik to'garakka, 5 yoshidan esa vokal va teatr studiyasiga qatnaydi. Tez-tez sahnada chiqish qiladi, turli tanlovlarda qatnashadi. Navbatdagi chiqish oldidan o'yin vaqtida Feruza o'zining tengqurlariga: "Men sizlardan yaxshiroq bilaman, men sahnaga ko'p marotaba chiqqanman, sizlar esa, chiqmagansizlar. SHuning uchun, men tulki rolini o'ynayman"deb, rahbarlik qilishga harakat qilmoqda. Tengqur qizlar unga bo'ysunishdan bosh tortishga harakat qilmoqdalar va tarbiyachi oldiga yordam so'rab bormoqdalar.

Keysga savol- vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Yechim variantlari:

1-variant. Feruzaga o'zining dugonalariga o'zlarini namoyon qilishlariga yordam berish uchun ushbu o'yinda rejissyor rolini taklif etish. Ularning chiqishlari ham

maqtovga loyiqqligini ko'rsatish.

2-variant. Feruza bilan badiiy asar qahramonlari xulqlarining salbiy tomonlari (maqtanish, do'stlarining xafaligi va hokazo)ni tahlil qilishga yo'naltirilgan suhbat o'tkazish, boshqa qizlar uning dugonalari ekanligini, ularda ham shu rol ni o'ynashga

xohishlari borligini tushuntirish. Tulki rolida navbat bilan o'ynashni taklif etish.

3-variant. Bolalarga tortishmaslikni taklif etish, balki rol ni taqsimlashni qur'a tashlash yo'li bilan amalga oshirish. SHunda to'g'ri bo'lar.

4-variant. Tulki – bosh rolb uchun tanlov tashkil qilish, mustaqil hakamlarni (ushbu o'yinda qatnashmaydigan o'g'il bolalardan) tanlash.

5-variant. Ushbu muammoni hal etish uchun bolalarga murojaat qilish.

2-vaziyat. Shohruh 7 yoshda. U yoshligidan e'tiboran yelimplash, rasm chizish, qurishga qiziqadi. SHohruh yaxshi rasm chizadi, plastilindan turli narsalar yasaydi, ajoyib konstruktsiyalar yaratadi, ijodiy xayol suradi. Tarbiyachining bolani badiiy studiyaga berish taklifiga SHohruhning ota-onasi, u sport bilan shug'ullanishi kerak degan qarorga kelib, rad javobini berishdi. Bog'chada SHohruh hech kim bilan do'stlashmaydi, bolalar bilan ko'pincha nizoga kirishadi. Agar bolalardan biri uni rasm chizishiga, uycha qurishiga yoki boshqa o'yinlariga qo'shilmoqchi bo'lsa, SHohruh ko'pincha ularni qo'ymadi. U bolalarga aralashmaydi, uni o'z sevgan mashg'ulotidan chalg'itish yoki e'tiborini boshqa narsaga qaratish qiyin, ya'ni "bola o'zi bilan".

Keysga savol- vazifa:

Sizning harakatlaringiz qanday bo'ladi?

Yechim variantlari

1-variant. Shohruhning o'zini-o'zi baholashi juda past holatda. Uning bahosi ota-onasi tomonidan tan olinmagan. Bolaning o'zini-o'zi baholashini rivojlantirishga harakat qilish kerak, tanlovlarda qatnashishni taklif etish lozim. SHohruhning muvaffaqiyatlarini ota-ona va bolalar baholashlari uchun, uning ishlarini ko'rgazmalarga qo'yish lozim.

2-variant. Sotsiometrik uslubdagi tadqiqot o'tkazish, bolani afzal ko'rish, uni ochish va turli umumiy vazifalar bergan holda, bolalar bilan yaqinlashtirishga harakat

qilish, bolalar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishga tortish kerak.

